O‘ZBEK TILI

3

O‘QITUVCHILAR UCHUN

METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

скачано с сайта www.idum.uz

UO‘K 811.512.133(072)
KBK 81.2O‘zb
O‘ 16

Mualliflar:

Dilafruz Xidoyatova, Iroda Bakirova, Fayoza Raxmatova,
Namoz Rasulov, Nurjahon Abdullayeva

Taqrizchilar:

M. Qurbonova – O‘zbekiston milliy universiteti jurnalistika fakulteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

N. Musulmanova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti o‘zbek tili kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

G. Kebaituli – Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy millatlar universiteti o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

M. Matnazarova – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 69-maktabning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

O‘zbek tili 3 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / D. A. Xidoyatova [va boshq.] – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 128 b.

Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8069-8-6

© Respublika ta’lim markazi, 2022

скачано с сайта www.idum.uz

MUNDARIJA

KIRISH 5
Nutqiy kompetensiya elementlarini o‘zbek tili darslarida shakllantirish 6

1-BO‘LIM. MEN MAKTABGA TAYYORMAN

1-dars. Yangi do‘stlarim 7
2-dars. Xayrli kun! 11
3-dars. Maktab bozori 14
4-dars. Men darsga tayyorman! 16
5-dars. Kimda nima bor? 18
6-dars. Nechanchi bet? 20
7-dars. O‘yla, izla, top! 22
8-dars. Yo‘l-yo‘lakay 24
9-dars. Yo‘ldagi sarguzashtlarim 26
10-dars. Alining yo‘l xaritasi 28
11-dars. Davron va Azizaning bir kuni 30
12-dars. Bolalar markazi 32
13-dars. Chiq-chiq 34
14-dars. Qani, ketdik! (Mustahkamlash) 36

2-BO‘LIM. MAKTAB BO‘YLAB SAYOHAT

15-dars. Bizning maktabimiz 38
16-dars. Oshxonada 41
17-dars. Ulug‘bek amaki 43
18-dars. Ajoyib voqea 45
19-dars. Ruchkaning tarixi 47
20-dars. Fasllar go‘zalligi 49
21-dars. Kunlardan bir kun 51
22-dars. Kanadadan Ismoil 53
23-dars. Maktabda sirk 56
24-dars. Qani, ketdik! (Mustahkamlash) 58

скачано с сайта www.idum.uz

3-BO‘LIM. BAYRAMLAR

25-dars. O‘zbekiston bayramlari 60
26-dars. Bayramga tayyorgarlik 62
27-dars. Tug‘ilgan kun 64
28-dars. Kim bilan? 66
29-dars. Bu nima? 69
30-dars. Biz tengmiz 71
31-dars. Qayerga? 73
32-dars. Garderob 76
33-dars. Tugmacha 78
34-dars. Yoqimli ishtaha! 80
34-dars. Qanday? 82
35-dars. Sanchqi 84
36-dars. Doshqozon 87
37-dars. Milliy o‘yinlar 89
38-dars. Laylak keldi 91
39-dars. Men kimman? 93
40-dars. Qani, ketdik! (Mustahkamlash) 95

4-BO‘LIM. YORDAMCHI DO‘STLARIMIZ

41-dars. Ixtiro qilish mumkinmi? 97
42-dars. O‘z qo‘lingda 100
43-dars. Sinmaydigan ko‘zoynak 102
44-dars. Lui Brayl kim? 104
45-dars. Ogoh bo‘ling 106
46-dars. Ko‘zoynak 108
47-dars. Qarang, uchdi! 111
48-dars. Bilib qo‘ygan yaxshi 113
49-dars. Eng, eng, eng 116
50-dars. Batut 118
51-dars. Qani, ketdik! (Mustahkamlash) 119
Interaktiv metodlar 121
Ilovalar 122

скачано с сайта www.idum.uz

KIRISH

Mamlakatimizning har tomonlama ravnaq topishi, istiqboli, taraqqiy etishi, yoshlarimizning kelajagi – ta'lim tizimidagi yangilanishlar, islohotlar samaradorligiga bog'liq. Ilm-fan sohasidagi eng so'nggi yutuqlarni, yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va amaliyotga joriy etishda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

O'qituvchi doimo izlanishi, yangilikka intilishi, o'z faoliyatini tahlil qilib, uni rivojlantirib borishi, bugungi kun talablari asosida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalana olishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o'quvchini sevishi va bugungi kun o'quvchilarining qiziqishi va ular nima bilan yashayotganini tushunishi zarur.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini samarali tashkil qilishi, aniq bir maqsadga mustaqil yo'naltirish uchun har bir darsni puxta rejalashtira olishi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, lozim bo'lsa, yangi mashq namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa tarzida olib borishi lozim. O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarini o'rganilgan mavzu yuzasidan fikrlarini aytishga undashi, ular kiritgan taklif va mulohazalarni, iste'dodini namoyish qilishga urinishlarni ijobiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik harakatlarini muttasil rag'batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi, nutqiy kompetensiyasini, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimini, balki o'zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtirib boradi. O'quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida gap va xulosa chiqarishga shoshmaslik, o'z vazifasiga mas'uliyat hissi bilan yondashish, o'zidagi intellektual salohiyatini o'quvchi bilan baham ko'rish, o'zida bag'rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o'rganadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili ta'limining maqsadi o'z fikrini davlat tilida og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugun o'zbek tili ta'limi mazmuni o'zgarmoqda.

Biz yillar davomida o'zbek tili ta'limi orqali o'quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o'rgatib keldik. Endilikda grammatikadan ko'ra o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Shunday ekan, bu maqsadga erishishda o'zbek tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo'llash va o'quvchida ko'nikma shakllantirish darkor.

Qo'lingizdagi mazkur metodik qo'llanmada 3-sinf "O'zbek tili" darsligidan o'rin olgan mavzularni o'rganish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning yechimi hamda matn va lug'at ustida ishlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

скачано с сайта www.idum.uz

NUTQIY KOMPETENSIYA ELEMENTLARINI O‘ZBEK TILI DARSLARIDA SHAKLLANTIRISH

Tinglab tushunish

O‘zbek tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘quvchilarda rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o‘quvchida diqqatini uzoq vaqt jamlay olish, og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini, monologik va dialogik nutqni hamda matn mazmunini tushuna olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilar nutqni tushunishi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olishi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etishi, tinglab tushunishi, nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglashi, ibora va yangi so‘zlarning ma’no xususiyatlarini farqlashi va tushunishi lozim.

Gapirish

O‘zbek tili darslarida o‘quvchining og‘zaki nutqi dialoglarni ishtirokchi bo‘lib ijro etishi, berilgan matnlarni o‘rganishi, mazmunini esa og‘zaki bayon qilishi bilan shakllanib boradi. O‘quvchining gapirish ko‘nikmasi o‘rganilgan mavzuni og‘zaki ifodalashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘rganilgan mavzuni yoki matnni og‘zaki bayon qilayotganida fikrlarini o‘zbek tilida to‘g‘ri ifodalashi, mavjud lug‘at boyligidan oqilona foydalanib, mavzudan chetga chiqmay mazmunni yoritishi, bog‘lanishli nutq asosida gapira olishi, undan xulosa chiqarishi zarur. Bu ko‘nikmalar dars jarayonida takomillashtirib borilishi kerak. O‘quvchi nutqini adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda ifodali, ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta olishi, leksik, grammatik va stilistik me’yorlarga amal qilishi lozim.

O‘qib tushunish

O‘qish ko‘nikmasi orqali o‘quvchining tanish va notanish matnni ifodali o‘qiy olish darajasi aniqlanadi. Bunda voqeaband yoki faktologik matnlarni gapning ifoda maqsadi, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qishi, berilgan grammatik qolip va ma’lumotlarni o‘qib tushunishi, turli janrdagi matnlardan o‘zi tushungan mazmunni tinglovchilarga gapirib bera olishi, gazeta va jurnallarni, reklama va e’lon, turli mavzulardagi broshyuralarni, internet materiallarini, badiiy, ilmiy-ommabop hamda rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o‘qib tushunishi aniqlanadi.

Yozish

O‘quvchining o‘zbek tili ta’limi jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. O‘quvchilar fikr ifodasida mantiqan izchillikka rioya qilishlari, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalana olishlari kerak. Ijodiy matnlar yarata olishi, imlo, ishora belgilari va uslubiy qoidalarga amal qilgan holda, rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlab yozishlari kerak.

скачано с сайта www.idum.uz

1-BO‘LIM. MEN MAKTABGA TAYYORMAN

1-DARS. YANGI DO‘STLARIM

Maqsad

O‘zbek tilida salomlashish, tanishish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mavjud bilimlarni mustahkamlash. Shaxsni ma’lum bir hududga oidligini ko‘rsatuvchi til belgilari, ya’ni **-dan** va **-lik** qo‘shimchalari bilan tanishish va ularni bevosita nutqda, shaxs va sonda moslab ishlata olish malakalarini shakllantirish. Shuningdek, mavzuda berilgan yangi so‘zlardan to‘g‘ri foydalana olish, yozish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda alifbo bo‘yicha mavjud bilimlarni takrorlab olish.

BO‘LIMGA KIRISH

Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazib oling. Bunda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilarga “Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?”, “Sizningcha, yangi bo‘limda biz nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Yangi o‘quv yiliga tayyormisiz?”, “Yangi o‘quv yilida o‘z oldingizga qanday reja va maqsadlar qo‘ydingiz?” kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling. Ularning fikr-mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan bir nechta qiziqarli ma’lumotlar bering va ularning mavzuga bo‘lgan qiziqish hamda ishtiyoqlarini oshiring. Ushbu yangi bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarning lug‘at boyliklari qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholab oling va ushbu bo‘limda eng ko‘p qaysi jihatlarga e’tibor qaratish lozimligi haqida o‘ylab ko‘ring.




Refleksiya jarayoni

O‘tgan o‘quv yili davomida o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari, o‘rgangan yangi so‘zlari, yozgi ta’tilni qanday o‘tkazishgani bo‘yicha o‘quvchilar bilan kichik savol-javob o‘tkazing.

Vazifalar

1. Darslikdagi 1-topshiriqda berilgan audio materialni o‘quvchilarga 2 marta tinglating va matnini o‘qiting (o‘quvchilarning ketma-ketlikda o‘qishlarini ta’minlash maqsadga muvofiq).

2. Shaxsni ma’lum bir hududga oidligini ko‘rsatuvchi **-dan** va **-lik** qo‘shimchalarini olgan so‘zlar va ularning shaxs-sonda tuslanishi haqida ma’lumot bering.


YANGI DO‘STLARIM

-dan...
-lik...

1. Tinglang va o‘qing.

Meni taniyapsizmi? Men Qalamchaman. Bular mening do‘stlarim Davron va Aziza. Siz ular bilan o‘zbek tilini o‘rganasiz.

Assalomu alaykum. Mening ismim Aziza. Men to‘qqiz yoshdaman. Men O‘zbekistonda yashayman. Men rasm chizishni yaxshi ko‘raman.

Assalomu alaykum. Mening ismim Davron. Mening yoshim to‘qqizda. Men o‘zbekistonlikman. Men futbolga qiziqaman.

?

?

2. Javob bering.

Men ... (dan, lik) -man. Sen ... (dan, lik) -san. U ... (dan, lik) -dir.	Biz ... (dan, lik) -miz. Siz ... (dan, lik) -siz. Ular ... (dan, lik) -dir.

6


Eslatma

Atoqli otlar, ya’ni mamlakat, hudud, shahar, qishloq nomlariga **-dan** qo‘shimchasi qo‘shilganda so‘zlar bosh harfda yozilishini (O‘zbekistondan, Yevropadan, Andijondan tarzida), **-lik** qo‘shimchasi qo‘shilganda esa atoqli ot turdosh otga aylanib, so‘zlar kichik harflarda yozilishini (o‘zbekistonlik, yevropalik, andijonlik tarzida) tushuntiring.

3. Darslikda berilgan komikslar bilan o‘quvchilarni tanishtiring, ularda keltirilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgating, ma’nolarini tushunishlari va og‘zaki nutqda qo‘llay olishlariga erishing.

4. Komikslar bo‘yicha berilgan navbatdagi topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar komikslarda keltirilgan rasmlarni aniqlab olib, ularning tartib raqamlarini kerakli o‘rinlarga moslab qo‘yib chiqishlari lozim.





5. Alifbo ketma-ketligi bo‘yicha berilgan topshiriqni bajartiring. Bunda o‘quvchilar alifbo ketma-ketligida tushirib qoldirilgan harflarni topib, ularni yozib chiqishlari lozim.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi

materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskada esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerga yozishlari va daraxtni mevalar bilan “bezatishlari” lozim.

3. O‘ylang va toping. Yozing. (7/4)

A. Mevalar chizilgan sovg‘a (__)

B. Suv havzasi (__)

D. Do‘stlarning uchrashuvi (__)

E. Azizaning dadasi (__)

4. Yozing. (6/2)

Men _____ *danman.* ***Biz*** _____ *danmiz.*

Sen _____ ***Siz*** _____

U _____ ***Ular*** _____

Men _____ *likman.* ***Biz*** _____ *likmiz.*

Sen _____ ***Siz*** _____

U _____ ***Ular*** _____

5. O‘ylang va toping. Yozing. (8/5)

A D G H J M Q S X Y _____

O‘ Sh _____

Mustaqil topshiriq.

_____

_____

_____

_____



7

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab olishlari zarur. O‘zlari uchun namunadagidek o‘quvchi guvohnomasini (nishon ko‘rinishida) yasab kelishlari lozim.

2-DARS. XAYRLI KUN!

Maqsad

Salomlashishga oid til birliklarini ifodalovchi *xayrli tong, xayrli kun, xayrli kech, xayrli tun, assalomu alaykum* kabi so‘z birikmalari bilan tanishish, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallash. Mavzuda berilgan yangi so‘zlar bilan tanishish va ularni to‘g‘ri yozish hamda og‘zaki nutqda o‘rinli qo‘llay olish malakasini shakllantirish. Shuningdek, hozirgi zamon davom fe’lini takrorlab, mustahkamlab olish.




Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan o‘quvchi guvohnomasi (nishon ko‘rinishida) yasab kelish topshirig‘ini baholang, tahlil qiling. Topshiriq bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



Vazifalar

1. 1-topshiriqda keltirilgan til birliklarini o‘quvchilarga 2 marta tinglating va ularni takrorlating. Bu topshiriqda o‘quvchilar beril-



3. O‘ylang va toping.

	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1. Davron o‘qituvchisiga salom berdi.	✓	✗
2. Davron maktab oshxonasida tushlik qildi.		
3. Davron yuvinmasdan salom berdi.		
4. Davronni maktabga onasi kuzatdi.		
5. Maktabda Davron to‘polon qildi.		
6. Davronning dadasi ishdan keldi.		

Diqqat qiling!

Men Biz
Sen Siz
U Ular

Men -man.
Sen kelmoq + -yap -san.
U -ti.

Biz -miz.
Siz kelmoq + -yap -siz.
Ular -ti(lar).

4. O‘ylang, gapiring.

Namuna.
Men o‘qiyapman.

Kitob – kitop

Mustaqil topshiriq. Salomlashish (assalomu alaykum, xayrli tong, xayrli kun, xayrli kech, xayrli tun) va xayrlashishga oid so‘zlarni 3 ta tilda yozing.

Assalomu alaykum!	...	Hello
...	...	...

10

gan vaziyatlarga mos keluvchi birliklarni aniqlab olishlari va mashq daftarida ularni tartiblangan raqamlari bilan moslab chiqishlari lozim.

2. 2-topshiriqdagi komiksni o‘qiting. O‘quvchilar bilan komiks bo‘yicha savol-javob o‘tkazing.

3. 3-topshiriqda keltirilgan jadvaldagi savollarga o‘quvchilarning yuqorida berilgan komiks asosida javob berishlarini ta’minlang. Bunda o‘quvchilar savollarga “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” tarzida javob berishlari lozim.

4. Hozirgi zamon davom fe’li haqida ma’lumot bering va o‘quvchilarning bu boradagi bilimlarini mustahkamlab oling.


5. *O‘qimoq, yozmoq, suzmoq, yurmoq* kabi fe’l shakllarini shaxs va sonda olmoshlar bilan tuslab (men o‘qidim, sen o‘qiding, ular o‘qidilar va h.k.), hozirgi zamon davom fe’li shaklida (men o‘qiyapman, sen o‘qiyapsan, ular o‘qiyaptilar va h.k.) 2 marta o‘qib bering va takrorlating. O‘quvchilar birliklarni tushunishlariga va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishlariga erishishingiz lozim.

6. 4-topshiriqda aks ettirilgan harakatlarga o‘quvchilar e’tiborini qaratting. O‘quvchilar namunada ko‘rsatilgani kabi gaplarni rasmlarga moslab yozib chiqishlari lozim. Topshiriq mashq daftarida yozma ravishda bajartiriladi.

7. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (mikrofon qog‘oz maketi, qalam, ruchka va h.k.)ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘tilgan, yodida qolgan so‘zlardan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Bunda aytilgan so‘zlarning qayta takrorlanmasligiga e’tibor qaratishingiz lozim.



Diqqat qiling!

Men	kelmoq + -yap	-man.	
Sen		-san.	
U		-ti.	
Biz	kelmoq + -yap	-miz.	
Siz		-siz.	
Ular		-tilar.	

3. O‘ylang va toping. Yozing. (10/4)

*Men o‘qiyapman.*_____

Mustaqil topshiriq. Salomlashish (assalomu alaykum, xayrli tong, xayrli kun, xayrli kech, xayrli tun) va xayrlashishga oid so‘zlarni 3 ta tilda yozing.

Assalomu alaykum		**Hello**
Xayrli tun		**Good night**

9


Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab olishlari lozim. Shuningdek, salomlashishga oid so‘zlarni yana bir bor takrorlab, ularni 3 ta tilda – o‘zbek tili, o‘z ona tili hamda ingliz tilida yozib kelishlari kerak.

3-DARS. MAKTAB BOZORI

Maqsad

Ikki xonali sonlarni to‘g‘ri talaffuz eta olish, ularni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli ishlatish ko‘nikmasini shakllantirish. Mavzuda berilgan yangi so‘zlar bilan tanishish, ularning yozilishi va og‘zaki nutqda ifodalanishini bilib olish, ularni nutqda qo‘llay olish ko‘nikmasini egallash.



MAKTAB BOZORI

1. Tinglang va takrorlang.

1. Qalam. 2. Daftar. 3. Chizg‘ich. 4. O‘chirg‘ich. 5. Ryukzak. 6. Rasm daftari. 7. Rangli bo‘yoqlar. 8. Kitob. 9. Rangli qog‘oz. 10. Tabiiy fanlar

2. Savollarga javob bering.

DARS JADVALI

Matematika			
Musiqa			
Tasviriy san’at			
Ingliz tili			
Tabiiy fanlar			

Bu darslar uchun sizga qanday o‘quv qurollari kerak?

Diqqat qiling!

10 + 1 ⇨ 11
O‘n + bir = o‘n bir

12 – o‘n ikki
13 – o‘n uch
14 – o‘n to‘rt
15 – o‘n besh
16 – o‘n olti
17 – o‘n yetti
18 – o‘n sakkiz
19 – o‘n to‘qqiz

20 + 1 ⇨ 21
Yigirma + bir = yigirma bir

20 – yigirma
30 – o‘ttiz
40 – qirq
50 – ellik
60 – oltmish
70 – yetmish
80 – sakson
90 – to‘qson

100 – yuz

11

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang. Salomlashishga oid so‘zlarni 3 ta tilda – o‘zbek tili, o‘z ona tili hamda ingliz tilida muqobil tarjimalarini yozib kelish topshirig‘i yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



3. O‘qing.

Davron, savatni ol!

Xo‘p bo‘ladi.

Dada, menga pushti ryukzak olib bering.

Qaysi birini? Bu yerda 3 ta pushti ryukzak bor-ku?

Nima uchun bu ryukzakni tanlading?

Bu ryukzakka milliy naqsh tushirilgan ekan.

Dada, rahmat hammasi uchun!

CHEK
Daftar.....60 ta
Rangli qalam....12 ta
O‘chirg‘ich.....4 ta
Rasm daftari....5 ta
Chizg‘ich.....3 ta
Qalamdon.....2 ta
Qora qalam.....2 ta
Ryukzak.....1 ta
XARIDINGIZ UCHUN RAHMAT!

Dada, men qalam, o‘chirg‘ich, rasm daftari, chizg‘ich, daftar va qalamdon tanladim.

Dada, oyi, katta rahmat! Pulingiz ko‘p bo‘lsin!

4. Savollarga javob bering.

Do‘kondan nechta daftar sotib oldilar?
Aziza bilan Davronga nechta qalam olib berishdi?
Davron nechta qalamdon tanlab oldi?
Ular nechta rasm daftari olishdi?

Mustaqil topshiriq. O‘quv qurollari rasmini chizing va nomini yozing.

12

Vazifalar

1. 1-mashqda berilgan rasmlarning nomini o‘quvchilarga 2 marta tinglating va og‘zaki takrorlating. Sinfxona jihozlari va o‘quv anjomlarini qo‘lingiz bilan ko‘rsating va ularning nomini og‘zaki ravishda takrorlating.

2. 2-topshiriqda berilgan mashqni yozma ravishda bajartiring. Misol tariqasida berilgan fanlarda o‘quvchilar o‘zlari uchun qanday o‘quv qurollari kerak bo‘lishini topishlari va buni jadvalga yozib chiqishlari lozim.

3. O‘quvchilar 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar haqidagi bilimlarini takrorlab, mustahkamlab olsin. So‘ng ikki xonali sonlar haqida umumiy ma’lumotlar bering. Ikki xonali sonlar tushirilgan, oldindan tayyorlangan raqamli kartochkalarni o‘quvchilarga ko‘rsatib, qaysi son ekanini so‘rang va bir necha marta takrorlating, so‘ng mashq daftarida berilgan 3-topshiriqni yozma ravishda bajartiring.

4. Komiksni o‘qiting (juftlikda, rollarga bo‘lib o‘qitish maqsadga muvofiq). O‘quvchilar e’tiborini komiks ostida berilgan chekka qarating, chunki keyingi topshiriqqa javob berishlari uchun ushbu chekda qayd etilgan ma’lumotlar zarur bo‘ladi.

5. Savollarni o‘qiting va ularga dastlab og‘zaki, so‘ng yozma ravishda javob berishlarini so‘rang.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.


10 + 1 = 11
O'n + bir = o'n bir

20 + 1 = 21
Yigirma + bir = yigirma bir

3. Yozing.
12 – _____
14 – _____
20 – _____
35 – _____
16 – _____
53 – _____
70 – _____
18 – _____
97 – _____
100 – _____

4. Savollarga javob bering. Yozing. (12/3)
1. Do'kondan nechta daftar sotib olishdi?_____
_____
2. Aziza bilan Davronga nechta qalam olib berishdi?_____
_____
3. Davron nechta qalamdon tanlab oldi?_____
_____
4. Ular nechta rasm daftari olishdi?_____
_____

Mustaqil topshiriq. O'quv qurollari rasmini chizing va nomini yozing.

11

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Geometrik figura” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga oldindan tayyorlangan turli ko‘rinishdagi geometrik figura shaklidagi kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar ushbu shakllar qaysi sinfxona jihozi yoki o‘quv qurollarining shakliga mos kelishini topishlari va kartochka orqasiga o‘sha jihoz yoki o‘quv qurolining nomini yozishlari kerak. Masalan, aylana shakli – globus; silindr shakli – qalam, ruchka, qalamdon; to‘g‘ri to‘rtburchak – doska, stol, kitob, daftar kabi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab olishlari hamda o‘quv qurollarining rasmini chizib, ularning nomini yozib kelishlari kerak.

4-DARS. MEN DARSGA TAYYORMAN!

Maqsad

Salomlashishga oid til birliklarini mustahkamlash; o‘quv qurollarining nomini yana bir bor takrorlash; **-mi** so‘roq yuklamasi hamda *bor, yo‘q* modal so‘zlari bilan tanishish va ularni bevosita nutqda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi rasmlarga o‘quvchilarning e’tiborini qarating va ularga muvofiq keluvchi salomlashishga doir til birliklarini qo‘yib chiqishlarini so‘rang. Ushbu mashq dastlab og‘zaki savol-javob tarzida, so‘ng daftarga yozma shaklda bajartirilishi maqsadga muvofiq.

2. 2-topshiriqda tasvirlangan o‘quv qurollarining nomlarini o‘quvchilardan so‘rang, dastlab ushbu so‘zlarni takrorlating, so‘ng daftarlariga yozdiring.

3. 3-topshiriqda berilgan rasmga bolalarning e’tiborini qarating va shu rasm asosida berilgan savollarga og‘zaki tarzda javob berishlarini so‘rang.

4. O‘quvchilarga **-mi** so‘roq yuklamasi haqida ma’lumot bering. Ular **-mi** so‘roq shakli ishtirokida savol tuzishni hamda tasdiq va inkorni ifodalovchi *ha* yoki *yo‘q* modal so‘zlari orqali ushbu savollarga javob berishni o‘rganishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng yozma ravishda jadvalda berilgan konstruksiya asosida bajartirilishi va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida sheriklikda savol-javob o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.



3. Savollarga javob bering.

1. Maktab bozori rastasida nimalarni ko'ryapsiz?
2. Sizga qaysi ryukzak yoqdi? Nima uchun?
3. Maktab bozoriga sizni kim olib bordi? Ularga rahmat aytdingizmi?

Diqqat qiling!

Bu ... -mi?	Ha. Bu – ...
	Yo'q. Bu ... emas.

rasta
qaysi?
nima uchun?
olib bormoq
farqini top

4. O'ylang va toping.

– Bu *daftar*mi?
– *Ha*, bu – *daftar*.

– Bu *qalamdon*mi?
– Yo'q. Bu *qalamdon* emas.

5. O'ylang va toping.

– Bu ruchkami?
– Ha, bu – ....

– Bu ryukzakmi?
– Yo'q. Bu ... emas.

– Bu o'chirg'ichmi?
– Ha, bu – ....

– Bu qalammi?
– Yo'q. Bu ... emas.

14

5. Keyingi topshiriqda o'quvchilardan berilgan rasmlar asosidagi savollarga tasdiq va inkorni bildiruvchi modal so'zlarni qatnashtirib yakka tartibda javob berishlarini so'rang. So'roq va tasdiq/inkor shaklini to'g'ri qo'llayotganlariga hamda jumlalarni to'g'ri tuzayotganlariga e'tibor bering.

6. O'quvchilardan rasmga diqqat qaratishlarini va ularda berilgan 6 ta farqni topishlarini so'rang. Bunda o'quvchilar javoblarni jadvalga *bor/yo'q* tarzida yozma ko'rinishda kiritishlari lozim.

7. Yangi so'zlar bilan tanishtiring, o'quvchilar ularni o'z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma'nosini to'laqonli tushunishlariga erishing. So'zlarning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, esda saqlab qolishlari uchun vizual, audial, kinestetik idrok etish usullaridan foydalaning va shu tarzda o'quvchilarning o'zbek tilidagi leksikasini yangi so'zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so'ngida "Globoalifbo" metodini qo'llang. O'quvchilar bugungi darsda o'tilgan, yodlarida qolgan so'zlarni alifbo ketma-ketligi bo'yicha aytishlari kerak. Masalan: 1-o'quvchi A harfi bilan boshlanuvchi so'z – *assalomu alaykum*, 2-o'quvchi B harfi bilan boshlanuvchi so'z – *bor* ni aytadi.

Mustaqil topshiriq

O'quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va yangi so'zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlab, **-mi** so'roq shakli hamda *ha/yo'q* va *bor/yo'q* modal so'zlari ishtirokida jumlalar tuzib kelishlari lozim.



4. O'ylang va toping. Belgilang. (15/6)

FARQINI TOP

Mustaqil topshiriq.


	1-rasm	2-rasm
Qizil qalam	Bor	Yo'q
Gulli ryukzak		
Ruchka		
Chizg'ich		
Daftar		
Kitob		

14

5-DARS. KIMDA NIMA BOR?

Maqsad

Bor va *yo‘q* modal so‘z shakllarini mustahkamlash. Olmoshlar bo‘yicha mavjud bilimlarni takrorlab olish va olmoshlarni **-da** o‘rin-joy kelishigi bilan qo‘llash bo‘yicha malaka hosil qilish. Bularni ham yozma, ham og‘zaki nutqda birgalikda qo‘llay olish mahoratiga erishish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Komiksni o‘quvchilarga ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘qiting (bunda rollarga bo‘lib o‘qitish maqsadga muvofiq).

2. Komiks yuzasidan berilgan savollarni o‘qing va o‘quvchilardan ushbu savollarga og‘zaki javob berishlarini so‘rang. Bunda *bor/yo‘q* konstruksiyasini **-da** kelishigini olgan olmoshlar bilan to‘g‘ri qo‘llay olayotganlariga diqqat qarating.

3. Darslikda berilgan rasmlar asosida olmoshlar va ularning



qo‘llanishini hamda ularni **-da** o‘rin-joy kelishigiga biriktirish yo‘llarini yana bir marta tushuntiring. **-da** kelishigini olgan olmoshlarni *bor/yo‘q* konstruksiyasi bilan qo‘llagan holda to‘g‘ri jumla tuza olishlariga erishing.

4. Darsda egallangan bilimlar asosida o‘quvchilardan jadval ichida keltirilgan jumlalarni to‘g‘ri davom ettirishlarini so‘rang. Bunda ular olmoshlar qaysi o‘rinlarda almashib kelayotganiga diqqat qaratishlari lozim.

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar tushirib qoldirilgan olmoshlarni topib, ularni nuqtalar o‘rniga moslab qo‘yib chiqishlari lozim (bunda o‘quvchilardan gaplarni avval og‘zaki, so‘ng yozma tarzda to‘ldirishlarini so‘rash maqsadga muvofiq).


6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda ularning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodidan foydalaning. O‘quvchilar dars davomida o‘rganilgan bittadan so‘zni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki ko‘ngilli ravishda (qo‘l ko‘targan holda) aytishlari mumkin.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va “Menda ... bor” – “Menda ... yo‘q” konstruksiyasi asosida 2 tadan gap yozib kelishlari lozim.



Sana: _____

KIMDA NIMA BOR?

1. Savollarga javob bering. (16/2)

1. Kim**da** qalam, o‘chirg‘ich bor? *Akmal**da** qalam va o‘chirg‘ich bor.*
2. Kim**da** stakan bor? _____
3. Kim**da** bo‘yoq bor? _____
4. Bolalar**da** nima yo‘q? _____
5. Siz**da** nima bor? _____

_____

2. O‘ylang va toping. Yozing. (17/3)

O‘qituvchida qog‘oz bor. Menda _____

Natashada _____ Unda _____

Akmal _____ Unda _____

Aziza _____ Unda bo‘yoq bor.

Denis _____ Unda _____

Denis, Natasha, Aziza, Akmal ___ Ularda _____

_____ _____

3. O‘ylang. Toping. O‘qing. Yozing. (17/4)

Namuna. Men o‘qituvchiman. Menda qog‘oz bor.

1. Mening ismim Akmal. _____da kitob bor.
2. Ular Aziza va Natasha. _____da velosiped yo‘q.
3. Biz o‘quvchilarmiz. _____da kitoblar bor.
4. Sen a’lochisan. _____da sovg‘alar bor.
5. U Denis. _____da koptok yo‘q.

Mustaqil topshiriq. Menda _____, _____, _____bor. Menda _____, _____, _____ yo‘q.

15

6-DARS. NECHANCHI BET?

Maqsad

Mavzuda berilgan yangi so‘zlarni o‘zlashtirish. Bu so‘zlarni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish. STEAM topshirig‘i asosida berilgan xatcho‘p yasash texnologiyasini o‘zlashtirish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Berilgan komiksni o‘quvchilarga bir marta ifodali o‘qib bering. So‘ng rollarga bo‘lgan holda mustaqil o‘qiting.

2. Komiksda keltirilgan yangi so‘zlarni o‘qib bering va ularning ma’nosini o‘quvchilarga o‘z ona tilida tushuntiring.

3. 2-topshiriqda komiks asosida berilgan vaziyatlarga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar ushbu vaziyatlar komiksning qaysi qismida keltirilganini topishlari va ularni bildirgan harflarni og‘zaki ravishda aytishlari lozim.

4. 3-topshiriqda xatcho‘p yasash texnologiyasini o‘quvchilarga o‘rgatishingiz lozim. Bunda avvaldan 3 xil rangdagi qog‘oz, qalam, qaychi va yelim tayyorlab qo‘yishingiz kerak. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar bilan birgalikda xatcho‘p yasang. Bunda xatcho‘p yasash-

ga doir topshiriqlar va tushuntirishlarni o‘zbek tilida olib borishga harakat qiling.

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. So‘zlarning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, esda saqlab qolishlari uchun vizual, audial, kinestetik idrok etish usullaridan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.


Sana: _____

NECHANCHI BET?

1. O'ylang va toping. Yozing. (19/2)

Arseniy Akmalga pichirlayapti (__) | Xatcho'p turgan kitob (__)

Ustozning maslahati (__) | Asilbek qo'l ko'taryapti (__)

2. Bo'yang.

20 cm

3. Yozing.

XATCHO'P YASASH TEXNOLOGIYASI

Xatcho'p yasash uchun kerakli narsalar:_____

16

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga *xatcho‘p* so‘zi kalit so‘z sifatida beriladi va doskaga gorizontal holatda yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar X, A, T, CH, O‘, P harflari bilan boshlanuvchi bugungi darsda o‘tilgan yoki o‘zlari bilgan so‘zlarga bittadan misol topib, uni yozishlari va o‘qib berishlari lozim.


Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari, yangi so‘zlarni yana bir bor xotirada mustahkamlashlari va namunadagidek xatcho‘p yasab kelishlari lozim.

7-DARS. O‘YLA, IZLA, TOP!

Maqsad

Mantiqiy fikrlashga o‘rgatish. Zukkolik, topqirlik va hozirjavoblik sifatlarini shakllantirish. Turli jumboq, topishmoq va boshqotirmalarni yechish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar


1. 1-topshiriqda o‘quvchilar rasmlar asosidagi rebusni yechishlari va ularda qanday so‘zlar yashiringanini topishlari zarur. Bunda birinchi rebusni o‘zingiz doskada yechib ko‘rsating. Rebusni yechish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qiling. So‘ng ushbu topshiriqni mashq daftarida yozma ravishda bajartiring.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar A, B, I, K, O, T, N harflari ishtirokida yangi so‘zlar tuzishlari lozim.

3. 3-topshiriqda berilgan topishmoqlarni o‘quvchilarga ifodali tarzda bir marta o‘qib bering, so‘ng mustaqil tarzda o‘qiting. O‘quvchilar be-

rilgan rasmlarga tayangan holda, o‘qib tushungan ma’lumotlari bo‘yicha ushbu topishmoqlarning javobini topishlari lozim.

4. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.


Sana: _____

O‘YLA, IZLA, TOP

1. O‘ylang va toping. Yozing. (19/1)

1 10' '3 2'''' ''1 '' '3 _____

2 '''' x-d _____

3 ''2 ' ''' _____

4 '''' ''' ''' _____

5 ''' ''' ''' _____

2. O‘ylang va toping. (20/2)

A, B, I, K, O, T, N harflaridan yangi so‘zlar hosil qiling.

Namuna. Kitob, non, ...

_____

_____

_____

_____

17

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Zanjir” metodini qo‘llang. Bunda 1-o‘quvchi bugungi darsda o‘rgangan so‘zlaridan bittasini aytadi, keyingi o‘quvchi esa avval 1-o‘quvchi aytgan so‘zni, keyin esa o‘zi yodga olgan so‘zni aytadi, 3-o‘quvchi esa o‘zidan oldingi 1-va 2-o‘quvchi aytgan so‘zlarni, so‘ng o‘zining so‘zini aytadi va shu tarzda o‘quvchilar so‘zlar zanjirini hosil qiladi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va o‘zbek tilidagi topishmoqlardan ixtiyoriy 3 tasini daftarlariga yozib, ularni yod olib kelishlari lozim.

8-DARS. YO‘L-YO‘LAKAY

Maqsad

O‘quvchilarda o‘rin-joy ravishlarini ishlatish, ba’zi o‘rin-joy otlarining nomlarini yod olish, bino va inshootlar hamda narsa-predmetlarning bir-biriga nisbatan joylashuvini o‘zbek tilida ayta olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.


2. O‘ylang va toping.
A, B, I, K, O, T, N harflaridan yangi so‘zlar hosil qiling.
Namuna. Kitob, non, ...
3. O‘ylang va toping.
1. Sirli tayoq,
Ichi bo‘yoq.
2. Kitob, daftar, qalamlar
Bir yerda to‘p jamlanar.
3. Rangi har xil,
Nomi bir xil.
4. Tilsiz aql o‘rgatar.
YO‘L-YO‘LAKAY
1. E’tibor bering. O‘qing.
Oilaviy poliklinika
Dorixona
Sartaroshxona
Maktab
Sport majmuasi
Bog‘cha
Do‘kon
Kutubxona
Novvoyxona
Bank
Bolalar markazi
Bu – bizning uyimiz.
20

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga taqsimot asosida navbatma-navbat o‘qiting. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlab bering.

2. Matnga ilova qilingan rasmni diqqat bilan kuzatishlarini so‘rang.

3. Matn asosida berilgan savollarga og‘zaki javob berishlarini so‘rang.


Bu – bizning uyimiz. Biz hovlida yashaymiz. Bugun dushanba. Soat 07:00. Men bobom bilan maktabga ketyapman. Hozir yo‘ldan o‘tyapmiz. **Bu** – bank. Bankning **orqasida** do‘kon bor. **Chapda** bolalar bog‘chasi va sport majmuasi bor. Do‘kon yonidan **o‘ngga** yuramiz. Chapda oilaviy poliklinika joylashgan. **Yonida** esa dorixona bor. Dorixonaning yonida sartaroshxona bor. Bu sartaroshxonada Denisning akasi ishlaydi. Mana, maktabga yetib keldik.

2. Savollarga javob bering.
1. Davron ko‘p qavatli uyda yashaydimi?
2. U soat nechada maktabga ketyapti?
3. U kim bilan maktabga ketyapti?
4. Bank qayerda joylashgan?
5. Bankning orqasida nima bor?
6. Rasmda yana nimalarni ko‘ryapsiz?

bugun
hozir
yo‘l
orqasida
chap
o‘ng
yonida
sartaroshxona
dorixona
kutubxona

3. O‘ylang va toping.
Namuna. Bu, uyimiz, bizning. Bu – bizning uyimiz.
1. bank, bor, **Qarshimizda.**
2. Bankning, bor, do‘kon, **orqasida.**
3. sport majmuasi, bolalar bog‘chasi, va, **Chapda**, bor.
4. yonidan, **o‘ngga,** Do‘kon, yuramiz.
5. oilaviy poliklinika, **Chapda,** joylashgan.
6. esa, **Yonida,** bor, dorixona.
7. sartaroshxona, Dorixonaning, yonida, bor.

4. Tinglang va o‘qing.
O‘ngga, chapga, orqaga
Va bir qadam oldinga!
Endi chapak chalamiz,
Chuqur nafas olamiz.
O‘tiramiz, turamiz,
O‘ngga, chapga yuramiz.
Qo‘llarimizni yoyib
Chuqur nafas olamiz.
O‘tiramiz stulga,
Jilmayamiz olamga.
Diqqatimizni jamlab,
Quloq tutamiz darsga.




Mustaqil topshiriq. Uyingizdan maktabgacha bo‘lgan yo‘l xaritasini chizing.

21

4. 3-topshiriqda berilgan so‘zlarni namunadagi kabi tartibga solib, gap hosil qiladilar. Mashqni avval og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajartiring.

5. 4-topshiriqda berilgan qo‘shiqni avval tinglating, so‘ng jo‘r bo‘lib kuylashlarini so‘rang. Bunda o‘quvchilar qo‘shiq matniga mos harakatlarni bajarishlari lozim. Bu holatni har bir darsda bajarsa ham bo‘ladi.



Sana: _____

YO'L-YO'LAKAY

1. E'tibor bering. Yozing. (21/1)

Bu – bizning uyimiz. Biz hovlida yashaymiz. Bugun dushanba. Soat 07:00. Men bobom bilan maktabga ketyapman. Hozir yo'ldan o'tyapmiz. **Bu** – bank. Bankning _____ do'kon bor. _____ bolalar bog'chasi va sport majmuasi bor. Do'kon yonidan _____ yuramiz. Chapda oilaviy poliklinika joylashgan. _____ esa dorixona bor. Dorixonaning yonida sartaroshxona bor. Bu sartaroshxonada Denisning akasi ishlaydi. Mana, maktabga yetib keldik.

2. Yozing. (20/1)

1. Oilaviy poliklinika. 2. _____

3. Yozing. (21/3)

Namuna. Bu, uyimiz, bizning. Bu – bizning uyimiz.

1. bank, bor, **Qarshimizda.** _____
2. Bankning, bor, do'kon, **orqasida.** _____
3. sport majmuasi, bolalar bog'chasi, va, **Chapda**, bor. _____
4. yonidan, **o'ngga**, Do'kon, yuramiz. _____
5. oilaviy poliklinika, **Chapda,** joylashgan. _____
6. **esa, Yonida,** bor, dorixona. _____
7. sartaroshxona, Dorixonaning, yonida, bor. _____

18

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Peshonadagini top” metodini qo‘llang. O‘quvchilarga bo‘sh qog‘oz kartochkalarni tarqating. Ular ushbu kartochkalarga bugungi darsda o‘tilgan yangi so‘zlardan birini yozishlari lozim. So‘ng ushbu kartochkalarni yig‘ib oling va ixtiyoriy ravishda yoki o‘tirgan ketma-ketligi bo‘yicha bittadan o‘quvchini doska oldiga taklif qiling va yig‘ilgan kartochkalardan birini ixtiyoriy tanlating. Tanlangan kartochkani o‘quvchining peshonasiga o‘ziga ko‘rsatmagan holda skotch bilan asta yopishtiring. Bunda qolganlar ushbu so‘zning sifat va belgilarini aytishi, doskadagi o‘quvchi esa bu qaysi so‘z ekanini topishi zarur.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va uylaridan maktabgacha bo‘lgan yo‘l xaritasini chizib kelishlari lozim.

9-DARS. YO‘LDAGI SARGUZASHTLARIM

Maqsad

O‘rin-joy ravishlari hamda o‘rin-joy nomlarini takrorlash, mustahkamlash. Ularni og‘zaki nutqda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.


YO‘LDAGI SARGUZASHTLARIM

1. O‘qing.

Amira, sen qayerda yashaysan?

Men Yunusobod tumanida yashayman.

Qayerda? Bu yerdan uzoqmi?

Xarita chizamiz. Unda yo‘ldagi binolar, daraxt va gullarni chizing.

Hozir senga ko‘rsataman.

yashamoq uzoq sanamoq chizmoq sarguzasht

Uvoz, Amirada xarita tayyor ekan!

Barakalla, Amira. Sen unda daraxtlar va gullarni chiz.

22

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu bilan ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Komiksni o‘qiting (bunda ko‘ngilli o‘quvchilarni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lib, obrazli tarzda o‘qitishingiz mumkin).


2. Savollarga javob bering.

1. Amira sinfdagi yangi o‘quvchimi? Javobingizni izohlang.
2. O‘qituvchi o‘quvchilarga qanday vazifa berdi?
3. Amira xaritada nimalarni chizishi kerak?
4. Xaritaning foydalarini ayting.

3. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Dorixona qayerda joylashgan? O‘ngda / chapda
2. Bank qayerda joylashgan? O‘ngda / chapda
3. Fotima buvini nechanchi uyga olib bordi? 7 / 9
4. Uy qayerda joylashgan? Orqasida / yonida. *(nimaning?)*

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. …, bilasanmi, bugun maktabga kelayotganimda … .
2. Yuklarimga qarab tur, qizim, … .
3. Dorixonada ancha qolib ketdilar, … .
4. Sarguzashtga boy kun bo‘libdi-da …

Mustaqil topshiriq. Yo‘l xaritangizga binolarni ham chizing va nomlarini yozib chiqing.

23

2. Komiks asosida berilgan savollarni o‘qib bering va o‘quvchilardan ularga og‘zaki javob berishlarini so‘rang.

3. Audiomatnni kamida 2 marta tinglating. O‘quvchilar ushbu matn asosidagi savollarga javob berishlari lozim.

4. Audiomatn asosida 4-topshiriqni ham bajartiring. O‘quvchi-

lar matnda tushirib qoldirilgan so‘zlar o‘rniga keraklisini qo‘yib, gaplarni yozma ravishda to‘ldirib chiqishlari lozim.

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlarni yodga olishlari va uch bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol aytishlari kerak bo‘ladi.



Sana: _____

YO‘LDAGI SARGUZASHTLARIM

1. Savollarga javob bering. (23/2)

1. Amira sinfdagi yangi o‘quvchimi? _____
2. O‘qituvchi o‘quvchilarga qanday vazifa berdi? _____
3. Amira xaritada nimalarni chizishi kerak? _____

2. Tinglang. Savollarga javob bering. Yozing. (23/3)

1. Dorixona qayerda joylashgan?	O‘ngda / chapda
2. Bank qayerda joylashgan?	O‘ngda / chapda
3. Fotima buvini nechanchi uyga olib bordi?	7 / 9
4. Uy qayerda joylashgan?	Orqasida / yonida

Mustaqil topshiriq. Yo‘l xaritangizga binolarni ham chizing va nomlarini yozib chiqing.

20

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va uydan maktabgacha bo‘lgan yo‘l xaritasiga binolarni ham chizib, ularning nomlarini yozib, o‘z xaritalarini yanada boyitib kelishlari lozim.

10-DARS. ALINING YO‘L XARITASI

Maqsad

Atrofdagi, kundalik hayotda muntazam duch kelinadigan joy nomlarini o‘rganish. Ularni og‘zaki va yozma ravishda bevosita muloqot jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish. Yo‘l xaritasini chizish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash. Joy nomlari va yo‘l belgilari haqida yangi ma’lumotlarga ega bo‘lish va ularni nutqda qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar


1. Xaritaga o‘quvchilar e’tiborini qarating, unda keltirilgan joy nomlarini 2 marta o‘qib bering va takrorlating.

2. Mashq daftarida berilgan joy nomlarining xaritada bor yoki yo‘q ekanini aniqlashni buyuring va ularni mos ravishda belgilab qo‘yishlarini so‘rang.



3. Matnni tinglating yoki o‘zingiz ifodali o‘qib bering. So‘ng o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida o‘qiting.

4. Aynan shu matn asosida o‘quvchilar bilan kichik suhbat o‘tkazing. Suhbat “Sizning yo‘l xaritangiz qanday?” savoli ustiga qurilishi kerak. O‘quvchilar o‘z javoblarida o‘rin-joy ravishlarini to‘g‘ri qo‘llayotganlariga va joy nomlaridan unumli foydalanayotganlariga e’tibor qarating.



Sana: _____

ALINING YO‘L XARITASI

1. O‘ylang, toping va yozing. (24/2)

	Novvoyxona		Bozorcha		Sartaroshxona
	Bank		IT park		Ko‘p qavatli uy
	Teatr		Kinoteatr		Mehmonxona
	Muzey		Pochta		Oilaviy poliklinika
	Mahalla guzari		Maktab		Bog‘

2. Savollarga javob bering. Yozing. (25/4)

1. Ali qaysi uyda yashaydi?_____
2. To‘qqizinchi uyning yonida qanday bino bor?_____
3. Maktabning orqa tomonida nima bor? _____
4. Sport maydonchasi qayerda joylashgan?_____
5. Maishiy xizmat uyida nimalar bor?_____

3. Bo‘yang.

Mustaqil topshiriq. Xaritangizni yo‘l belgilari bilan to‘ldiring.

21

5. Yuqoridagi matn asosida berilgan savollarga o‘quvchilardan og‘zaki javob oling. So‘ng mashq daftariga ushbu javoblarni yozishlarini so‘rang.

6. Berilgan she’rni o‘quvchilarga ifodali o‘qib bering. She’r mazmuni haqida kichik suhbat tashkil eting, unda o‘quvchilarga she’rda sanalgan yo‘l belgilari, ularning ahamiyati va xaritada aks ettirilishi borasida ko‘rsatmalar berishingiz lozim.

7. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodidan foydalaning. O‘quvchilar dars davomida o‘rgangan bitta so‘zni ixtiyoriy ketma-ketlik asosida yoki ko‘ngilli ravishda (qo‘l ko‘targan holda) aytishlari mumkin.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va yo‘l xaritasiga yo‘l belgilarini ham chizib, to‘ldirib kelishlari lozim.

11-DARS. DAVRON VA AZIZANING BIR KUNI

Maqsad

O‘zbek tilida vaqt birliklarining nomlanishi va ularning qay tarzda qo‘llanishini o‘zlashtirish. Vaqt birliklarini to‘g‘ri yozish hamda og‘zaki nutqda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Kun tartibiga doir yangi so‘zlarni yod oldirish va ulardan nutq jarayonida faol foydalanish malakasini oshirish.


DAVRON VA AZIZANING BIR KUNI

1. Qarang, tinglang va e’tibor bering.

7:00 Uyqudan turish
7:30 Nonushta qilish
8:00 Maktabga borish
12:00 Maktabdan qaytish
12:30 Tushlik qilish
13:30 Shaxmat to‘garagiga borish
16:00 Uy ishlariga yordam berish
18:00 Kechki ovqat yeyish
20:00
21:00 Yuvinib, tishlarni tozalash
21:30 Uyquga yotish

Mening to‘garak jadvalim

Du	Se	Chor	Pay	Juma	Sha
roboto-texnika	shaxmat	roboto-texnika	shaxmat	roboto-texnika	shaxmat

2. Savollarga javob bering.

1. Davron soat nechada uyqudan turadi (uyg‘onadi)?

26

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va shu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


2. Nima uchun maktabga Davron 8:30 da, Aziza esa 13:00 da boradi?
3. Aziza qanday to‘garakka boradi?
4. Shaxmat va robototexnika to‘garaklariga kim boradi?
5. Kim ertaroq uyg‘onadi?

27

Vazifalar

1. Berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Kun tartibi haqidagi audiomatnni o‘quvchilarga 2 marta tinglating.

2. Rasmdagi yozuvlarni o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida o‘qiting. Davron va Azizaning kun tartibini tushunishlariga diqqat qarating.

3. Rasm asosida berilgan savollarga o‘quvchilardan og‘zaki javob oling hamda ushbu javoblarni mashq daftarlariga yozishlarini so‘rang.

4. Qaysi vaqtda qanday amal bajarilayotgani aks etgan sxematik jadvalni o‘quvchilarga tushuntirib bering. O‘quvchilar olmoshlarni fe’llar bilan shaxs-sonda moslashtira olishlariga va ularni vaqt birliklari bilan qo‘llab, jumlani to‘g‘ri tuzishlariga e’tibor qaratishingiz lozim.



Sana: _____

DAVRON VA AZIZANING BIR KUNI

1. Savollarga javob bering. Yozing. (26/2)

1. Davron soat nechada uyqudan turadi (uyg‘onadi?)_____

2. Nima uchun maktabga Davron 8:30 da, Aziza esa 13:00 da boradi?_____

3. Aziza qanday to‘garakka boradi?_____


4. Shaxmat va robototexnika to‘garaklariga kim boradi?_____

5. Kim ertaroq uyg‘onadi?_____

22

5. Soatlarda aks ettirilgan vaqtlarga, ularning so‘z va raqamlar bilan yozilishiga o‘quvchilar diqqatini qarating. Turli vaqtlarni ko‘rsatuvchi soatlar maketini kartondan yasab oling va ularda qaysi vaqt ifodalanganini og‘zaki aytishlarini so‘rang.

6. O‘quvchilardan rasmdagi vaqt birliklariga mos keluvchi ifodalarni jadvaldan topishlarini va mos harflarni bo‘sh katakchalarga yozishlarini so‘rang.



2. O'ylang va toping. Yozing. (28/3)

Soat 9.

Soat 9 dan _____minut o'tdi.

Soat 9 dan_____

3. O'ylang va toping. (28/4)

a	8:30
b	12:15
d	5:45
e	7:00
f	11:30
g	9:15

4. Mustaqil topshiriq. Kun tartibingizni yozib keling.

23

7. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozib qo‘yishlarini ayting. Shu orqali dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va o‘z kun tartiblarini yozib kelishlari lozim.

12-DARS. BOLALAR MARKAZI

Maqsad

Sport turlari, turli mashg‘ulot nomlarining o‘zbek tilida aytilishi va yozilishini bilib olish. Ularni bevosita nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish. Mavzu yuzasidan berilgan yangi so‘zlarni yod olish va ularni nutqda samarali qo‘llay olish malakasini shakllantirish.



BOLALAR MARKAZI

1. Diqqat qiling. Tinglang va takrorlang.

Vaqt	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba
10:00	Ingliz tili	Tennis	Mental arifmetika	Raqs	Boks	Suzish
12:00	Mental arifmetika	Rasm	Boks	Taekvondo	Gimnastika	To‘qish
13:30	Roboto-texnika			Roboto-	Aviamodel	
16:00	Vokal				Biser	

1. Tennis. **2.** Boks. **3.** Suzish. **4.** Gimnastika. **5.** Taekvondo. **6.** To‘qish **7.** Shaxmat. **8.** Mental arifmetika. **9.** Robototexnika. **10.** Raqs. **11.** Rasm. **12.** Vokal. **13.** Biser. **14.** Aviamodel. **15.** Ingliz tili.

2. Savollarga javob bering.

1. Payshanba kuni boshlanadi? to‘garagi soat nechada

2. Seshanba kuni to‘garagi soat nechada boshlanadi?

3. Shanba kuni mi? to‘garagi soat **12:00** da boshlanadi-

4. Juma kuni **16:00** da qanday to‘garak bor?

5. Dushanba kuni to‘garagi bormi?

29

3. O‘qing.

Dars tugadi.
– Davron, futbol o‘ynaymizmi?
– Yo‘q. Mening to‘garagim bor.
– Qayerga borasan?
– Men bolalar markaziga boraman.
– Qayerga? Bolalar markazi nima?
– U yerda turli to‘garaklar bor. Bolalar qiziqishlariga qarab to‘garaklarga qatnashadi. Men shaxmat va robototexnikaga boraman. Aziza tennis va ingliz tiliga boradi. Denis esa suzishga. Said, yur biz bilan.
– Yana qanday to‘garaklar bor?
– Gimnastika, taekvondo, to‘qish, mental arifmetika, raqs va boshqa to‘garaklar bor.
– Men, robototexnika va taekvondoga qiziqaman. Men ham sizlar bilan boraman.

qatnashmoq
to‘qimoq
istamoq
to‘garak

4. Savollarga javob bering.

1. Said robototexnika to‘garagini tanlaydi, siz-chi?
2. Siz qaysi to‘garakka qatnashasiz?
3. Maktabingizda qanday to‘garaklar bo‘lishini istaysiz?

5. O‘ylang va toping.

Namuna. Aziza ingliz tili va tennis to‘garagiga boradi. Shaxmat, robototexnika, suzish, taekvondo to‘garagiga bormaydi.

	Shaxmat	Ingliz tili	Robototexnika	Suzish	Taekvondo	Tennis
Aziza	✗	✓	✗	✗	✗	✓
Davron	✓	✗	✓	✗	✗	✗
Denis	✗	✗	✗	✓	✗	✗
Said	✗	✗	✓	✗	✓	✗

Mustaqil topshiriq. Shahringizdagi bolalar markazi haqida ma’lumot toping.

30


Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob

o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilarning diqqatini qarating. Rasm nima haqida ekanini so‘rang. Rasm asosida tayyorlangan audiomatnni 2 marta tinglating.



Sana: _____

BOLALAR MARKAZI

1. Tinglang va yozing. (29/1)

Vaqt	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba
10:00	Ingliz tili	Tennis	Mental arifmetika	Raqs	Boks	Suzish
12:00	Mental arifmetika	Rasm	Boks	Taekvondo	Gimnastika	To‘qish
13:30	Roboto-texnika	Biser	Shaxmat	Futbol	Aviamodel	Raqs
16:00	Vokal	Futbol	Taekvondo	Tennis	Biser	Mental arifmetika

1. Tennis. 2. _____

2. Savollarga javob yozing. (29/2)

1. Payshanba kuni to‘garagi soat nechada boshlanadi? Soat 13:30 da.
2. Seshanba kuni to‘garagi soat nechada boshlanadi? _____
3. Shanba kuni to‘garagi soat 12:00 da boshlanadimi?___ _____.
4. Juma kuni 16:00 da qanday to‘garak bor? _____ _____
5. Dushanba kuni to‘garagi bormi?_____ _____

24

2. Jadvaldagi sport turlarining nomini ayting va takrorlating. Hafta kunlari ostida qaysi sport turi yoki to‘garak mashg‘uloti aks ettirilganini og‘zaki ravishda so‘rang.

3. Yuqoridagi jadval asosida berilgan savollarga o‘quvchilardan og‘zaki tarzda javob oling, so‘ng javoblarni mashq daftariga yozishlarini so‘rang. Oldingi darsda o‘tilgan vaqt birliklarini to‘g‘ri qo‘llab javob berishlariga ahamiyat qarating.

4. Dialogni ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga juftlikda o‘qiting. “Aqliy hujum” metodidan foydalangan holda ushbu dialog bo‘yicha o‘quvchilarga 3 tadan savol bering va savollarga og‘zaki tarzda tezkor javob berishlarini so‘rang.

5. O‘quvchilardan berilgan jadval asosida og‘zaki ravishda namunadagidek gaplar tuzishlarini so‘rang, so‘ng ularni mashq daftariga yozishlarini ayting.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “To‘rt bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan to‘rt bo‘g‘inli so‘zlarni topib, ularni daftarlariga yozib qo‘yishlari, so‘ng ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘qib berishlari kerak.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va o‘z hududlaridagi bolalar markazi haqida ma’lumot topib, kichik matn yozib kelishlari lozim.

13-DARS. CHIQ-CHIQ

Maqsad

Vaqt birliklarini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish. “Myunsterberg” metodi orqali o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish. Joy nomlarini yana bir bor mustahkamlash. O‘z fikrlarini erkin bayon qila olish ko‘nikmasini shakllantirish va bunda *ha/yo‘q* konstruksiyasidan foydalangan holda savollarga javob berish malakasini rivojlantirish.

CHIQ–CHIQ

1. O‘qing.

Injiq Ali soatga qaradi. “Soat nima uchun kerak? U meni uyg‘otadi, keyin maktabga shoshaman”,– dedi. Ali soatni to‘xtatdi. Soat buzilib qoldi. Ertalab injiq bola vaqtida turolmadi, maktabdan qoldi, onasidan gap eshitdi. Xatosini tushungan Ali soatni yurgizdi. Ertasiga vaqtli uyg‘ondi. Darsga yetib bordi.



BILASIZMI?

Soat turlari:
Qumsoat, quyosh soati, minora soati, mexanik soat, elektron soat, aqlli soat, zanjirli soat.

to‘xtatmoq
injiq
shoshmoq
yetib bormoq



2. O‘ylang va toping.

o	b	a	n	k	u	y	k	o	i	l	a	v	i	y
p	o	l	i	k	l	i	n	i	k	a	t	e	a	k
i	o	n	o	v	v	o	y	x	o	n	a	b	o	g‘
r	m	e	h	m	o	n	x	o	n	a	l	a	f	r
t	e	a	t	r	z	m	a	k	t	a	b	g	l	t
p	a	r	k	d	c	n	m	d	o‘	k	o	n	l	a
s	a	r	t	a	r	o	sh	x	o	n	a	r	t	m
r	b	o	z	o	r	n	d	o	r	i	x	o	n	a
v	b	i	m	l	t	k	u	t	u	b	x	o	n	a
q	sh	i	f	o	x	o	n	a	s	m	u	z	e	y



Maktab → *maktap*

kutubxona → *kutupxona*



3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Kutubxona, mehmonxona, maishiy xizmat uyi, Ali, Yunusobod, maktab, bir, sartaroshxona, to‘qqizinchi, to‘rtinchi, 11-uy.

1. Biz ... qavatda yashaymiz.
2. Men bobom bilan ...ga ketyapman.
3. Dorixonaning yonida ... va ... bor.
4. O‘ngga, chapga, orqaga, ... qadam oldinga.
5. Aziza ... tumanida yashaydi.
6. Aziza buvini ... uyga olib bordi. Buvi kim bilan qo‘shni?
7. Said ... – uyda yashaydi.
8. Sayyohlarni bank, teatr va ... yonida uchratish mumkin.
9. Poyabzalni ta’mirlatish uchun qayerga borish kerak?
10. Xaritangizni kim bilan chizdingiz?

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Xarita kerakmi? Javobni asoslang.

Ha	Yo‘q
1. Maktab o‘quvchisida bo‘lishi shart.	1. Yo‘limni bilaman.
2. Ustozimning talabi.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.


Mustaqil topshiriq. Quyosh soati yasab, ishlatib ko‘ring.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali o‘qib bering, so‘ng uni o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qiting.



2. Gaplarni to'ldirib yozing. (32/3)

1. Biz _____ qavatda yashaymiz.
2. Men bobom bilan _____ ga ketyapman.
3. Dorixonaning yonida _____ va _____ bor.
4. O'ngga, chapga, orqaga _____ qadam oldinga.
5. Aziza _____ tumanida yashaydi.
6. Aziza buvini _____ uyga olib bordi.
7. Said _____ da yashaydi.
8. Sayyohlarni bank, teatr va _____ yonida uchratish mumkin.
9. Poyabzalni ta'mirlatish uchun qayerga borish kerak? _____
10. Xaritangizni kim bilan chizdingiz? _____

3. O'ylang va toping. Gapiring. (32/4)

Xarita kerakmi? Javobni asoslang.

Ha	Yo'q
1. Maktab o'quvchisida bo'lishi shart.	1. Yo'limni bilaman.
2. Ustozimning talabi.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

Mustaqil topshiriq. Quyosh soatini yasab, ishlatib ko'ring va izoh yozing. _____

26

2. Rasm va ko‘rgazmali materiallar asosida soat turlari haqida o‘quvchilarga ma’lumot bering.

3. O‘quvchilardan “Myunsterberg” metodi asosida jadvalda berilgan so‘zlarni yakka tartibda topishlarini so‘rang, so‘ng joy nomlarini ifodalovchi ushbu so‘zlarni mashq daftarlariga yozish topshirig‘ini bering.

4. Talaffuzi va yozilishida farq qiluvchi so‘zlar, ularning imlosi haqida ma’lumot bering. Bunda *maktab(p)* va *kutub(p)xona* so‘zlari misol qilib olingan.

5. O‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri to‘ldirish topshirig‘ini bering. Bu topshiriq mashq daftariga yozma ravishda bajarilishi lozim.

6. Keyingi topshiriqda o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari talab qilinadi. Bunda topshiriq savolini o‘qib bering, so‘ng bu savolga jadvaldagi konstruksiya asosida *ha/yo‘q* ustunchasi ichida javob berishlarini so‘rang. Bunda javoblar *ha* yoki *yo‘q* pozitsiyasidan kelib chiqqan holda to‘liq isbotlanishi, sabablar ko‘rsatilishi lozim (namunaga qarang).

7. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar darsda o‘rganilgan so‘zlardan 3 tasini eslab, daftarga yozishlari va ularni o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va quyosh soatini tajribadan o‘tkazib kelishlari lozim (o‘quvchilarga bu haqida ma’lumotlar bering va ularni to‘g‘ri yo‘naltiring, bunda quyosh soati haqidagi video materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq).

14-DARS. QANI, KETDIK! (MUSTAHKAMLASH)

Maqsad

1-bo‘lim yuzasidan o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlab, mustahkamlab olish. O‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish. Yangi so‘zlar ustida ishlash. Ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallangan bilim va ko‘nikmalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni


Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan



o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Ushbu dars 1-bo‘lim yuzasidan umumiy takrorlash, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar mustahkamlash darsida berilgan har bir topshiriqni o‘tilgan mavzular va grammatik bilimlari, amaliy ko‘nikma va malakalari asosida bajarishlari lozim.



2. Yangi so‘zlar ustida ishlang. O‘quvchilar 1-bo‘limda o‘rgangan yangi so‘zlarni “Qaynoq mikrofon” metodi orqali tekshirib, xulosalab, baholab oling. Bunda o‘quvchilar o‘rgangan so‘zlaridan birortasini yodga olib, mikrofonni qo‘llariga olgan zahoti ushbu so‘zni tezlikda aytadilar va mikrofonni sheriklariga uzatadilar. Jarayon shu tarzda eng kuchli uchta ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bunda aytilgan so‘zni takrorlagan yoki belgilangan muddatda so‘zni ayta olmagan o‘quvchilar o‘yinni tark etib boradi. Oxirida qolgan eng kuchli uchta ishtirokchi taqdirlanadi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va ta’til davomida o‘zlari boradigan yoki borgan to‘garaklari haqida kichik esse yozib kelishlari, shuningdek, ixtiyoriy ravishda tanlab, o‘zbek tilida 2 ta she’r yod olib kelishlari lozim.

2-BO‘LIM. MAKTAB BO‘YLAB SAYOHAT

15-DARS. BIZNING MAKTABIMIZ

Maqsad

O‘rin-joy ravishlari bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash. Maktabning ichki va tashqi ko‘rinishi, undagi bino va obyektlarning nomlanishini bilib olish, ularni yozma va og‘zaki nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish.



Ularning fikr-mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan bir nechta qiziqarli ma’lumotlar bering, o‘quvchilarning mavzuga qiziqishi va ishtiyoqini oshiring. Ushbu yangi bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarning lug‘at boyliklari qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholang va qaysi jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratishni chamalab oling.

BO‘LIMGA KIRISH

Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazib oling. Berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ularga “Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?”, “Sizningcha, yangi bo‘limda biz nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Maktabingizni qanchalik yaxshi bilasiz?”, “Maktab bo‘ylab sayohat qilganmisiz?” kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling.


BIZNING MAKTABIMIZ


1. Tinglang va takrorlang.

1. Kutubxona. 2. Oshxona. 3. Sport zali. 4. O‘qituvchilar xonasi. 5. Tibbiyot xonasi. 6. Faollar zali. 7. Sinf xonasi. 8. Informatika xonasi. 9. Maktab hovlisi. 10. Maktab bog‘i. 11. Sport maydonchasi.

35

Refleksiya jarayoni


O‘tgan mustahkamlash darsida berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



Vazifalar

1. Rasmda tasvirlangan maktab binosidagi xona va obyektlarning nomlanishini berilgan audiomatn orqali o‘quvchilarga 2 marta tinglating. So‘ng og‘zaki ravishda takrorlating.

2. “Tezkor savol” metodini qo‘llang. Rasmda tasvirlangan xona va obyektlarning raqamlarini aytganingiz zahoti o‘quvchilar zudlik bilan ularning nomini aytishlari kerak.



4. O‘ylang va toping.

	HA	YO‘Q
1. Mehmonlar soat 12 da kelishdi.		
2. Bolalar informatika xonasida dasturlashni o‘rganadi.		
3. O‘qituvchilar xonasida o‘quvchilar ishlashadi.		


37

3. Namunadagi savol va javob qoliplarini o‘quvchilarga tushuntirib bering. Bunda o‘quvchilar berilgan so‘zlar ishtirokida savol va javob ko‘rinishidagi gaplar tuzishlari va ularni mashq daftariga yozishlari lozim.

4. “Tashrif” nomli komiksni o‘quvchilarga bir marta ifodali o‘qib bering. So‘ng juflikda yoki rollarga bo‘lib o‘qiting.

5. Komiks asosida berilgan gaplarni o‘quvchilar *ha/yo‘q* tarzida tasdiqlashlari yoki inkor etishlari lozim.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.


Sana: _____

BIZNING MAKTABIMIZ

1. Tinglang. Yozing. (35/1)

1. *Kutubxona.* 2. _____

2. Savollarga javob bering. Yozing. (36/2)

Maktab oshxonasi qayerda?
Faollar zalining o‘ng tomonida / yonida.

– ... qayerda?
– ...ning ...da.

Kutubxona | Tibbiyot xonasi | Sport zali | O‘qituvchilar xonasi | Informatika xonasi

Kutubxona qayerda? _____

3. O‘ylang. Toping. Yozing. (37/4)

HA | YO‘Q

1. Mehmonlar soat 12 da kelishdi. _____
2. Bolalar informatika xonasida dasturlashni o‘rganadi. _____
3. O‘qituvchilar xonasida o‘quvchilar ishlashadi. _____
4. Kutubxona sport zalining yonida. _____
5. Oshxonada kitoblar ko‘p. _____

Mustaqil topshiriq. Maktabingizning 1-qavati maketini chizib, xonalar nomini yozib keling.

28

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskada esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘rgangan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerga yozishlari va daraxtni mevalar bilan “bezatishlari” lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va o‘z maktablarining birinchi qavati maketini chizib, xonalar nomini yozib kelishlari lozim.

16-DARS. OSHXONADA

Maqsad

Oziq-ovqatlar va turli taomlar nomlanishini bilib olish, ularni yozma va og‘zaki nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish. Shuningdek, *bilan* ko‘makchisi haqida ma’lumot berish va nutqda qo‘llash malakasini shakllantirish. Vaqt birliklarini mustahkamlash.



4. Kutubxona sport zalining yonida.
5. Oshxonada kitoblar ko‘p.

Mustaqil topshiriq. Maktabingizning 1-qavati maketini chizib, xonalar nomini yozib keling.

OSHXONADA

1. Tinglang. O‘qing.

KATTA TANAFFUSDA


Qong‘iroq chalindi.
Aziza: Saida, yur tushlik qilamiz.
Saida: Yur. Qornim rosa och.
Oshpaz amaki: Nima yeysizlar? Taomnomada bugun mastava, lag‘mon, salat va sharbat.
Aziza: Menga mastava va sharbat bering. Salat ham.
Saida: Menga lag‘mon va choy. Non ham bering.
Aziza: Saida, sen lag‘monni non bilan yeysanmi?
Saida: Ha, men hamma ovqatni non bilan yeyman.
Aziza: Men esa nonni faqat nonushtada sariyog‘ bilan yeyman.
Oshpaz amaki: Marhamat. Osh bo‘lsin!
Saida: Rahmat.
Aziza: Saida, ovqatdan ol. Yoqimli ishtaha.
Saida: Ovqat juda shirin bo‘libdi. Oshpaz amaki, sizga rahmat.

nonushta
tushlik
marhamat
osh bo‘lsin

38

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



Diqqat qiling!

... bilan

Aziza Saida bilan oshxonaga bordi.

Sariyog‘ bilan non yeyiladi.

2. O‘ylang va toping.

1. Aziza ... Saida ovqatlandi.
2. Saida lag‘monni non … yedi.
3. Saida va Aziza oshpaz ... suhbatlashdi.
4. Davron maktabga akasi … keladi.
5. Aziza nonni … … ….

3. O‘qing. E’tibor bering.

OLMALI SALAT

Kerakli mahsulotlar:

1. Karam.
2. Qizil sabzi.
3. Olma.
4. Mayonez yoki qaymoq – 3 oshqoshiq.

Karam, qizil sabzi va olma bo‘laklanadi, so‘ng mayonez yoki qaymoq bilan aralashtiriladi.

Mustaqil topshiriq. Olmali salatni kattalar bilan tayyorlab ko‘ring.

39

Vazifalar

1. Berilgan dialogni audioda dastlab 2 marta tinglating yoki bir marta ifodali o‘qib bering. So‘ng rollarga bo‘lib o‘qiting.

2. Berilgan taomnoma rasmiga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Taomnomada ko‘rsatilgan taom

va yegulik nomlarini ularga o‘qib bering va tushuntiring. *Nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik, kechki ovqat* kabi ovqatlanish jarayoni nomlari va ularning vaqtga nisbatini ham tushuntirib bering.

3. *bilan* ko‘makchisini berilgan namunadagi 2 ta rasm yordamida tushuntirib bering. Bir nechta misollar bilan o‘quvchilarning ushbu ko‘makchi haqidagi bilimlarini mustahkamlang va *bilan* ko‘makchili gaplarga misol keltirishlarini so‘rang.

4. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga *bilan* ko‘makchisini qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri tuzishlari lozim. Topshiriqni dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftariga yozma ravishda bajartiring.

5. Olmali salat tayyorlash texnologiyasi aks etgan videoo materialni o‘quvchilarga ko‘rsatib, bu bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qiling.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.



Sana: _____

OSHXONADA

1. Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing. (39/2)

... bilan

1. Aziza _____Saida ovqatlanishdi.
2. Saida lag‘monni non_____ yedi.
3. Saida va Aziza oshpaz _____ suhbatlashdi.
4. Davron maktabga akasi _____ keladi.
5. Aziza nonni _____ .

2. E’tibor bering. Yozing. (39/3)

OLMALI SALAT

Kerakli mahsulotlar:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____ – 3 oshqoshiq

Karam, _____ va olmani bo‘laklab, _____ qaymoq bilan aralashtiriladi.

Mustaqil topshiriq. Olmali salatni kattalar bilan tayyorlab ko‘ring.

29

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan uch bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol aytishlari kerak bo‘ladi.


Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va olmali salatni ota-onalari ko‘magida tayyorlab, uni rasmga olib kelishlari lozim.

17-DARS. ULUG‘BEK AMAKI

Maqsad

Tartib sonni nutqda ishlatish, narsa va o‘rin-joyning tartibini anglatish, ayrim joy nomlarini o‘zlashtirish, o‘zgalar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmasini rivojlantirish.


ULUG‘BEK AMAKI

1. Tinglang. O‘qing

Ulug‘bek amaki bizning maktabimiz qorovuli. U kishi bizni ertalab kutib oladilar. Maktabimizda hammani taniydilar. Maktabga begonalarni kirgizmaydilar.

kutib olmoq
begona
kiritmoq
uchrashmoq
qorovul

2 Assalomu alaykum, Ulug‘bek amaki.

3 Vaalaykum assalom, bolalar. Xo‘sh maktabimizni ko‘rdingizmi?

4 Biz kutubxona, oshxona, sport zallarini ko‘rdik.

5 Unda birinchi qavatni aylanibsiz-da?

6 Ha, birinchi qavatni ko‘rdik.

7 Ikkinchi qavatdagi to‘garak xonalariga ham kiring. U yerda qiziqarli narsalarni ko‘rasiz.


8 Bizga to‘garak xonalarini ko‘rsating.

9 Albatta.

40

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Salat tayyorlash jarayoni haqida o‘quvchilar bilan qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning ko‘nikmalarini mustahkamlang.


10 Ha, aytgandek, 5-“B” sinf bilan ham tanishing. Ular ingliz tilini yaxshi biladi.

11 Ingliz tilini? Juda yaxshi, ular bilan uchrashaylik. Bizga juda qiziq.

12 Ular ikkinchi qavatdagi 28-xonada o‘tirishadi.

13 Ulug‘bek amaki, siz buncha ko‘p ma’lumotni qayerdan bilasiz?

14 Men hamma narsani bilaman.

Diqqat qiling!

birinchi qavat, ikkinchi qavat, 5-“B” sinf, ikkinchi qavatdagi 28-xona

Nechanchi...?

-nchi
Ikki + -nchi

-inchi; -nchi ⇨ –
5- ⇨ beshinchi

-inchi
Bir + -inchi

2. Savollarga javob bering.

1. Kutubxona, oshxona, sport zali nechanchi qavatda joylashgan?
2. Ikkinchi qavatda qanday xona bor?
3. Nechanchi sinf o‘quvchilari ingliz tilini yaxshi biladi?
4. 5-“B” sinf nechanchi xonada o‘tiradi?

3. O‘ylang va toping.

46...maktab. Informatika xonasi ikki... qavatda joylashgan. Maktabning yigirma bir... xonasi – tibbiyot xonasi. Biz 3... “D” sinf o‘quvchilarimiz. Bugun nechanchi sana? Bugun ...noyabr.

Tug‘ilgan kuningiz sanasini ayting.

Mustaqil topshiriq. Uydagilarga “Men qaysi sinfda o‘qiyman?” savolini berib, javob oling.

41

Vazifalar

1. O‘quvchilarni komiks bilan tanishtiring. Audiomatnni dastlab 2 marta tinglating, so‘ng rollarga bo‘lib o‘qiting.

2. Komiksda ajratib ko‘rsatilgan birliklar yuzasidan mavzuga oid grammatik ko‘nikmalarni rivojlantiring. O‘zbek tilida tartib son hosil qilish qoidasini o‘quvchilarga tushuntiring. **-nchi** yoki **-inchi** qo‘shimchasi sonlarga qay holatda qo‘shilishini misollar orqali ko‘rsating.

3. Komiks bo‘yicha 2-topshiriqda berilgan savollarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilar savollarga dastlab og‘zaki ravishda javob beradilar, so‘ng javoblarini mashq daftariga yozadilar.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar nuqtalar o‘rniga tartib sonning mos qo‘shimchasini qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri to‘ldirishlari lozim. Bunda topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng yozma shaklda bajariladi.

5. O‘quvchilardan tug‘ilgan kunlari qachon ekani haqida so‘rang. Ular tartib sondan foydalanib javob berishlari kerak.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.



Sana: _____

OSHXONADA

1. Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing. (39/2)

... bilan

1. Aziza _____Saida ovqatlanishdi.
2. Saida lag‘monni non_____ yedi.
3. Saida va Aziza oshpaz _____ suhbatlashdi.
4. Davron maktabga akasi _____ keladi.
5. Aziza nonni _____ .

2. E’tibor bering. Yozing. (39/3)

OLMALI SALAT

Kerakli mahsulotlar:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____ – 3 oshqoshiq

Karam, _____ va olmani bo‘laklab, _____ qaymoq bilan aralashtiriladi.

Mustaqil topshiriq. Olmali salatni kattalar bilan tayyorlab ko‘ring.

29

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. O‘quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (qog‘ozdan ishlangan mikrofon maketi, qalam, ruchka va h.k.) ni uzatadilar. Mikrofonni olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘tilgan, yodida qolgan so‘zlardan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Aytilgan so‘zlar qayta takrorlanmasligi kerak.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va uyga borganda ota-onalari bilan qisqa savol-javob o‘tkazishlari lozim. O‘quvchilar nechanchi sinfda o‘qiyotganligini ulardan so‘rab, javob olishlari kerak. Aka-uka va opa-singillari maktab o‘quvchisi bo‘lsa, ularning nechanchi sinfda o‘qishini ham so‘rashlari mumkin.

18-DARS. AJOYIB VOQEA

Maqsad

Tartib sonlarni nutqda qo‘llash bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash. O‘quv qurollari va maktab jihozlari nomini yana bir bor takrorlab olish. Matnni o‘qib va tinglab tushunish hamda voqea-hodisalarning mohiyatini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.


AJOYIB VOQEA

1. Tinglang. O‘qing.

Maktabimizda Ulug‘bek amaki bilan bog‘liq ko‘p qiziqarli voqealar bo‘ladi. Bir kuni o‘zbek tili o‘qituvchimiz darsga kelmadi. Bundan hayron bo‘ldik va direktor o‘rinbosari Go‘zal opaga aytdik. Go‘zal opa ustozimizga qo‘ng‘iroq qildilar. Ustozimiz: “Ulug‘bek amaki meni tanimadilar, kirishga ruxsat bermayaptilar”, – dedilar. Go‘zal opa kulib yubordilar.

Bir kuni dadam “Otalar majlisi”ga kelganlarida Ulug‘bek amaki: “Farzandingiz 3-sinfning qaysi birida o‘qiydi?” – deb so‘raganlar. Dadam bilmaganlar. Shunda chaqqon Ulug‘bek amaki majlis bo‘layotgan sinf xonasiga dadamni kuzatib qo‘yganlar. Dadam majlis oxirida bu boshqa sinf majlisi ekanini bilganlar.

hayron bo‘lmoq
majlis
ruxsat bermoq
oxiri
o‘rinbosar

42

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Suhbat yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing, taassurotlarini so‘rang hamda tartib sonlar bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi matnning audio shaklini dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering. So‘ng navbat bilan o‘qiting.


2. Matn ostidagi rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating va matn bilan uyg‘un jihatlarini muhokama qiling. Ota-onalar majlisining mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring.

3. Matn yuzasidan 2-topshiriqda berilgan gaplarni o‘qiting. Bunda o‘quvchilar gaplarning yuqoridagi matnga muvofiq yoki muvofiq emasligini topishlari va belgilangan katakchaga dastlab *to‘g‘ri* yoki *noto‘g‘ri* tarzida (shartli belgi bilan) javob kiritishlari, so‘ng mashq daftariga to‘g‘ri gaplarni to‘g‘riligicha, noto‘g‘ri gaplarni esa to‘g‘rilab ko‘chirishlari lozim.

4. 3-topshiriqda bolalar uchun muhokamali vaziyat berilgan. Ular ryukzak egasini kalit so‘zlar orqali topishlari kerak bo‘ladi.

5. Muhokamali vaziyatga yechim topilgandan so‘ng, o‘quvchilar bilan maktabda qoldirilgan narsalarga duch kelganlarida qanday yo‘l tutish kerakligi haqida suhbat olib boring.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. So‘zlarning imlosi va talaffuzi ustida ishlang. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.



Sana_____

AJOYIB VOQEA

1. O'ylang va toping. Yozing. (43/2)

1.	O'zbek tili o'qituvchisi darsga keldi.	
2.	Go'zal opa o'zbek tili o'qituvchisiga qo'ng'iroq qildi.	
3.	Ulug'bek amaki ustozni tanimadi va maktabga kirishga ruxsat bermadi.	
4.	Go'zal opa yig'lab yubordi.	
5.	Onam "Otalar majlisi"ga kelganlar.	
6.	Ulug'bek amaki majlis bo'layotga sinf xonasiga dadamni kuzatib qo'ygan.	
7.	Dadam mening sinfim majlisida qatnashmadi.	

2. O'ylang va toping. Yozing. (43/3)

Ulug'bek amakiga Aziza ryukzak berdi.
– Ulug'bek amaki, kimdir ryukzagini qoldirib ketibdi.
Ryukzakni ochishsa, unda_____

Mustaqil topshiriq. Ryukzagingiz rasmini chizing va ichidagi o'quv qurollari nomini yozing.

31

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ng o‘qib beradilar.


Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari, o‘z ryukzaklari rasmini chizib kelishlari lozim. Ryukzakda qanday o‘quv qurollari va muhim narsalar bor bo‘lsa, barchasining nomini yozib kelishlari kerak.

19-DARS. RUCHKANING TARIXI

Maqsad

Bilan ko‘makchisi bo‘yicha mavjud bilimlarni yana bir bor takrorlab olish. **-da** o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi, uning imlosi va qo‘llanishi haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish. Shuningdek, ruchka tarixi va turlari haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lish.



2. O‘ylab ko‘ring.

1.	O‘zbek tili o‘qituvchisi darsga keldi.	
2.	Go‘zal opa o‘zbek tili o‘qituvchisiga qo‘ng‘iroq qildi.	
3.	Ulug‘bek amaki ustozni tanimadi va maktabga kirishga ruxsat bermadi.	
4.	Go‘zal opa yig‘lab yubordi.	
5.	Onam “Otalar majlisi”ga kelgan.	
6.	Ulug‘bek amaki majlis bo‘layotgan sinf xonasiga dadamni kuzatib qo‘ygan.	
7.	Dadam mening sinfim majlisida qatnashmadi.	

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Aziza Ulug‘bek amakiga ryukzakni berdi.
– Ulug‘bek amaki, kimdir ryukzagini qoldirib ketibdi.
Ryukzakni ochishsa, ichida … .

daftar, rangli qalam, rasm daftari, qalamdon, kitoblar, Zebo, 4-“A” sinf.

Mustaqil topshiriq. Ryukzagingiz rasmini chizing va ichidagi o‘quv qurollari nomini yozing.

RUCHKANING TARIXI

1. O‘qing.

qamish
qush pati
siyoh

Bu qiziq!

Birinchi ruchkalar qadimda Misrda paydo bo‘lgan. Ular qamishdan yasalgan. Keyin qush patidan yasalgan ruchkalar paydo bo‘lgan. Siyohga botirib yoziladigan ruchkalar o‘rnini sharikli ruchka egalladi. Hozir hatto yozuvni o‘chiradigan ruchkalar ham bor.


2. Savollarga javob bering.

1. Birinchi ruchka qayerda paydo bo‘lgan?
2. Qamishdan yasalgan ruchkadan foydalanish osonmi?
3. Siz qanday ruchkada yozasiz?
4. Uyingizda qanday turdagi ruchkalar bor?

43

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



3. O‘ylang va toping.

kutubxona
oshxona
o‘qituvchilar xonasi
tibbiyot xonasi
faollar zali

s	f	e	a	k	i	t	a	m	r	o	f	n	i	f
o	sh	x	o	n	a	k	l	g‘	o	b	i	u	v	a
d	f	h	r	a	l	i	ch	v	u	t	i	q	o‘	o
i	l	a	z	t	r	o	p	s	s	j	k	v	s	l
i	s	a	n	o	x	t	o	y	i	b	b	i	t	l
h	k	p	z	x	s	v	b	n	a	m	k	l	p	a
o	t	u	d	s	f	j	k	n	e	s	i	n	f	r
v	e	e	t	h	j	l	o	x	o	n	a	s	i	z
l	w	d	r	u	g	x	i	s	a	n	o	x	r	a
i	d	f	g	h	b	j	k	l	o	f	d	a	q	l
u	t	o‘	g	a	r	a	k	x	o	n	a	s	i	i

sinf xonasi
informatika xonasi
hovli
bog‘
sport zali
~~to‘garak xonasi~~

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Ukamga … bilan … berdim.
2. … -ni salat … yedik.
3. … … o‘ynadi.
4. … … rasmga tushdi.
5. Davron telefonda … gaplashdi.

Mustaqil topshiriq. Ruchkaning yozishdan tashqari foydali 5 ta vazifasini yozing.

44

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi matnning audio shaklini dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qiting.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar matn asosidagi savollarga javob topishlari lozim. O‘quvchilarga savollarni o‘qib bering. Ular savollarga dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari lozim.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar jadvalda yashirilgan so‘zlarni “Myunsterberg” metodi asosida kalit so‘zlardan foydalangan holda topishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma ravishda bajariladi.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar rasmlardan foydalanib, nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimcha va *bilan* ko‘makchisini qo‘ygan holda gaplarni to‘ldirishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma ravishda bajariladi.

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilarni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Sana: _____

RUCHKANING TARIXI

1. O‘ylang va toping. Bo‘yang. (44/3)

s	f	e	a	k	i	t	a	m	r	o	f	n	i	f
o	sh	x	o	n	a	k	l	g‘	o	b	i	u	v	a
d	f	h	r	a	l	i	ch	v	u	t	i	q	o‘	o
i	l	a	z	t	r	o	p	s	s	j	k	v	c	l
i	s	a	n	o	x	t	o	y	i	b	b	i	t	l
h	k	p	z	x	c	v	b	n	a	m	k	l	p	a
o	t	u	d	s	f	j	k	n	e	s	i	n	f	r
v	e	e	t	h	j	l	o	x	o	n	a	s	i	z
l	w	d	r	u	g	x	i	s	a	n	o	x	r	a
i	d	f	g	h	b	j	k	l	o	f	d	a	q	l
u	t	o‘	g	a	r	a	k	x	o	n	a	s	i	i

2. O‘ylang. Toping. Yozing. (44/4)

1. Ukamga *daftar* bilan *qalam* berdim.
2. Oshni salat _____ yedik.
3. Davron Aziza _____ _____ o‘ynadi.
4. Aziza mushuk _____ rasmga tushdi.
5. Davron telefonda onasi _____ gaplashdi.
6. Ukam _____ da o‘qiydi.
7. To‘garak xonasi _____da joylashgan.

Mustaqil topshiriq. Ruchkaning yozishdan tashqari foydali 5 ta vazifasini yozing.

_____
_____
_____
_____

32

Refleksiya jarayoni

Darsni “Globoalifbo” metodi asosida mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilar alifbo ketma-ketligi bo‘yicha bugungi darsda so‘zlarga misollar aytishi kerak. Masalan: 1-o‘quvchi A harfi bilan boshlanuvchi so‘z – *Aziza;* 2-o‘quvchi B harfi bilan boshlanuvchi – *bilan* so‘zini aytadi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va ruchkaning yozishdan boshqa 5 ta vazifasini yozib kelishlari lozim.

20-DARS. FASLLAR GO‘ZALLIGI

Maqsad

Yil fasllari va tabiat hodisalarining nomlarini takrorlash. Ularning yozma va og‘zaki nutqda ifodalanishi va faol qo‘llanishi haqida ko‘nikmalar hosil qilish. Tabiat hodisalarini anglatuvchi ot va fe’llarni nutqda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish.



FASLLAR GO‘ZALLIGI

1. O‘qing. Tinglang.

Kuz. Keldingmi, Qish?

Qish. Ha, keldim.

Kuz. Ancha qolib ketding. Men salqin kunlarda daraxtlar barglarini sarg‘aytirdim. Barcha poliz ekinlarini pishirdim. Kunlarni sovitdim. Ularni shamol va yomg‘irlar bilan o‘tkazdim. Endi sening navbating.

qolib ketmoq
sarg‘aytirmoq
sovitmoq
muzlatmoq
navbat

Qish. Ha, bilaman. Juda jahlim chiqyapti. Hamma yoqni muzlataman. Qor yog‘dirib, bo‘ron ko‘taraman.


Bahor. Nega jahling chiqyapti? Mening navbatim kelsa, daraxtlarni gullataman. Iliq shabada estirib, yerlarni maysalar bilan bezayman. Kamalak ranglari bilan bolalarni quvontiraman.

Yoz. To‘g‘ri aytasan, Bahor. Lekin men hali ancha kutaman. Mening navbatimda quyosh issiq havo olib keladi. Bolalar anhorlarda cho‘milishadi. Mevalar pishadi.

45

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



2. O‘ylang va toping.

		To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1.	Daraxtlar kuzda sarg‘ayadi.		
2.	Yozda *salqin* bo‘ladi.		
3.	Qishda hamma yoq *sovuq* bo‘ladi.		
4.	Yozda *qor* yog‘adi.		
5.	Bahorda *issiq* bo‘ladi.		
6.	*Iliq* havo bahorda bo‘ladi.		
7.	Kamalak qishda chiqadi.		
8.	Quyosh doim qizdiradi.		

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

BAHOR
YOZ
KUZ
QISH

a) yomg‘ir
b) bo‘ron
d) qor
e) kamalak
f) shamol
g) do‘l
h) issiq (+35 °C)
i) chaqmoq
j) iliq (+20 °C)
k) quyosh
l) sovuq (-3 °C)
m) salqin (+5 °C)

4. E’tibor bering va yasang.

Termometr yasash uchun kerak bo‘ladi:

1. Ko‘k ip.
2. Qaychi.
3. Chizg‘ich.
4. Qalam.
5. Qizil ip.
6. Oq qog‘oz.

Mustaqil topshiriq. Termometr yasab keling.

46

Vazifalar

1. Mavzuni yorqin aks ettirish uchun berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating.

2. 1-topshiriqda berilgan audiomatnni 2 marta tinglating. So‘ng rollarga bo‘lib o‘qiting.

3. 2-topshiriqni dialog asosida og‘zaki bajartiring.

4. 3-topshiriqda keltirilgan fasllar va tabiat hodisalariga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar berilgan tabiat hodisalarining qay-

si faslga oid ekanini topishlari, dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ng javoblarni mashq daftariga yozishlari lozim.

5. 4-topshiriqda keltirilgan termometr yasash loyihasi va uni bajarish texnikasini o‘quvchilarga tushuntirib bering (bunda videolavhadan foydalanish maqsadga muvofiq).

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Sana: _____

FASLLAR GO‘ZALLIGI

1. O‘ylang va toping. Yozing. (46/2)

		To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1	Daraxtlar kuzda sarg‘ayadi.		
2	Yozda *salqin* bo‘ladi.		
3	Qishda hamma yoq *sovuq* bo‘ladi.		
4	Yozda *qor* yog‘adi.		
5	Bahorda *issiq* bo‘ladi.		
6	*Iliq* havo bahorda bo‘ladi.		
7	Kamalak qishda chiqadi.		
8	Quyosh doim qizdiradi.		

2. O‘ylang va toping. Yozing. Chizing. (46/3)

BAHOR — yomg‘ir, chaqmoq, do‘l, kamalak, shamol, qor

YOZ — quyosh, salqin havo (+5 °C)

KUZ — issiq havo (+35 °C), bo‘ron

QISH — sovuq havo (-3 °C), iliq havo (+20 °C)

Bahorda yomg‘ir, kamalak va iliq havo bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq. Termometr yasab keling.

33

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Timsoh” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rgangan yangi so‘zlari – yil fasllari, tabiat hodisalarini pantomima ko‘rinishida, faqatgina tana harakatlari va imo-ishora orqali ko‘rsatib berishlari, qolgan jamoadoshlari esa bu qaysi so‘z ekanini topishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va termometr yasab kelishlari lozim.

21-DARS. KUNLARDAN BIR KUN

Maqsad

Turli meva va sabzavot nomlarini takrorlash. Shuningdek, o‘quvchilarga notanish meva-sabzavot nomlarini tanishtirish. Ularni yozma va og‘zaki nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish. Otlarning ko‘plik shakli haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish. Nutq jarayonida ko‘plik qo‘shimchasini otlar bilan qo‘llashga doir ko‘nikmalarni shakllantirish.


KUNLARDAN BIR KUN

1. O‘qing va tinglang.

Davron, bugungi darsimiz mevalar haqida ekanini bilganmiding?

Ustoz, oyim har kuni menga mevalar berib yuboradilar.

Bu judayam yaxshi. Oyingga rahmat degin.

Bolalar, bilasizmi, barcha mevalar biz uchun foydali. Shuningdek, sabzavotlar ham.

Ha, ustoz, tishlarimiz mustahkam bo'lishi uchun olma va sabzi yeyishimiz kerak.

Shunday. Ularni yuvib yeyish kerakligini ham unutmang.

mustahkam unutmoq


2. Savollarga javob bering.

1. Davron maktabga qanday meva olib kelgan?
2. Siz qaysi mevalarni yaxshi ko'rasiz?
3. Nega mevalarni yuvib yeyish kerak?

47

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Jarayon yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing, bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


3. Tinglang va takrorlang.

anor
banan
nok
ananas
uzum
limon
behi
kivi
gilos
apelsin

4. Tinglang. O'ylang va toping.

1. Sabzi. 2. Sholg'om. 3. Kartoshka. 4. Piyoz. 5. Qovoq. 6. Pomidor. 7. Sarimsoqpiyoz. 8. Bodring. 9. Baqlajon. 10. Qalampir. 11. Bulg'or qalampiri. 12. Lavlagi. 13. Jo'xori.

48

Vazifalar

1. 1-topshiriqda keltirilgan komiksga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Komiksdagi dialoglarni 2 marta tinglating. So‘ng rollarga bo‘lib, ifodali tarzda o‘qiting.



Sana: _____

KUNLARDAN BIR KUN

1. Savollarga javob yozing. (47/2)

1. Davron maktabga qanday meva olib kelgan?_____

2. Siz qaysi mevalarni yaxshi ko'rasiz?_____

3. Nega mevalarni yuvib yeyish kerak?_____

2. Yozing. (48/3)

O'zbekiston mevalari	Xorij mevalari
olma	apelsin

3. O'ylang va toping. Yozing. (49/5)

34


2. Komiks yuzasidan 2-topshiriqda berilgan savollarni o‘quvchilarga o‘qib bering. Bunda o‘quvchilar komiks matni va o‘z bilimlariga tayanib javob berishlari lozim.

3. 3-topshiriqda mevalarning rasmi va nomi berilgan. Mevalarning rasmini ko‘rsatib, ularning nomini dastlab og‘zaki ravishda so‘rang, so‘ng o‘zingiz ifodali o‘qib bering va takrorlating. Topshiriqning 2-qismida o‘quvchilar mevalarni mahalliy va xorijiy mevalarga ajratishlari hamda mashq daftariga yozishlari lozim.

4. Rasmda berilgan sabzavot nomlarini 2 marta tinglating. So‘ng ularning nomini raqamlar bilan uyg‘unlikda o‘qiting. Sabzavot nomlarini birlikda va ko‘plikda qo‘llash bo‘yicha tushuncha bering. Mashqni avval og‘zaki, so‘ng yozma bajartiring.

5. 5- va 6-topshiriqlarni dastlab og‘zaki, so‘ng yozma ravishda mashq daftariga bajartiring.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usul-



5. O‘ylang va toping. Gapiring.

... -lar

sholg‘om	sholg‘omlar
sabzi	sabzilar
piyoz	piyozlar
qalampir	qalampirlar
lavlagi	lavlagilar
baqlajon	baqlajonlar
bodring	bodringlar

6. O‘ylang va toping.

Sabzavot va mevalarni kimlar yetishtiradi?

sotuvchi, dehqon, bog‘bon, shifokor, haydovchi

Mustaqil topshiriq. Meva va sabzavotlardan tayyorlanadigan salat yoki taom nomlarini yozing.

49

lardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Peshonadagini top” metodini qo‘llang. Bunda dastavval o‘quvchilarga bo‘sh qog‘oz kartochkalarni tarqating. Ular ushbu kartochkalarga bugun o‘rgangan meva va sabzavot nomlaridan birini yozishlari lozim. So‘ng ushbu kartochkalarni yig‘ib oling va ixtiyoriy ravishda yoki o‘tirgan ketma-ketligi bo‘yicha bittadan o‘quvchini doska oldiga taklif qiling va yig‘ilgan kartochkalardan birini ixtiyoriy tanlating. Tanlangan kartochkani o‘quvchining peshonasiga o‘ziga ko‘rsatmagan holda skotch bilan asta yopishtiring. Bunda qolganlar kartochkadagi meva/sabzavotning sifat va belgilarini aytishi, doskadagi o‘quvchi esa bu qaysi meva/sabzavot ekanini topishi zarur.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va meva-sabzavotlardan tayyorlanuvchi oziq-ovqat mahsulotlariga misollar yozib kelishlari lozim (masalan, *mevalardan sharbat tayyorlash mumkin* kabi va hokazo).

22-DARS. KANADADAN ISMOIL

Maqsad


Dunyoning turli hududlarida vaqt turlicha bo‘lishi, kun va tunning uzun-qisqalik holatlari haqida ma’lumotlar olish, ularni farqlay bilish. Ob-havo bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘zlashtirish. Bu holatlarning o‘zbek tilida qanday ifodalanishini o‘rganish va biriktiruv bog‘lovchisini nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilish. O‘zaro zid ma’noli sifatlar bilan tanishish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Mazkur topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Matnga ilova qilingan rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating. Rasm orqali nimani tushunishgani va rasm nima haqida ekanligi haqida fikrlarini so‘rang. Berilgan matnni dastlab bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng rollarga bo‘lib suhbat-dialog tarzida o‘qiting.



Kanadadan Ismoil

1. O‘qing.

– Assalomu alaykum, ustoz **va** o‘quvchilar. Ismim Ismoil. Toshkentda tug‘ilganman. Yoshim 10 da. Men **va** ukam Kanadadagi maktabda o‘qiymiz.

]Hozir bu yerda tun. Bizda soat 21:00. O‘zbekistonda soat necha bo‘ldi?

– Bizda hozir 9:00.

– Tushunarli. Kanadada hozir havo juda sovuq. Bu yerda qish uzoq davom etadi. Bugun qalin qor yog‘di. Kuchli shamol **va** bo‘ron bo‘ldi. Havo harorati -26 darajagacha pasayib ketdi. Shamollab qolish hech gap emas.

– Bizda ham qish, lekin havo biroz sovuq. Hali qor yog‘madi.

– Ismoil, senga rahmat. Sen bilan yana suhbatlasha olamizmi?

– Ha, albatta.

– Unda ko‘rishguncha.

– Xayr.

2. O‘ylang va toping.

1. Ismoil … ukasi Kanadada … .
2. Ismoil … tug‘ilgan.
3. Kanadada soat … . O‘zbekistonda esa soat … .
4. Kanadada qalin qor yog‘di. Shamol … bo‘ron bo‘ldi.
5. Kanadada havo … daraja. O‘zbekistonda … daraja.
6. Biz yana sen bilan … …?

… va …

tun
harorat
daraja
bo‘ron

50

So‘ng og‘zaki tarzda javob berishlarini so‘rang.

6. 5-topshiriqda antonim sifatlar rasmlarda ifodalangan va yozib qo‘yilgan. O‘quvchilar *va* biriktiruv bog‘lovchisini mustahkamlash maqsadida ushbu sifatlarni bog‘lab o‘qishlari lozim.

7. 6-topshiriqni avval og‘zaki, so‘ng yozma ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar kalit so‘zlardan foydalanib gaplarni to‘ldirishlari lozim.

8. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishla-

2. O‘quvchilarga *va* biriktiruv bog‘lovchisi haqida ma’lumot bering, qanday holatda ishlatilishini misollar orqali tushuntiring.

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matndan foydalangan holda kerakli ma’lumotlarni qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri to‘ldirishlari lozim.

4. 3-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Quyosh nuri Yer sayyorasiga qaysi faslda qanday tushayotganiga qarab kun va tunning uzun yoki qisqa bo‘lishi haqida o‘quvchilar bilan birgalikda mushohada yuriting.

5. 3-topshiriqdagi mushohadalar asosida 4-topshiriqni bajartiring. Avval audiomatnni tinglating.



3. E’tibor bering.

yoz
kuz
bahor
qish

4. Tinglang va gapiring.

1. Yozda kun uzun bo‘ladi.
2. Qishda kun qisqa bo‘ladi.
3. Yozda tun …. bo‘ladi.
4. Qishda … uzun bo‘ladi.

5. O‘ylang va toping.

Uzun va qisqa, yosh va qari, ozg‘in va semiz, qalin va yupqa, eski va yangi, katta va kichik. Ushbu so‘zlar yordamida rasmlarni izohlang.

6. Gaplarni to‘ldiring.

uzun — ozg‘in — yosh
katta — qalin
semiz
eski — qari — yupqa
kichik — kalta

Kitob _____ va _____.
Poyabzal _____ va _____.
Multiqahramon ___ va _____.
Azizaning sochi ____, Guliniki esa _____.

Mustaqil topshiriq. Mazkur sifatlardan foydalanib gaplar tuzing va rasm chizing.

51

riga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta'sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o'quvchilarning o'zbek tilidagi leksikasini yangi so'zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so'ngida "Bosh harflar" metodini qo'llang. Bunda kalit so'z sifatida doskaga gorizontal holatda ANTONIM so'zi yozib qo'yiladi. O'quvchilar bugungi darsda o'rgangan yoki o'zlari yod olgan A, N, T, O, N, I, M harflari bilan boshlanuvchi o'zbekcha so'zlarga bittadan misol topib, yozishlari hamda o'qib berishlari lozim.


2. O'ylang va toping. Yozing. (51/5)

3. Gaplarni to'ldiring. (51/6)

uzun ozg'in yosh semiz katta kichik qalin qari eski yupqa yangi kalta

Qalam _____ va _____ .
Kitob _____, daftar esa _____ .
Poyabzal _____ va _____.
Multqahramon _____ va _____.
Azizaning sochi _____, Guliniki esa _____.
Bobo _____, nabira esa _____ .

Mustaqil topshiriq. Mazkur sifatlardan foydalanib gaplar tuzing va rasm chizing.

_____
_____
_____

36

Mustaqil topshiriq

O'quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va xususiyat sifatlariga 2 tadan gap tuzib kelishlari lozim. Shuningdek, antonim sifatlarni anglatuvchi juft predmet rasmini chizib kelishlari ham topshiriladi (masalan, *qalin kitob, ingichka daftar* rasmi). Bunda o'qituvchi sifatlarni rasmda ifodalash bo'yicha yo'llanma berishi maqsadga muvofiq.

23-DARS. MAKTABDA SIRK

Maqsad

Hayvon nomlarini takrorlash, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish, ularning yozma va og‘zaki nutqda ifodalanishi va qo‘llanishi yuzasidan ko‘nikmalar hosil qilish. Shuningdek, fe’llarni yaqin o‘tgan zamon (-di) shaklida tuslashni o‘rganish, nutqda o‘tgan zamonni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish.



MAKTABDA SIRK

1. Tinglang va o‘qing.

– Bobojon, bugun maktabimizga sirk keldi. Ajoyib tomoshalar ko‘rsatishdi.

– Qanday tomoshalar ko‘rsatishdi? Ularda jonivorlar ham bor ekanmi?

– Ha, albatta. Ular ilon, kuchukcha, maymun, kaptar va olmaxon olib kelishdi.

– Ilon katta ekanmi?

– Ilon juda katta ekan **(A)**. Ilon o‘ynatuvchi uni bo‘yniga osib oldi **(B)**. Masxaraboz esa maymunni olib chiqdi. Maymun bolalarga salom berdi va Ilhomning shapkasini tortib oldi. Ko‘zboylog‘ichning shlyapasidan kaptar uchib chiqdi **(D)**. Dorda dorboz bola o‘ynadi **(E)**. U og‘ir toshlarni tishi bilan ko‘tardi.

– Tomoshalar senga yoqdimi?

– Yoqdi. Ularga hammamiz qarsak chaldik **(F)**.

jonivor
bo‘yin
uchib chiqmoq
qarsak chalmoq
ilon

52


Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Mazkur mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating. Berilgan dialogni dastlab 2 marta tinglating, so‘ng rollarga bo‘lib o‘qiting (1-topshiriqda dialoglar harflar bilan belgilangan. Keyingi topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar ushbu jihatga e’tibor qaratishlari zarur).

2. 2-topshiriq dialogli matn asosida og‘zaki bajariladi. Berilgan gaplar qaysi harf bilan belgilanganini o‘quvchilar topishlari kerak.



2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Ko‘zboylog‘ichning shlyapasidan kaptar uchib chiqdi. D
2. Ilon juda katta ekan.
3. Ilon o‘ynatuvchi uni bo‘yniga osib oldi.
4. Dorda dorboz bola o‘ynadi.
5. Ularga hammamiz qarsak chaldik.

Diqqat qiling!

Men — -m
Sen — yozmoq + -di — -ng
U — -.

Biz — -k
Siz — yozmoq + -di — -ngiz
Ular — -lar


3. O‘ylang va toping. Gapiring.

ko‘rding
berdingiz
oldi
turdilar
yurdingiz

Men
Biz
Ular
Sen
Siz
U

sakradilar
ko‘tardik
o‘ynadim
chaldik
keldi

53



Sana: _____

MAKTABDA SIRK

1. O‘ylang va toping. Yozing. (53/2)

1. Ko‘zboylog‘ichning shlyapasidan kaptar uchib chiqdi.
2. _____
3. Ilon juda katta ekan.
4. _____
5. Dorda dorboz bola o‘ynadi.

B

F

2. O‘ylang va toping. Yozing. (53/3)

___ oldi.

Men o‘ynadim. _____ keldi. _____ sakradilar.

_____ ko‘tardik. _____ ko‘rding. _____ turdilar.

_____ chaldik. _____ yurdingiz. _____ berdingiz.

Mustaqil topshiriq. 2 ta fe’lni o‘tgan zamonda tuslang va yozing.

_____

_____

_____

37


3. Chizmada fe’llar zamonda tuslanishi chiziqli aks ettirilgan. Buning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntiring. O‘zbek tilida yaqin o‘tgan zamonni hosil qilishda ishlatiladigan **-di** qo‘shimchasi bilan fe’llarni tuslab ko‘rsating, misollar orqali grammatik mavzuni mustahkamlang.

4. 3-topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma ravishda bajariladi. Bunda o‘quvchilar zamon va shaxs-sonda tuslangan bir necha fe’llarni kishilik olmoshlari bilan moslashtirib chiqishlari lozim.

5. 4-topshiriqqa o‘quvchilar 1-topshiriqdagi matnga tayanib javob beradilar. Topshiriqni mashq daftariga yozishlari lozim. Bu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilar “ha” tasdiq so‘zini yoki “yo‘q” inkor so‘zini ishlatish texnikasini ham takrorlab oladilar.

6. O‘quvchilar navbatdagi topshiriqda berilgan topishmoqlarning javobini topishlari lozim. Topshiriq og‘zaki ravishda bajartiriladi.

7. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.



4. O‘qing. O‘ylang va toping.

– Bolalar qarsak chalishdimi?
– Ha, bolalar qarsak chalishdi.
– Masxaraboz ilonni o‘ynatdimi?
– Yo‘q, masxaraboz …ni o‘ynatdi.
– Sen tomosha qildingmi?
– Ha, men … … .
– Aziza maktabdan onasi bilan qaytdimi?
– _____

TOPISHMOQLAR

Yer tagida sovuq qamchi.

Hayvonlarning eng kattasi,
Bordir dumi, xartumi.
Qorni katta choynakdek,
Suv purkar favvoradek.

O‘xshar o‘zi eshakka,
Ikki qulog‘i tikka.
Lekin yo‘l-yo‘l to‘ni bor,
Xo‘p antiqa nomi bor.

Yo‘l-yo‘l sariq to‘ni bor,
Odam qo‘rqar turqi bor.

Qishda uxlayman beg‘am,
Uyg‘onsam bo‘lar ko‘klam.
Yemishim mening asal,
Bo‘lmayman sira kasal.

Topishmoqlar to‘plamidan olindi.

Mustaqil topshiriq. 2 ta fe’lni o‘tgan zamonda tuslang va yozing.

54

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ng o‘qib beradilar.


Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va ikkita fe’lni yaqin o‘tgan zamonda tuslab kelishlari lozim.

24-DARS. QANI, KETDIK! (MUSTAHKAMLASH)

Maqsad

2-bo‘limda o‘tilgan mavzular va egallangan bilimlarni takrorlab, mustahkamlab olish. O‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish. Yangi so‘zlar ustida ishlash. Ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tavsiya va topshiriqlar berish.




Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Ushbu dars 2-bo‘lim yuzasidan umumiy takrorlash, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar mustahkamlash darsida berilgan har bir topshiriqni o‘tilgan mavzular va grammatik bilimlari, amaliy ko‘nikma va malakalari asosida bajarishlari lozim.



2. Yangi so‘zlar ustida ishlang. O‘quvchilarning 2-bo‘limda o‘rgangan yangi so‘zlarini “Qaynoq mikrofon” metodi orqali tekshirib, baholab oling. Bunda o‘quvchilar o‘rgangan so‘zlaridan birortasini mikrofonni qo‘llariga olgan zahoti aytadilar va mikrofonni sheriklariga uzatadilar. Jarayon shu tarzda eng kuchli uchta ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bunda aytilgan so‘zni takrorlagan yoki belgilangan muddatda so‘z ayta olmagan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. Oxirida qolgan eng kuchli uchta ishtirokchi taqdirlanadi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va qishki ta’til davomida oilaviy sayohatlari yoki madaniy hordiq chiqarish uchun borgan joylari to‘g‘risida “Mening sayohatim” mavzusida kichik esse yozib kelishlari lozim.

3-BO‘LIM. BAYRAMLAR

25-DARS. O‘ZBEKISTON BAYRAMLARI

Maqsad


Tarixiy sana va bayram nomlarini o‘zlashtirish. Ularni birikmali holda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish. *-ga yoqadi/ -ga yoqmaydi* strukturasi asosida o‘ziga yoqqan yoki yoqmagan narsalarga baho bera olish malakasini hosil qilish.

BO‘LIMGA KIRISH



Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazib oling. Bunda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilarga “Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?” “Sizningcha, yangi bo‘limda biz nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Siz ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Sizning eng yaxshi ko‘rgan bayramlaringiz qaysi?”, “Bayramlarda qanday sovg‘a olishni xohlaysiz?” kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling. Ularning fikr-mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan bir nechta qiziqarli ma’lumotlar bering





Sana: _____

O‘ZBEKISTON BAYRAMLARI

1. O‘ylang va toping. Yozing. (58/3)

JDHFMUSTAQILLIKDGSHSKUNIYETDGO‘QITUVCHIBDFVAMK
DFMURABBIYLARHDHKUNIQERPKONSTITUTSIYANVBGKUNISD
HRYANGISDGYILZXSRBAYRAMIHGATXALQAROK
TDSXOTIN-QIZLARQERVBAYRAMIPLRKNAVRO‘ZTYRBAYRAMIP
LKHXOTIRAFDESVAGTYUQADRLASHZSHDKUNIRAXO
RAMAZONYQMXHAYITIPLRTQURBONXBTFNHAYITIPYND

Mustaqillik kuni. _____

_____

_____

_____

_____

_____

_____

_____

2. O‘ylang va toping. Yozing. (58/4)

1. Artyom yangi yil bayramini yoqtiradi.
2. Alisher _____ yoqtiradi.
3. Bobo _____ .
4. O‘qituvchi _____ .
5. Onalar _____ yoqtiradilar.
6. Men _____ yoqtiraman.

Mustaqil topshiriq. Siz oilangizda yana qanday bayramlarni nishonlaysiz? Shu mavzuda gapirish uchun tayyorlanib keling.

39

va o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshiring. Yangi bo‘lim bo‘yicha o‘quvchilarning lug‘at boyligi qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholab oling, ushbu bo‘limda qaysi jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini aniqlab oling.

Refleksiya jarayoni

O‘tgan darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqda keltirilgan bayram nomlarini dastlab 2 marta tinglating, so‘ng o‘qiting. Ularni kalendar bilan solishtirib, birgalikda tahlil qiling.

2. 2-topshiriqdagi bayramlarni aks ettiruvchi rasmlarga o‘quvchilar diqqatini qarating. Ular rasmlarni bayram nomlari bilan muvofiqlashtirib chiqishlari lozim. Bu topshiriq avval og‘zaki tarzda muhokama qilinishi, so‘ng mashq daftariga yozma ko‘rinishda bajarilishi maqsadga muvofiq.


3. 3-topshiriq bayram nomlarini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar harflar orasidan bayram nomlarini topishlari kerak. Mashq daftarida esa ularning ostiga chizish orqali topshiriqni bajarishlari lozim.

4. 4-topshiriq rasmlar asosida bajariladi. O‘quvchilar namunadagi kabi gaplar tuzishlari kerak. O‘quvchi o‘ziga qaysi bayram yoqishi yoki yoqmasligini ham aytishi lozim.

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Mevali bog‘” metodini qo‘llang. O‘quvchilarga olma va limon rasmi tushirilgan qog‘oz kartochkalar tarqatiladi. Olma rasmi tushirilgan kartochka egasi bugun darsda o‘tilgan bayramlardan birining 3 ta ijobiy jihatini, limonli kartochka egasi esa o‘zi tanlagan bayramda qanday sovg‘a olishni xohlayotganini yozadi va o‘qib beradi. Bunda o‘quvchilar dars mavzusini mustahkamlash bilan birga mantiqiy fikrlash, tanqidiy mushohada qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishadi.


3. O‘ylang va toping. O‘qing.

JDHFMUSTAQILLIKDGSHSKUNIYETDGO‘QITUVCHIBDFVAMK
DFMURABBIYLARHDHKUNIQERPKONSTITUTSIYANVBGKUNISD
HRYANGISDGYILZXSRBAYRAMIHGATXALQARO K
TDSXOTINQIZLARQERVBAYRAMIPLKNAVRO‘ZTYRBAYRAMI
PLKHXOTIRAFDESVAGTYUQADRLASHZSHDKUNIRAXO
RAMAZONYQMXHAYITIPLRTQURBONXBTFNHAYITIIYND

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Artyom
Alisher
Bobo
O‘qituvchi
Ona
Siz

Namuna. Artyom yangi yil bayramini yoqtiradi.

Mustaqil topshiriq. Siz oilangizda yana qanday bayramlarni nishonlaysiz? Shu mavzuda gapirish uchun tayyorlanib keling.

58

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va oilaviy qanday bayramlarni nishonlashlari haqida ma’lumot to‘plab kelishlari lozim.

26-DARS. BAYRAMGA TAYYORGARLIK

Maqsad

Bayram nomlarini takrorlash, ularni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlash. Loyiha asosida bayramga mos sovg‘a tayyorlashni o‘rganish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi komiksga o‘quvchilar diqqatini qarating. Komiks asosida berilgan dialogni dastlab 2 marta tinglating, so‘ng rollarga bo‘lib o‘qiting.


2. 2-topshiriqdagi savollarga o‘quvchilar 1-topshiriqdagi komiks va dialoglarga tayanib javob beradilar.

3. 3-topshiriq ham komiks asosida bo‘lib, komiksdagi holatlar rasmda tasvirlangan. O‘quvchilar holatlarni nomlab chiqishlari lozim.

4. 4-topshiriqda berilgan testlarga javob topadilar. Test javoblari: 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni.

5. 5-topshiriqda turli rasmlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar Vatan himoyachilari kuniga mos bo‘lmagan rasmlarni chiqarib tashlaydilar. Qolgan rasmlar qaysi bayramni aks ettirishini izohlaydilar.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.



O‘quvchilar Vatan himoyachilari kuniga sovg‘a tayyorlamoqchi.

4. O‘ylang va toping.

14-yanvar qanday kun?
a) Mustaqillik kuni
b) Konstitutsiya kuni
d) Vatan himoyachilari kuni
e) Xotira va qadrlash kuni

8-dekabr qanday kun?
a) Navro‘z bayrami
b) Xotira va qadrlash kuni
d) Vatan himoyachilari kuni
e) Konstitutsiya kuni

5. O‘ylang va toping.




Mustaqil topshiriq. Siz kimga, qanday sovg‘a tayyorlayapsiz? Ushbu savolga javob yozib keling.

60

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskada esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerga yozishlari va daraxtni mevalar bilan “bezatishlari” lozim.



Sana: _____

BAYRAMGA TAYYORGARLIK

1. Savollarga javob bering. Yozing. (59/2)

1. Suratda nimalar bor? _____
2. Suratda kimlar bor? _____
3. Artyom va Solih kimni tabriklashmoqchi? _____

2. O‘ylang va toping. (60/4)

14-yanvar qanday kun?	8-dekabr qanday kun?
a) Mustaqillik kuni	a) Navro‘z bayrami
b) Konstitutsiya kuni	b) Xotira va qadrlash kuni
d) Vatan himoyachilari kuni	d) Vatan himoyachilari kuni
e) Xotira va qadrlash kuni	e) Konstitutsiya kuni

3. O‘ylang va toping. Bo‘yang.

Mustaqil topshiriq. Siz kimga, qanday sovg‘a tayyorlayapsiz? Ushbu savolga javob yozib keling.

_____

_____

40

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va bayramga kimga qanday sovg‘a tayyorlayotganlari haqidagi savolga javob yozib kelishlari lozim.

27-DARS. TUG‘ILGAN KUN

Maqsad

O‘z tug‘ilgan kuni haqida ma’lumot bera olish, istak va xohishlarini bildira olish, mavzu yuzasidan suhbatdosh bilan erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bayram nomlarini takrorlash, ularni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash bo‘yicha malaka hosil qilish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar


1. Komiksda berilgan dialoglarni ixtiyoriy ketma-ketlikda yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qiting.

2. Dialog asosidagi savollarni o‘qib bering. O‘quvchilar bu savollarga dastlab og‘zaki javob bersin, so‘ng javoblarni mashq daftariga yozsin.

3. 3-topshiriqda berilgan jadvalga o‘quvchilar e’tiborini qaratting. Bunda ular jadvaldagi ustunchalarda keltirilgan so‘zlardan foydalanib namunadagi kabi gaplar tuzishlari lozim.

4. 4-topshiriq bo‘yicha o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Bunda har bir o‘quvchi bilan individual ishlashga, fikrlarini tinglashga harakat qiling. O‘quvchilar dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ng javoblarini mashq daftariga yozishlari lozim.

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi



materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. O‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlarni yodga olishlari, uch bo‘g‘inli so‘zlarga ikkitadan misol aytishlari, so‘ng daftarlariga yozishlari kerak.



Sana: _____

TUG‘ILGAN KUN

1. O‘ylang va toping. Yozing. (63/3)

Artyom	15-sentyabr	koptok
Aziza	20-oktyabr	aqlli soat
Erlan	3-may	robot
Solih	17-iyun	ertak kitobi
Ustoz	29-mart	noutbuk
Ulug‘bek amaki	5-yanvar	mashina

Namuna. Artyomning tug‘ilgan kuni o‘n beshinchi sentyabrda. U tug‘ilgan kuniga koptok olishni xohlayapti.

Aziza _____

2. Savollarga javob yozing. (62/4)

1. Sizning tug‘ilgan kuningiz qachon?
2. Siz tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni istaysiz?

Mening tug‘ilgan kunim _____

Men tug‘ilgan kunimda _____

_____ *olishni xohlayman.*

41

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va oila a’zolaridan “Tug‘ilgan kuningiz qachon?” va “Tug‘ilgan kuningizga nima olishni istaysiz?” kabi savollarga javob olib, daftarlariga yozib kelishlari lozim.

28-DARS. KIM BILAN?

Maqsad

Bilan ko‘makchisi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash, undan yozma va og‘zaki nutqda, bevosita muloqot jarayonida to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmasini rivojlantirish. Bayram nomlarini takrorlash hamda ularni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash bo‘yicha malaka hosil qilish. Sinonimlik, ya’ni ma’nodoshlik hodisasi bilan tanishtirish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


2. O‘ylang va toping.

Navro‘z	Hayit bayrami	Yangi yil	Tug‘ilgan kun
do‘stlar, qarindoshlar	oila a’zolari	ota-ona, aka-uka, opa-singillar	o‘rtoqlar

Davron Asel Artyom ?

---------- ---------- ---------- ----------

Namuna. Davron Navro‘z bayramini do‘stlari va qarindoshlari bilan nishonlaydi.

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Bizning sirk dars qachon? tayyorlanyapti.
Bugun sizning bayramga keldi. sinf
Ularning -imiz -iga kun tug‘ilgan
Sening maktab -ing bor. -ingiz

Namuna. Bizning sinfimiz bayramga tayyorlanyapti.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.


1. ota-onasi, O‘quvchilar, boryapti, bilan, maktabga.
2. bilan, Murabbo, yeyiladi, non.
3. do‘stlar, kun, Tug‘ilgan, bilan, o‘tkaziladi.
4. ichiladi, Dori, bilan, suv.
5. futbol, Denis, o‘ynayapti, Erlan, bilan.

63

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi matnning audio shaklini dastlab ikki marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qiting.

2. Matnda berilgan *o‘tkazmoq – nishonlamoq* sinonim fe’llari haqida ma’lumot bering. O‘quvchilarga sinonimlik, ya’ni ma’nodoshlik hodisasini misollar orqali tushuntiring.


3. O‘ylang va toping.

Artyom	15-sentyabr	koptok
Aziza	20-oktyabr	aqlli soat
Erlan	22-yanvar	robot
Solih	17-iyun	ertak kitobi
Asel	8-dekabr	pushti sumka
Ustoz	29-mart	noutbuk
Ulug‘bek amaki	5-yanvar	mashina

Namuna. Artyomning tug‘ilgan kuni o‘n beshinchi sentyabrda. U tug‘ilgan kuniga koptok olishni xohlayapti.

4. Savollarga javob bering.

1. Sizning tug‘ilgan kuningiz qachon?
2. Siz tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni istaysiz?

Namuna. Mening tug‘ilgan kunim …
Men tug‘ilgan kunimda … olishni xohlayman.

Mustaqil topshiriq.

1. Sizning tug‘ilgan kuningiz qachon?
2. Siz tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni istaysiz?
3. Oila a’zolaringizdan shu savollarga javob oling va yozib keling.

KIM BILAN?

1. Tinglang. O‘qing.

… bilan

Bayramlar yaqin insonlar davrasida nishonlanadi.
Yangi yilni oilada ota-ona, aka-uka va opa-singillar ***bilan*** nishonlaydilar. Navro‘z bayramini esa do‘stlar, qarindoshlar ***bilan*** o‘tkazadilar. Hayit bayramlari ham oila a’zolari ***bilan*** nishonlanadi. Xotira va qadrlash kuni ko‘pincha bobo-buvilar ***bilan*** nishonlanadi. Bolalar tug‘ilgan kunlarini o‘rtoqlari ***bilan*** nishonlashni yaxshi ko‘radilar.

qarindosh
yaxshi ko‘rmoq
ko‘pincha

nishonlamoq = o‘tkazmoq
do‘st = o‘rtoq


62

3. 2-topshiriqqa o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilar berilgan so‘zlardan foydalanib namunadagi kabi gaplar tuzishlari lozim. Dastlab og‘zaki ravishda gap tuzadilar, so‘ng mashq daftariga yozadilar.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar pazllarda keltirilgan gap qismlarini, ya’ni so‘z va qo‘shimchalarni bir-biriga moslab, gaplarni namunadagi kabi to‘g‘ri shakllantirishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajarilishi lozim.

5. 4-topshiriqda berilgan so‘zlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ularni to‘g‘ri tartiblab, gap tarzida o‘qiting, ularda qo‘llanayotgan *bilan* ko‘makchisining vazifasi haqida o‘quvchilar bilan fikr almashing hamda misollar orqali mavzuni mustahkamlang.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.



2. O‘ylang va toping. Yozing. (63/3)

Bizning | sirk | dars | qachon? | tayyorlanyapti.

Bugun | sizning | bayramga | keldi. | sinf

Ularning | kun | -iga | tug‘ilgan

Sening | maktab | -ing | -imiz | -ingiz

Namuna. Bizning sinfimiz bayramga tayyorlanyapti.

3. O‘ylang va toping. Gapiring. (63/4)

1. ota-onasi, O‘quvchilar, boryapti, bilan, maktabga.
2. bilan, Murabbo, yeyiladi, non.
3. do‘stlar, kun, Tug‘ilgan, bilan, o‘tkaziladi.
4. ichiladi, Dori, bilan, suv.
5. futbol, Denis, o‘ynayapti, Erlan, bilan.

43

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Globoalifbo” metodini qo‘llang. O‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlarni alifbo ketma-ketligi bo‘yicha aytishlari kerak. Masalan: 1-o‘quvchi A harfi bilan boshlanuvchi *aqlli soat;* 2-o‘quvchi B harfi bilan boshlanuvchi *bayram* so‘zini aytadi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va *bilan* ko‘makchisi ishtirok etgan gaplarga ikkitadan misol yozib kelishlari lozim.

29-DARS. BU NIMA?

Maqsad

Libos nomlarining o‘zbek tilida ifodalanishini o‘zlashtirish, ularni yozma va og‘zaki nutqda to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish. O‘zi va o‘zgalarning liboslari, shuningdek, qanday kiyinganini tasvirlab berish malakasini shakllantirish. Ranglar bo‘yicha mavjud bilimlarni mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



Vazifalar

1. Rasmlarga hamohang tarzda berilgan libos nomlarining audio shaklini 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng rasmlarini ko‘rsatgan holda takrorlating. Topshiriq mashq daftariga yozma ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilar berilgan sonlarga moslab libos nomlarini yozib chiqishlari lozim.

2. Rasmlar asosida “Bu nima?” savolini bering. O‘quvchilar savolga og‘zaki javob berishlari lozim.

3. 2-topshiriq yuzasidan o‘quvchilar bilan kiyimlarning foydasi va ahamiyati haqida kichik davra suhbati tashkil qiling. Shaxsiy fikrlari, mulohazalari bilan tanishing. So‘ng vaziyatlarga moslab berilgan assotsiatsiyaviy rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar berilgan vaziyatlarga mu-

vofiq keluvchi rasm raqamlarini mazkur vaziyatlar yonida keltirilgan bo‘sh katakchalarga moslab belgilab chiqishlari lozim.

4. 3-topshiriqdagi rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda ular libos nomi va rangini namunadagi kabi aytishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari lozim.

5. 4-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bunda o‘quvchilar dastlab rasmda berilgan qahramonlarni nomlashlari, so‘ng ular qanday libosda ekanini tasvirlab berishlari lozim.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.


BU NIMA?

1. Tinglang. O‘qing.

do‘ppi
yaktak
atlas ko‘ylak

1. Qalpoq. 2. Kepka. 3. Ro‘mol. 4. Atlas ko‘ylak. 5. Shim. 6. Yubka. 7. Ko‘ylak. 8. Futbolka. 9. Shortik. 10. Palto. 11. Kurtka. 12. Nimcha. 13. Tufli. 14. Etik. 15. Krossovka. 16. Do‘ppi. 17. Yaktak.

Bu nima?

Namuna. Bu – jigarrang palto.


Diqqat qiling!

2. O‘ylang va toping.

Issiqdan himoya qiladi.
Sovuqdan himoya qiladi.
Chiroyli ko‘rinishga xizmat qiladi.

himoya qilmoq
xizmat qilmoq

65


4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna. *Davron oq ko‘ylak va siyohrang shimda.*

Mustaqil topshiriq. Kiyimlar mavzusida maqol va topishmoq topib, yozing.

67


Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlab oling. Bunda o‘quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (qog‘ozdan yasalgan mikrofon maketi, qalam, ruchka va h.k.) ni uzatadilar. Mikrofonni olgan

o‘quvchi bugungi darsda o‘tilgan libos nomlaridan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Aytilgan so‘zlar takrorlanmasligi kerak.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va libos nomlari ishtirok etgan maqol yoki topishmoqlarga bittadan misol topib, daftarlariga yozib kelishlari lozim.


Sana: _____

BU NIMA?

1. Tinglang. Yozing. (65/1)

1. Qalpoq
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____
7. _____
8. _____
9. _____
10. _____
11. _____
12. _____
13. _____
14. _____
15. _____
16. _____
17. _____

2. O‘ylang va toping. (65/2)

Kiyimning foydalari:

Sovuqdan _____.

Issiqdan _____.

Chiroyli _____.

3. O‘ylang va toping. (66/3)

Namuna. Ko‘k shim. Shimning rangi ko‘k.

Shim, shapka, ko‘ylak, palto, yubka, futbolka, tufli.

_____

_____

_____

_____

_____

_____

44

30-DARS. BIZ TENGMIZ

Maqsad

O‘quvchilarda turli millatlar va ularning o‘ziga xos milliy liboslari haqidagi bilimlarni shakllantirish, ularning o‘zbek tilida ifodalanishi bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish. Kiyinishga oid so‘zlar, xususan, libos nomlari hamda fe’llarni yozma va og‘zaki nutqda faol qo‘llash bo‘yicha malakalarni shakllantirish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar

1. 1-topshiriqda keltirilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. “Aqliy hujum” metodi asosida rasmda qaysi millat bolalari tasvirlangani va ularning liboslari qanday atalishi haqida qisqa savol-javob o‘tkazing.

2. Ushbu rasm asosida berilgan audio materialni 2 marta tinglating, so‘ng takrorlating. Topshiriqning 2-qismida o‘quvchilar raqamlangan milliy liboslar qaysi millatga tegishli ekanini aytishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari lozim.

2. 2-topshiriqda audiomatnni eshittirish imkoni bo‘lmasa, o‘qituvchi o‘zi matnni o‘qib beradi.






Matn metodik qo‘llanmaning ilovasida berilgan.

3. 2-topshiriqni dastlab og‘zaki tarzda bajartiring. Bunda o‘quvchilar berilgan kalit so‘zlar asosida tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri to‘ldirishlari lozim. So‘ng ushbu topshiriqni mashq daftarida yozma ravishda bajartiring.

4. Xonatlas tarixi haqida berilgan audiomatnni 2 marta tinglating. Agar audiomatnni tinglatish imkoni bo‘lmasa, 2-ilovada (122-bet) berilgan matnni ifodali o‘qib bering. So‘ngra o‘quvchilar bilan xonatlas tarixi bo‘yicha qisqa savol-javob o‘tkazing.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.



Mustaqil topshiriq. Kiyimlar mavzusida maqol va topishmoq yozish.

Sana: _____

BIZ TENGMIZ

1.O‘ylang va toping. Yozing. (69/1)

Namuna. Koreys milliy libosi – **xanbo‘k.**

2. O‘ylang va yozing. (69/2) atlas, bor, tikiladi, kiyadilar

Har bir millatning milliy liboslari _____. Ular milliy liboslarini bayramlarda _____. Bolalarning milliy liboslarini ko‘rib, millatini aniqlab olish mumkin. Milliy liboslar har bir millat yashaydigan hududga mos bo‘ladi. O‘zbek milliy liboslaridan biri _____ ko‘ylak. U ipakdan_____.

Mustaqil topshiriq. O‘z milliy libosingiz rasmini chizing.

45

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar darsda o‘tilgan libos nomlariga oid so‘zlardan 3 tasini eslab, daftarlariga yozishlari va o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va o‘zlari yoqtirgan milliy libos rasmini chizib kelishlari lozim.

31-DARS. QAYERGA?

Maqsad

Libos nomlarini takrorlash, ularni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni mustahkamlash. **-ga** jo‘nalish kelishigi va uning og‘zaki va yozma nutqda ifodalanishi bo‘yicha malaka hosil qilish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Berilgan jadvalga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ular liboslarni joy va vaziyatlarga to‘g‘ri moslashlari kerak. Ya’ni qayerga qanday libosda borish mumkinligini aniqlashlari va namunada keltirilganidek javob berishlari lozim. Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng yozma ravishda mashq daftariga bajariladi.



2. 2-topshiriqda keltirilgan sxematik qoidaga o‘quvchilar e’tiborini qarating. **-ga** jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi va uning qo‘llanishini misollar yordamida tushuntiring. So‘zlar oxiri jarangsiz **k** va **q** undoshlari bilan tugaganda tovush o‘zgarishi sodir bo‘lishini va bu so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-ka** (*yurakka, terakka*) va **-qa** (*buloqqa, so‘roqqa*) tarzida qo‘shilishini tushuntiring. Grammatik mavzuni misollar yordamida mustahkamlang.



3. Keyingi topshiriqda yuqoridagi grammatik ma’lumotni o‘zlashtirganlik darajasi tekshiriladi.

Sana: _____

QAYERGA?

1. O‘ylang. Toping. Yozing. (70/1)

Namuna. Robiya qayerga ko‘ylak, tufli kiyib bordi? Robiya teatrga ko‘ylak, tufli kiyib bordi.

_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

2. O‘ylang va toping. Yozing. (71/2)

Tog‘ + -ga= tog‘ga

Maktab + -ga= _____

Bog‘ + -ga= _____

Sirk + -ga =_____

Qishloq + -ga = _____

Teatr + -ga =_____

Suv havzasi + -ga =_____

Do‘kon + -ga =_____

3. O‘ylang va toping. Belgilang. (72/3)

Sitoraning bobosi va buvisi Buxoroda yashaydi. Sitora yozda Buxoroga boradi. Bolalar, Sitoraga yordam kerak.

Sitora o‘zi bilan ko‘ylak,_____, _____,
_____, _____, _____,
_____, _____, _____,
_____, _____oldi.

46

O‘quvchilar rasmlar ko‘rinishida berilgan joy nomlariga **-ga** jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini to‘g‘ri qo‘shib, so‘zlarni mashq daftariga yozishlari lozim.

4. 3-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qaratib, so‘zlarni o‘qiting. O‘quvchilar Sitoraga Buxorodagi ta’tili uchun yo‘l sumkasini hozirlashda yordam berishlari lozim. Ya’ni berilgan liboslarning qaysilari ushbu safar uchun zarurligini aniqlashlari hamda ularning nomlarini daftarlariga ko‘chirib yozishlari lozim.

5. Surat asosidagi savollarni o‘quvchilarga o‘qib bering. Ular savollarga dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari lozim.


6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr

3. O‘qing. O‘ylang.

Sitoraning bobosi va buvisi Buxoroda yashaydi. Sitora yozda Buxoroga boradi. Bolalar, Sitoraga yordam kerak.



4. Savollarga javob bering.

1. Sitora yozda qayerga boradi?
2. Sitora sumkasiga palto va etik soldimi?
3. Nima uchun?
4. Sitora ota-onasi bilan qayerga ketyapti?

Mustaqil topshiriq. Sizning oila a’zolaringiz qayerga boradi?

Namuna. *Akam ... boradi.* ***Singlim, ukam***

72

so‘rang va uni daftarga yozishlarini ayting. Bu orqali dars mavzusini umumiy mustahkamlab oling.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va oila a’zolarining qayerga borishi haqida kichik suhbat-intervyu olib, javoblarni daftarga yozib kelishlari lozim.

32-DARS. GARDEROB

Maqsad

Libos nomlarini yana bir bor takrorlab olish. O‘zi va o‘zgalarning liboslari, shuningdek, kiyinish holatini tasvirlab bera olish ko‘nikmasini rivojlantirish. Uy anjomlari nomini va ular bilan birga qo‘llanuvchi harakat-holat fe’llarini mustahkamlash, ularni og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llash bo‘yicha malaka hosil qilish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Berilgan matnning audio shaklini 2 marta tinglating. Yoki bir marta ifodali o‘qib bering. So‘ng ketma-ketlik asosida o‘qiting.

2. Matn asosidagi savollarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ular savollarga yuqoridagi matn va o‘z hayotiy kuzatishlariga tayanib javob berishlari lozim. Ushbu



GARDEROB

1. O‘qing. Tinglang.

Bugun yakshanba. Kunlar isiy boshlagan. Oyim bilan garderobimizdagi kiyimlarni saraladik. Palto, kurtka, jemper, shapka, bo‘yinbog‘larimizni qutilarga soldik. Ukamning kurtkasini alohida olib qo‘ydik. Chunki uning kurtkasi kichik bo‘lib qoldi.

Boshqa qutilarni ochib, bahorgi kiyimlarimizni oldik.

a) Chunki kichik bo‘lib qoldi.
b) Ukasining kurtkasi yirtiq edi.
d) Ha, biz ham kiyimlarni saralaymiz.
e) Bahorda kurtka, shim, yubka, ko‘ylak, tufli, krossovka kiyamiz.
f) Bilmayman.
g) Bahorda o‘zim istagan kiyimni kiyaman.
h) Bahorda yangi kiyim kiyaman.

saralamoq
solmoq
alohida
chunki
yirtiq

2. Savollarga javob bering.

1. Nima uchun kurtkani alohida olib qo‘ydilar?
2. Sizning ham oilangizda shunaqa kun bo‘ladimi?
3. Bahorda qanday kiyimlar kiyasiz?

73

3. O‘ylang va toping.

		Ha	Yo‘q
1.	Bugun yakshanba.		
2.	Opam bilan garderobimizdagi kiyimlarni saraladik.		
3.	Kurtka, jemper, shapka, bo‘yinbog‘larimizni yuvdik.		
4.	Boshqa qutilarni ochib, bahorgi kiyimlarimizni oldik.		
5.	Ukamning kurtkasini alohida olib qo‘ydik.		
6.	Boshqa qutilarni ochib, qishki kiyimlarimizni oldik.		

4. Tinglang. O‘qing.



1. Qaychi. 2. Igna. 3. Ip. 4. Taroq. 5. Tugma. 6. Supurgi. 7. Xokandoz. 8. Qisqich. 9. Tish cho‘tkasi. 10. Cho‘tka. 11. Ko‘zgu. 12. Chelak.

5. O‘ylang. Toping.

1. Kurtkani tikish uchun igna, …, … kerak.
2. Uy tozalash uchun supurgi, …, … kerak.
3. Sartaroshga … kerak.
4. Tikuvchiga … kerak.

supurgi
xokandoz
qisqich
qaychi

topshiriq mashq daftarida yozma ravishda bajariladi.

3. 3-topshiriqni o‘qiting. O‘quvchilar yuqoridagi matnda sanalgan vaziyatlar bor yoki yo‘qligini aniqlashlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida bajariladi (bunda berilgan katakchalarga *ha* yoki *yo‘q*ni anglatuvchi belgilar kiritilishi yetarli. *Ha* va *yo‘q* so‘zlari yozilgan kartochkalardan ham foydalanishingiz mumkin).

4. Rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating. Unda tasvirlangan ashyolar va ularning nomlanishi keltirilgan audiomatnni 2 marta tinglating yoki o‘zingiz ifodali o‘qib bering. So‘ng ushbu yangi so‘zlarni o‘quvchilarga ketma-ketlik asosida o‘qiting.

5. Navbatdagi topshiriqda esa o‘quvchilar tushirib qoldirilgan so‘zlar o‘rniga yuqoridagi yangi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri tuzishlari lozim. Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. So‘zlarning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, yodda saqlashlari uchun vizual, audial, kinestetik idrok etish usullaridan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.

2. O‘ylang va toping. Belgilang. (74/3)

		Ha	Yo‘q
1.	Bugun yakshanba.		
2.	Opam bilan garderobimizdagi kiyimlarni saraladik.		
3.	Kurtka, jemper, qalpoq, bo‘yinbog‘larimizni yuvdik.		
4.	Boshqa qutilarni ochib, bahorgi kiyimlarimizni oldik.		
5.	Ukamning kurtkasini alohida olib qo‘ydik.		
6	Boshqa qutilarni ochib, qishki kiyimlarimizni oldik.		

3. O‘ylang va toping. Yozing. (74/5)

1. Kurtkani tikish uchun igna, _____, _____ kerak.
2. Uy tozalash uchun supurgi, _____, _____ kerak.
3. Sartaroshga _____, _____, _____ kerak.
4. Tikuvchiga _____, _____, _____, _____, _____, _____ kerak.

Mustaqil topshiriq.

Namuna. *Shim, kurt-ka,* _____


_____

_____

_____

_____

_____



Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar darsda o‘rganilgan uy anjomlari va libos nomlariga oid so‘zlardan 3 donasini eslab, daftarlariga yozishlari va o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va bugungi darsda o‘rganilgan yangi so‘zlardan 1, 2 va 3 bo‘g‘inlilarini topib, bo‘g‘inlarga ajratgan holda yozib kelishlari lozim.

33-DARS. TUGMACHA

Maqsad

Qayerga? so‘rog‘i hamda ushbu so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘zlar bilan tanishish, ularni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash malakasini hosil qilish. Dialogli matnlar bilan ishlash va o‘zaro muloqot qila olish, savol berish va javob qaytarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqda berilgan komiksga o‘quvchilar diqqatini qarating. Komiks asosidagi berilgan dialogni 2 marta tinglating yoki o‘zingiz



2. Savollarga javob bering.

1. Kim darsga kech qoldi?
2. Doston kimni chaqirdi?
3. Daler bilan Doston qayerga bordi?

Besh og‘ayni, ayvoni bir, xonasi boshqa. (?)

3. O‘qing.

Namuna. Natasha qayerga boradi? Natasha bog‘ga boradi.

1. Erlan qayerga boradi?
2. Aziza qayerga boradi?
3. Denis qayerga boradi?
4. O‘quvchilar qayerga boradi?
5. Asel qayerga boradi?

77

bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng rollarga bo‘lib o‘qiting.


2. 2-topshiriqda o‘quvchilar komiks asosida berilgan savollarga javob topishlari lozim. Bunda javoblarni dastlab og‘zaki ravishda beradilar, so‘ng ularni mashq daftariga yozadilar.

3. 3-topshiriqdagi rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilar savollarga namunada ko‘rsatilgani kabi javob berishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftariga yozma ravishda bajariladi.

4. Mavzudagi yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, esda saqlab qolishlari uchun vizual, audial, kinestetik idrok etish usullaridan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyiting.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Zanjir” metodini qo‘llang. Bunda 1-o‘quvchi bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlardan bittasini yodga olib aytadi, keyingi o‘quvchi avval 1-o‘quvchi aytgan so‘zni, keyin o‘zi yodga olgan so‘zni aytadi, 3-o‘quvchi esa avval o‘zidan oldingi 1- va 2-o‘quvchi aytgan so‘zlarni, so‘ng o‘zining so‘zini aytadi va shu tarzda so‘zlar zanjirini hosil qiladi.



Sana: _____

TUGMACHA

1. Savollarga javob yozing. (77/2)

1. Kim darsga kech qoldi?
_____
2. Doston kimni chaqirdi?
_____
3. Daler bilan Doston qayerga bordi?
_____

2. Savollarga javob yozing. (77/3)

Namuna. Natasha qayerga boradi? Natasha bog‘ga boradi.

1. Erlan _____
_____ boradi.
2. Aziza _____
_____.
3. Denis _____
_____.
4. O‘quvchilar _____.
_____
5. Asel _____.
_____.

Mustaqil topshiriq. Siz qayerga borasiz?

vokal, gimnastika, taekvondo

Men _____ boraman.

Akam _____ boradi. Singlim _____ boradi.

49

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va mashq daftarida mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Siz qayerga borasiz?” nomli mashqni yozma tarzda bajarib kelishlari lozim. Bunda o‘quvchilar berilgan kalit so‘zlardan foydalangan holda gaplarni to‘ldirishlari va ixtiyoriy ravishda “Siz qayerga borasiz?” savoliga javob bo‘luvchi yana 2 ta gap tuzib kelishlari lozim.

34-DARS. YOQIMLI ISHTAHA!

Maqsad

Taom nomlari bilan tanishish, ularni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash bo‘yicha malaka hosil qilish. *Bilan* ko‘makchisini nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmda tasvirlangan taomlar nomi berilgan audiomatnni 2 marta tinglating yoki o‘zingiz ifodali o‘qib bering. So‘ng ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lgan holda o‘qiting.


YOQIMLI ISHTAHA!

1. Tinglang. O‘ylang va toping.

1. Palov (osh). 2. Sho‘rva. 3. Somsa. 4. Manti. 5. Gamburger. 6. Pitsa. 7. Muzqaymoq. 8. Tort. 9. Choy. 10. Sut. 11. Sharbat.

78



2. O‘qing. Tinglang.

1. – Assalomu alaykum! Iltimos, menga palov, salat va choy bering.
– Marhamat. Osh bo‘lsin!
2. – Men kecha sho‘rva ichdim. Bugun mantini tanladim. Manti juda mazali. Sardor, senga manti yoqmaydimi?
– Men esa kecha manti olgandim. Bugun mastava, qatiq va non oldim.
– Yoqimli ishtaha!
– Senga ham yoqimli ishtaha, Dmitriy.
3. – Aynura, ovqat olmadingmi?
– Yo‘q, men qovoq somsani yaxshi ko‘raman. Sen ham yeysanmi?
– Rahmat. Bugun Said amaki mening sevimli ovqatimni pishiribdilar. Men pyure bilan kotletni yaxshi ko‘raman.

3. Savollarga javob bering.

1. Erlan palov bilan nima oldi?
2. Kim kecha sho‘rva ichdi?
3. Dmitriy qanday ovqat yedi?
4. Kim qovoq somsani yaxshi ko‘radi?
5. Maktabda Said amaki kim bo‘lib ishlaydi?

pishirmoq
sevimli
osh bo‘lsin!

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Sarvar 14:00 Kamola 13:00

Namuna. 1. **Sarvar soat 14:00 da *tushlik* qildi.**
U tushlikka …, … *yedi.* Oshni … bilan yedi. Dasturxonda … ham bor edi.
2. Kamola soat …da … qildi. U … yedi. Ovqatni … bilan yedi. Dasturxonda … ham bor edi.
3. Siz kecha tushlikka nima yedingiz?

79

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar dialog asosida berilgan savollarga javob topadilar. Dastlab og‘zaki javob beradilar, so‘ng javoblarni mashq daftariga yozadilar.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar tushirib qoldirilgan so‘zlar o‘rniga moslarini qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri to‘ldirishlari lozim. Gaplarni dastlab o‘qiydilar, so‘ng mashq daftariga yozadilar.

5. Navbatdagi topshiriqda o‘quvchilarga bananli yogurt tayyorlash texnologiyasini o‘rgatishingiz lozim (kerakli mahsulotlarni avvaldan olib kelishingiz, bunday imkoniyat bo‘lmasa, ularning maketi, rasmini ko‘rsatgan holda tayyorlash texnologiyasi haqida o‘quvchilarga tushuncha berishingiz lozim).

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.



Sana: _____

YOQIMLI ISHTAHA!

1. Savollarga javob yozing. (79/3)

1. Erlan palov bilan nima oldi?
_____
2. Kim kecha sho‘rva ichdi?
_____
3. Dmitriy qanday ovqat yedi?
_____
4. Kim qovoq somsani yaxshi ko‘radi?
_____
5. Maktabda Said amaki kim bo‘lib ishlaydi?
_____

2. O‘ylang va toping. Yozing. (79/4)


14:00 Sarvar 13:00 Kamola

Namuna. 1. **Sarvar soat 14:00 da *tushlik* qildi.**
U tushlikka _____, _____ yedi.
Oshni _____ bilan yedi. Dasturxonda _____ ham bor edi.
2. Kamola soat _____da _____ qildi.
U _____ yedi. Ovqatni _____ bilan yedi.
Dasturxonda _____ ham bor edi.
3. Siz kecha tushlikka nima yedingiz? _____

Mustaqil topshiriq. Kattalar ko‘magida mevali yogurt tayyorlang.

50

Refleksiya jarayoni


5. O‘qing. Tinglang.

BANANLI YOGURT

Kerakli mahsulotlar:
1 dona banan, yogurt.
Tayyorlash usuli:
Maydalangan banan bilan yogurtni aralashtiring.

Mustaqil topshiriq. Mevali yogurt tayyorlab ko‘ring.

Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. O‘quvchilarga kalit so‘z sifatida *osh bo‘lsin* birikmasi beriladi va doskaga gorizontal holatda OSH BO‘LSIN deb yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan, O, Sh, B, O‘, L, S, I, N harflari bilan boshlanuvchi taom nomlariga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va darsda o‘rganganlari asosida uyda bananli yogurtni mustaqil tayyorlab ko‘rishlari hamda iloji bo‘lsa, rasmga olib kelishlari yoki tayyorlash jarayoni va mazasi haqida yozib kelishlari lozim.

34-DARS. QANDAY?

Maqsad


Maza-ta’mni bildiruvchi sifatlar bilan tanishish, ularni otlar bilan qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish. *Qanday?* so‘rog‘i hamda unga javob bo‘luvchi so‘zlar haqida ma’lumot olish, ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash malakasini shakllantirish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Yuz ifodalari ta’mlarga ko‘ra qanday o‘zgarmoqda? O‘quvchilarning fikrlarini so‘rang. Audiomatnni dastlab 2 marta tinglating yoki bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng mustaqil tarzda o‘qiting.



5. O‘qing. Tinglang.

BANANLI YOGURT

Kerakli mahsulotlar:
1 dona banan, yogurt.
Tayyorlash usuli:
Maydalangan banan bilan yogurtni aralashtiring.

Mustaqil topshiriq. Mevali yogurt tayyorlab ko‘ring.

QANDAY?

1. O‘qing. Tinglang.

1 Shirin 2 Sho‘r 3 Achchiq 4 Nordon 5 Chuchuk

2. O‘ylang va toping. Savollarga javob bering.

1. Qanday ? Shirin tort.
2. Qanday ? … .
3. Qanday ? … .

80

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar berilgan mahsulotlarning rasmiga qarab, ularning ta’mi qanday ekanini topishlari va savollarga to‘g‘ri javob berishlari kerak. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida bajariladi.


3. Anor haqida berilgan she’riy topishmoqni dastlab bir marta ifodali o‘qib bering. So‘ng o‘quvchilarga ham ifodali o‘qiting. Ular topishmoq-she’rdagi maza-ta’m, rang-tus va shakl-o‘lchov bildiruvchi sifatlarni aniqlab, og‘zaki aytishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari lozim.

4. Inson organizmining ta’m bilish funksiyasi haqida keltirilgan qiziqarli ma’lumotni o‘quvchilarga o‘qib bering. Ushbu ma’lumotlar bo‘yicha o‘quvchilar bilan fikr almashing.

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Mevalarim so‘zlaydi” metodini qo‘llang va bugungi mavzuni mustahkamlab



4. Qanday ? … .
5. Qanday suv? … .
6. Qanday ? … .

taxir
ta’m
tilning uchi
tilning cheti
tilning o‘zagi

3. O‘qing.

Mayda, yoqutdek qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil,
Qalin, taxir, po‘sti bor,
Hamma yerda do‘sti bor.
Sen ayt-chi, qizim, Gulnor.
– Bumi, dadajon? Anor.

G‘afur G‘ulom

4. Tinglang. O‘qing.

Bilasizmi, tilimiz ta’m bilish vazifasini ham bajaradi. Shirin ta’mni tilning uchi sezadi. Tilning chetlari nordon va sho‘r ta’mni sezadi. Achchiq ta’mni esa tilning o‘zagi sezadi.

achchiq
nordon
nordon
shirin
sho‘r
sho‘r

Mustaqil topshiriq.

shirin	achchiq	nordon	sho‘r
kivi	pomidor	choy	shakar

Namuna. Qanday kivi? Nordon kivi.

81

oling. Turli meva va sabzavot rasmlari tushirilgan qog‘oz kartochkalar o‘quvchilarga tarqatiladi. Ular o‘z kartochkasidagi meva yoki sabzavot qanday ta’mga ega ekani, uning rangi va shakl-hajmini o‘sha kartochkaning orqa tomoniga yozib, so‘ng o‘qib berilishi lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va topshiriqda keltirilgan mahsulotlarni ularga mos ta’mlar bilan birga namunadagi kabi yozib kelishlari lozim.



Sana: _____

QANDAY?

1. Savollarga javob yozing. (80/2)

1. Qanday tort? *Shirin* tort.
2. Qanday bodring? _____.
3. Qanday _____? _____.
4. Qanday limon? _____.
5. Qanday suv? _____.
6. Qanday anor? _____.

2. Tinglang. Yozing. (81/4)

Bilasizmi, _____ ta’m bilish _____ ham bajaradi. _____ ta’mni tilning uchi sezadi. Tilning chetlari _____ va _____ ta’mni sezadi. _____ ta’mni esa tilning o‘zagi sezadi.

achchiq nordon nordon shirin sho‘r sho‘r

Mustaqil topshiriq. O‘ylang, toping va yozing.

Namuna. **Qanday kivi? Nordon kivi.**

shirin	achchiq	nordon	sho‘r
kivi	pomidor	choy	shakar

_____
_____
_____
_____

51

35-DARS. SANCHQI

Maqsad

Oshxona jihozlarining o‘zbek tilida nomlanishi bilan tanishish. Ularni og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish. **-ni** tushum kelishigining hozirgi zamon davom fe’li bilan birgalikda qo‘llanishini o‘rganish. Shuningdek, umumiy ovqatlanish etiketi, dasturxon odobi haqida ma’lumot berish, ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha zarur ko‘nikmalarni shakllantirish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlang.

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating. Rasmda nimalar tasvirlangani haqida fikr bildirishlarini so‘rang. Dastlab rasm haqidagi audiomatnni 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘quvchilarga o‘qiting.

2. 2-topshiriqdagi “Sanchqi gapirganda” mavzusi ostida berilgan rasmga o‘quvchilar diqqatini qarating. Sanchqining likopda qanday holatda turishi xo‘randaning taomlanish jarayoni haqida muhim axborot berishi mumkinligi to‘g‘risidagi qiziqarli ma’lumotlarni o‘qiting va ushbu mavzu yuzasidan kichik suhbat uyushtiring.




1. O‘qing. Tinglang.

1. Choynak. 2. Piyola. 3. Sanchqi. 4. Qoshiq. 5. Likop. 6. Kosa. 7. Lagan. 8. Qozon. 9. Tova. 10. Kapgir. 11. Cho‘mich. 12. Idishtovoq. 13. Sochiq.

2. O‘qing. E’tibor bering.

SANCHQI GAPIRGANDA



3. O‘ylang. Toping. Gapiring.

yopyapti, yuvyapti, ishlatyapti, kesyapti, taxlayapti, artyapti


1. Aziza sanchqini ishlatyapti.


2. Iroda sochiqlarni … .


3. Asel …ni … .


4. Danil …ni … .


5. Davron … … .


6. Oshpaz … … .



3. 3-topshiriqda o‘quvchilarning **-ni** tushum kelishigini hozirgi zamon davom fe’li bilan qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishingiz zarur. Dastlab misollar orqali grammatik mavzuni tushuntirib bering, so‘ng berilgan topshiriqni yozma ravishda bajartiring. Bunda o‘quvchilar berilgan fe’llardan foydalanib gaplarni namunadagi kabi to‘g‘ri tuzishlari zarur. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida bajariladi.

4. Keyingi jarayonda siz berilgan havola orqali sochiqni to‘g‘ri taxlash usullari aks ettirilgan videomaterialni o‘quvchilarga multimedia vositalari yordamida qo‘yib ko‘rsatishingiz lozim (agar bunday



4. O‘ylang. Toping.

Oshxona jihozlari	O‘quv qurollari	Kiyimlar	O‘yinchoqlar
Choynak	Rasm daftari	Do‘ppi	Lego

Mustaqil topshiriq. Dasturxonga salfetkani chiroyli qilib taxlang. Rasmga oling yoki darsga olib keling.

84

sharoit bo‘lmasa, o‘zingiz sochiqlarni taxlab ko‘rsatishingiz ham mumkin).

5. 4-topshiriqdagi rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ular rasmdagi predmetlarni namunadagi kabi to‘g‘ri biriktirib chiqishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida bajariladi.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni


Dars so‘ngida “Geometrik figura” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga oldindan tayyorlangan geometrik figura shaklidagi kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar ushbu shakllar qaysi oshxona jihozining shakliga mos kelishini topishlari va kartochka orqasiga o‘sha jihozning nomini yozishlari kerak. Masalan, *doira shakli* – piyola, kosa, likopcha; *aylana shakli* – elak; *to‘g‘ri to‘rtburchak* – patnis, taxtakach kabi.

Sana: _____

SANCHQI

1. Yozing. (82/2)

SANCHQI GAPIRGANDA



1._____ 2._____
3._____ 4._____

2. O‘ylang va toping. Yozing. (83/3)

yopyapti, yuvyapti, ishlatyapti,
kesyapti, taxlayapti, artyapti

1. Aziza sanchqini ishlatyapti.
2. Iroda sochiqlarni _____.
3. Danil _____ni_____.
4. Asel _____.
5. Davron _____.
6. Oshpaz _____.

3. O‘ylang va toping. Yozing. (84/4)

Oshxona jihozlari	O‘quv qurollari	Kiyimlar	O‘yinchoqlar
Choynak	Rasm daftari	Do‘ppi	Lego

Mustaqil topshiriq. Dasturxonga salfetkani chiroyli taxlab qo‘ying. Rasmga oling yoki darsga olib keling.

52

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va video orqali o‘rganganlari asosida dasturxon sochig‘i – salfetkani taxlab, uni rasmga tushirib yoki o‘zlari bilan birga olib kelishlari lozim.

36-DARS. DOSHQOZON

Maqsad

O‘zbek milliy taomlari nomlarini o‘zlashtirish, ulardan ayrimlarining tayyorlanish jarayoni haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish. Turkiy xalqlarning eng sevimli bayrami – Navro‘z va uning o‘ziga xos udumlari, an’analari hamda taomlari to‘g‘risida bilim va tasavvurlarni yanada kengaytirish. Qadriyatlarni sevish va ularga hurmat ruhini singdirish.


Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Audiomatnni dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz ifodali o‘qib bering. So‘ng ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qiting.

2. 2-topshiriqda berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasm yuzasidan kichik suhbat uyushtiring. Rasm haqidagi audiomatnni dastlab 2 marta tinglating.


DOSHQOZON

1. Tinglang. O‘qing.


1. Non. 2. Un. 3. Sut. 4. Suv. 5. Tuxum. 6. Qatiq. 7. Guruch. 8. Yog‘. 9. Shakar. 10. Go‘sht. 11. Makaron. 12. Tuz.

Taomiman Navro‘zning,
Umidiman rizq-ro‘zning.
Doshqozonda pishaman,
Goh ko‘pirib, toshaman.
Ijobat bo‘lar tilak,
Pishirsa kim ... .

ko‘k somsa
ko‘rgazma
oq dasturxon
ulgurmoq

2. Tinglang.

85



3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna. ***Mastava****ga nimalar kerak bo‘ladi?*
Mastavaga ***guruch*** *va* ***qatiq*** *kerak bo‘ladi.*

4. O‘qing va savollarga javob bering.

SUMALAK

Har yili maktabimizda Navro‘z bayramini nishonlaymiz. Har bir sinf “**Milliy taomlar**” ko‘rgazmasida qatnashadi. Dmitriy **oq dasturxon** olib keldi. Kamolaning bobosi novvoy. U kishi bayram dasturxonimizga non yopib berdilar. Nonlarni dasturxonimiz o‘rtasiga qo‘ydik. **Ko‘k somsa**, norin, osh, tuxumbarak, tandirkabob bilan dasturxonimiz to‘ldi. Navro‘z bayramida pishiriladigan sumalak yo‘q edi. “Ustoz, ana Botir va Sardor!”

Biz ulgurdik.

1. Dmitriy – oq dasturxon.
2. Kamola – non.
3. Komil – ko‘k somsa.
4. Aleksandr – tuxumbarak.
5. Aziza – osh.
6. Sitora – norin.
7. Acel – tandirkabob.
8. Botir – sumalak.
10. Erfan – beshbarmoq.
11. Sardor – chegnak, pigoloflar.

5. Savollarga javob bering.

1. Bolalar maktabda qaysi bayramni nishonladilar?
2. Sinflar qanday ko‘rgazmada qatnashdi?
3. Kim non pishirib berdi?
4. Dasturxonda qanday taomlar bor?
5. Botir nima olib keldi?

Mustaqil topshiriq. Sevimli taomingiz haqida yozing.


86

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar rasmda keltirilgan taomlarni tayyorlash uchun qanday mahsulotlar kerak bo‘lishini namunada ko‘rsatilgani kabi aytishlari lozim. Ushbu topshiriq og‘zaki tarzda bajariladi.

4. 4-topshiriqda berilgan matnga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Bolalalarga bayram dasturxoni uchun qanday taomlar olib kelish topshirilgani haqida o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazing. Navro‘z dasturxoni haqidagi matnni dastlab o‘quvchilarga ifodali o‘qib bering, so‘ng ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qiting.

5. 5-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matn asosidagi savollarga to‘g‘ri javob berishlari lozim. Javoblar mashq daftariga ham yozilishi kerak.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.



Sana: _____

DOSHQOZON

1. Tinglang. Yozing. (85/1)

Non _____

2. O‘ylang va toping. Yozing. (86/3)

Namuna. Mastavaga nimalar kerak bo‘ladi?
Mastavaga guruch va qatiq kerak bo‘ladi.

3. Savollarga javob yozing. (86/5)

1. Bolalar maktabda qaysi bayramni nishonlashdi? _____
2. Sinflar qanday ko‘rgazmada qatnashishdi? _____
3. Kim non pishirib berdi? _____
4. Dasturxonda qanday taomlar bor? _____
5. Botir nima olib keldi? _____

Mustaqil topshiriq. Mening sevimli taomim _____

53

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan milliy taomlar yoki ushbu taomlarni tayyorlashda foydalaniladigan mahsulotlardan 3 tasini eslab, daftarga yozishlari va o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va “Mening sevimli taomim” mavzusida 4–5 gapdan iborat kichik matn tuzib kelishlari lozim.

37-DARS. MILLIY O‘YINLAR

Maqsad

Milliy o‘yinlar hamda ularning nomlari bilan tanishtirish. Ularni yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish. Shuningdek, ushbu o‘yinlar orqali o‘zbek madaniy hayoti va qadriyatlariga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmda qanday o‘yinlar tasvirlangani va o‘quvchilar bu o‘yinlarni ilgari o‘ynagan yoki o‘ynamaganliklari haqida qisqa savol-javob o‘tkazing.



2. O‘qing. Tinglang.

Dunyodagi barcha bolalar o‘yinlarni yaxshi ko‘radilar. O‘yinlar bizni sog‘lom qiladi, kayfiyatimizni ko‘taradi. O‘yinlarni kattalar ham, kichiklar ham o‘ynaydilar. O‘zbekistonda qadimdan kurash, eshakmindi, ko‘pkari, arqon tortish, chillak, bekinmachoq, oq terakmi, ko‘k terak kabi o‘yinlar bo‘lgan. Bolalar bekinmachoq o‘yinini yaxshi ko‘rib o‘ynaydilar. Uni “Landi-landi, o‘yin boshlandi!” deb boshlaydilar.

3. O‘ylang va savollarga javob bering.

1. Bolalar qaysi o‘yinni yaxshi ko‘rib o‘ynaydilar?
2. O‘yinlarni kattalar ham o‘ynaydilarmi?
3. O‘zbekistonda qadimdan qanday o‘yinlar bo‘lgan?
4. Sport turiga aylanib ketgan o‘yinlarni bilasizmi?

88

2. Audiomatnni dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga o‘qiting. Ushbu o‘yinlarning har biri haqida qisqacha ma’lumot bering (bunda ushbu o‘yin rekvizitlarining bir nechtasini ko‘rgazmali tarzda taqdim etishingiz maqsadga muvofiq).

3. 2-topshiriqdagi rasmlarga o‘quvchilar diqqatini qarating. Ular rasmda qaysi milliy o‘yin tasvirlanganini topishlari, uning nomini dastlab og‘zaki aytishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari lozim.

4. 3-topshiriqdagi savollarga o‘quvchilar yuqoridagi matn asosida javob berishlari lozim. Dastlab og‘zaki javob berishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari kerak.

5. 4-topshiriqda keltirilgan she’rni dastlab ifodali o‘qib bering, so‘ng ixtiyoriy ravishda xohlovchilarga ifodali tarzda o‘qiting.

6. 5-topshiriqda “Durracha” o‘yinini o‘ynash jarayoni rasmlar asosida bosqichma-bosqich keltirilgan. O‘quvchilar rasmlarga diqqat qilishlari va o‘yin jarayonini o‘rganib, tushunib olishlari lozim.

7. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qo-

Sana: _____

MILLIY O‘YINLAR

1. Tinglang.Yozing. (87/1)

Chillak, _____

_____

_____

2. Bo‘yang.



3. Savollarga javob yozing. (87/1)

1. Bolalar qaysi o‘yinni yaxshi ko‘rib o‘ynaydilar?_____

_____

2. O‘yinlarni kattalar ham o‘ynaydilarmi?_____

_____

3. O‘zbekistonda qadimda qanday o‘yinlar bo‘lgan?_____

_____

4. Sport turiga aylanib ketgan o‘yinlarni bilasizmi?_____

_____

Mustaqil topshiriq. O‘yinlar nomini yozing.

_____

_____

54

lishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Timsoh” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan milliy o‘yinlardan birini ixtiyoriy tarzda tanlaydilar va pantomima ko‘rinishida, faqatgina tana harakatlari va imo-ishora orqali ko‘rsatib beradilar, qolganlar esa bu qaysi o‘yin ekanini topishlari kerak bo‘ladi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va turli xalq o‘yinlari nomlarini daftarga yozib kelishlari lozim (ota-onalaridan yoshlikda sevib o‘ynagan o‘yinlari haqida so‘rab, o‘sha o‘yinlarning nomlarini yozib kelishlari ham mumkin).

38-DARS. LAYLAK KELDI


4. Tinglang. O‘qing.

Durracham qo‘lda,
Sekin yuraman.
Kimnidir tanlab,
Asta tashlayman.
Orqangga qara,
Tez meni quvla.

5. O‘ylang va toping.

Mustaqil topshiriq. O‘yinlar nomini yozib keling.

LAYLAK KELDI

1. Tinglang. O‘qing.

Arqon tortish – judayam qiziq o‘yin. Unda ishtirokchilar ketma-ket turadilar. Arqonni har bir ishtirokchi ushlab turadi. Hakam hushtak chaladi. Tomonlar arqonni o‘zlariga tez tortadilar.

ketma-ket
tez
sekin
yonma-yon
zo‘rg‘a

89

Maqsad

Ish-harakatning bajarilish tarzi, vaqti, holatini bildiruvchi ravishlar bilan tanishish. Ularni yozma va og‘zaki nutqda, bevosita muloqot jarayonida to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish. Shuningdek, milliy o‘yinlar haqidagi bilimlarni yanada kengaytirish.


Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



Bekinmachoq – bolalarning sevimli o‘yini. Unda bir bola ko‘zlarini yumib turadi. 10 gacha **sekin** sanaydi. Boshqa bolalar bekinadilar. Sanash tugaydi. Keyin bolalarni topish boshlanadi.

Oq terakmi, ko‘k terak – jamoaviy o‘yin. Bolalar **yonma-yon** turib, bir-birlarining qo‘llaridan qattiq tutadilar.





Keyin “Oq terakmi, ko‘k terak, Bizdan sizga kim kerak?” deb so‘raydilar. Guruhdagi bir bola tanlanadi. Shu bola **tez** yugurib borib, raqiblarining qo‘lini uzib o‘tishi kerak. Bolalar raqib chegarasini **zo‘rg‘a** yorib o‘tadilar.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Arqon tortish o‘yinida ishtirokchilar yonma-yon turadilar.
2. Arqonni tomonlar o‘zlariga tez tortadilar.
3. Oq terakmi, ko‘k terak o‘yinida bolalar yonma-yon turib, bir-birlarining qo‘llaridan mahkam tutadilar.
4. Bekinmachoq o‘yinida bir bola ko‘zlarini yumib turadi.

3. Savollarga javob bering.

ketma-ket, **tez**, sekin, yonma-yon, zo‘rg‘a

1. Bekinmachoqda **tez** bekinish kerak.
2. Bolalar arqonni … tortdilar.
3. Oq terakmi, ko‘k terak o‘yinida bolalar … turadilar.
4. Arqon tortganda bolalar … turishadi.
5. Bekinmachoqda 10 gacha … sanaladi.

Vazifalar

1. Berilgan audiomatnni o‘quvchilarga 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng ketma-ketlik asosida o‘qiting.

2. Matndagi ish-harakatning belgisini bildiruvchi ravishlarga o‘quvchilar diqqatini qaratting. Ravishlarning ishlatilishi bo‘yicha qisqacha tushuntirish bering, savol-javob o‘tkazing.

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar berilgan gaplarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini yuqoridagi matndan kelib chiqqan holda topishlari kerak. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar gaplarni berilgan kalit so‘zlar bilan namunadagi kabi to‘g‘ri to‘ldirishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajarilishi maqsadga muvofiq.

5. 4-topshiriqda berilgan audiomatnni dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘qiting. O‘quvchilar tinglab va o‘qib tushunganlari asosida “Laylak keldi” o‘yinini jamoaviy tarzda sinfxonada bajarib ko‘rishlari lozim (bunda berilgan QR koddagi video ko‘rgazmadan foydalanishingiz ham mumkin).

Sana: _____

LAYLAK KELDI

1. O‘ylang va toping. Yozing. (90/1)

		to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1.	Arqon tortish o‘yinida ishtirokchilar yonma-yon turadilar.		
2.	Arqonni tomonlar o‘zlariga tez tortadilar.		
3.	Oq terakmi, ko‘k terak o‘yinida bolalar ketma-ket turib, qo‘llaridan mahkam tutadilar.		
4.	Bekinmachoq o‘yinida bir bola ko‘zlarini yumib turadi.		

2. O‘ylang va toping. Yozing. (90/3)

ketma-ket, ~~tez~~, sekin, yonma-yon, zo‘rg‘a

1. Bekinmachoqda **tez** bekinish kerak.
2. Bolalar arqonni _____ tortdilar.
3. Oq terakmi, ko‘k terak o‘yinida bolalar _____ turadilar.
4. Arqon tortganda bolalar _____ turishadi.
5. Bekinmachoqda 10 gacha _____ sanaladi.



Mustaqil topshiriq. *Ketma-ket, tez, sekin, yonma-yon, zo‘rg‘a* so‘zlaridan foydalanib gaplar tuzing.

_____
_____
_____
_____

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ng o‘qib beradilar.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va berilgan so‘zlarni qatnashtirib gap tuzib kelishlari lozim.


39-DARS. MEN KIMMAN?

Maqsad

Turli xorijiy davlatlarning milliy o‘yinlari, ularning nomlanishi, qoidalari haqida bilim, tasavvurlar hosil qilish. Ish-harakatning belgisini bildiruvchi ravishlar hamda ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha malakalarni mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



4. Tinglang. O‘qing. Bajaring.

Laylak keldi,
Tuxum qo‘ydi.
Soni nechta?
10 ta.

Bir, ikki, uch,
to‘rt, besh,
olti, yetti,
sakkiz,
to‘qqiz,
o‘n.

Mustaqil topshiriq. *Ketma-ket, tez, sekin, yonma-yon, zo‘rg‘a* so‘zlaridan foydalanib gaplar tuzib keling.

MEN KIMMAN?

1. O‘ylang. Toping. Gapiring.

NYAMA

KAGOME-KAGOME

TO‘G‘IZQUMALAQ

MILLIY O‘YINLAR

KABADDI

G‘OZ VA BO‘RI

Namuna. Nyama – Afrika xalqlari milliy o‘yini.

91

2. Tinglang. O‘qing.

Nyama o‘yinida sardor go‘shtini yeyish mumkin bo‘lgan hayvon nomini aytadi. Siz “Nyama, nyama, nyama” deb baqirishingiz kerak. Bu so‘z suaxili tilida “go‘sht” degan ma’noni anglatadi. “Nyama, nyama, nyama” deyilgan payt siz aylanada turasiz, sardor esa o‘rtada turadi. Hayvon nomi aytilganda guruh o‘rnidan sakrab turadi. Bu o‘yin Sharqiy Afrikada o‘ynaladi. Uni barcha yoshdagi bolalar biladi.



3. O‘ylang va toping.

1. “Nyama” so‘zining ma’nosini aniqlang.
A. Hayvon
B. Go‘sht
D. O‘simlik

2. “Nyama” qaysi xalq o‘yini?
A. Afrika xalqlari
B. Osiyo xalqlari
D. Yevropa xalqlari

3. Qaysi hayvonning go‘shtini yeyish mumkin emas?
A. Sigir
B. Quyon
D. Timsoh

4. “Nyama” o‘yinining maqsadini aniqlang.
A. Hayvonlarni himoya qilish
B. O‘simliklarni himoya qilish
D. Suvni tejashga o‘rgatish

jar
baqirmoq
aylana
xalq
maqsad

Vazifalar

1. Turli xorijiy davlatlarning milliy o‘yinlari nomi aks ettirilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Rasmda tasvirlangan turli millat bolalari va ular sevib o‘ynaydigan o‘yinlar haqida qisqacha ma’lumot bering. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlar asosida namunadagi kabi gaplar tuzishlari lozim. Gaplar dastlab og‘zaki aytiladi, so‘ng mashq daftariga yoziladi.

2. Afrika milliy o‘yini haqidagi audiomatnni dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga o‘qiting.

3. 3-topshiriqda test savollari berilgan. O‘quvchilar tinglab va o‘qib tushungan matnlari asosida ushbu testni bajarishlari lozim. Javoblar og‘zaki beriladi.

4. 4-topshiriqdagi “Men kimman?” o‘yini mohiyatini dastlab o‘quvchilarga tushuntiring. Bunda biror-bir predmet rasmi tushirilgan kartochka o‘quvchining peshonasiga maxsus tutqich yoki skotch yordamida mahkamlanadi. O‘quvchi jamoadoshlariga bir nechta savollar berib, peshonasida nimaning tasviri ekanini, ya’ni “o‘zining kimligi”ni topishi kerak. Mazkur topshiriq bo‘yicha darslikda tort rasmi keltirilgan va savollar berilgan. O‘quvchilar ushbu


4. O‘ylang va toping. Savollarga javob bering.

“MEN KIMMAN?”



qattiq
o‘ynasa bo‘ladimi?

1. Bu qattiqmi?
2. Buni kiyamizmi?
3. Buni o‘ynasa bo‘ladimi?
4. Bu shirinmi?
5. Buni yesa bo‘ladimi?
6. Bu tortmi?



HA YO‘Q

Mustaqil topshiriq. Rasmlarga yuqoridagi kabi savollar tuzing.





savollarga *ha* yoki *yo‘q* tarzida javob berishlari lozim.

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.


Sana: _____

MEN KIMMAN?

1. To'g'risini tanlang. (92/3)

1. "Nyama" so'zining ma'nosini aniqlang.
A. Hayvon
B. Go'sht
D. O'simlik

2. "Nyama" qaysi xalq o'yini?
A. Afrika xalqlari
B. Osiyo xalqlari
D. Yevropa xalqlari

3. Qaysi hayvonning go'shtini yeyish mumkin emas?
A. Sigir
B. Quyon
D. Timsoh

4. "Nyama" o'yinining maqsadini aniqlang.
A. Hayvonlarni himoya qilish
B. O'simliklarni himoya qilish
D. Suvni tejashga o'rgatish

2. Savollarga javob bering. (93/4)

"MEN KIMMAN?"

HA YO'Q

1. Bu qattiqmi? _____
2. Buni kiyamizmi? _____
3. Buni o'ynasa bo'ladimi? _____
4. Bu shirinmi? _____
5. Buni yesa bo'ladimi? _____
6. Bu tortmi? _____

Mustaqil topshiriq. Rasmlarga yuqoridagidek savollar tuzing.

56

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan yangi so‘zlardan 3 tasini eslab, daftarga yozishlari va ularni o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va “Men kimman?” o‘yiniga ilova tarzida berilgan rasmlarga savollar tuzib kelishlari lozim (ushbu o‘yinni oila davrasida yoki do‘stlari bilan o‘ynab, taassurotlari haqida gapirishlari ham mumkin).

40-DARS. QANI, KETDIK! (MUSTAHKAMLASH)

Maqsad

3-bo‘limda o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni takrorlab, mustahkamlab olish. O‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish. Yangi so‘zlari ustida ishlash. Ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili

fani bo‘yicha egallangan bilim va ko‘nikmalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator tavsiya va topshiriqlar berish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Ushbu dars 3-bo‘lim yuzasidan umumiy takrorlash, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan har bir topshiriqni o‘tilgan mavzular va grammatik bilimlari, amaliy ko‘nikma va malakalari asosida bajarishlari lozim.





2. Yangi so‘zlar ustida ishlang. O‘quvchilarning 3-bo‘limda o‘rgangan yangi so‘zlarini “Qaynoq mikrofon” metodi orqali tekshirib, baholang. Bunda o‘quvchilar o‘rgangan so‘zlaridan birini yodga olib, mikrofonni qo‘lga olgan zahoti tezlikda aytadilar va mikrofonni sheriklariga uzatadilar. Jarayon shu tarzda eng kuchli uchta ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bunda aytilgan so‘zni takrorlagan yoki belgilangan muddatda so‘z ayta olmagan o‘quvchilar o‘yinni tark etadi. Oxirida qolgan eng kuchli uchta ishtirokchi taqdirlanadi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va ta’til davomida “Tabiat va men” mavzusida kichik esse yozib, uni og‘zaki gapirib berishga tayyor bo‘lishlari, bahor haqida bitta she’r yoki 5 ta maqol yod olishlari lozim.

4-BO‘LIM. YORDAMCHI DO‘STLARIMIZ

41-DARS. IXTIRO QILISH MUMKINMI?

Maqsad


Zamonaviy texnologiyalar, xususan, kompyuterlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga o‘rgatish. Hayotimizni yengillashtiruvchi bunday qurilmalarning afzalliklari va salbiy jihatlari haqida ma’lumot berish. *Yoqadi / yoqmaydi* konstruksiyasini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.



BO‘LIMGA KIRISH

Yangi bo‘limga kirish qismini o‘tkazing. Berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilarga “Ushbu rasmda nimalar tasvirlangan?”, “Sizningcha, yangi bo‘limda nimalar haqida suhbatlashamiz?”, “Ushbu bo‘limda nimalarni o‘rganishni xohlar edingiz?”, “Kundalik turmushimizda eng ko‘p foydalaniladigan qanday qurilmalarni bilasiz?”, “Zamonaviy texnologiyalar bizga nima uchun kerak?” kabi bir qator savollar bilan murojaat qiling. Ularning fikr-

mulohazalarini tinglang, yangi bo‘lim yuzasidan qiziqarli ma’lumotlar bering, mavzuga qiziqish va ishtiyoqlarini oshiring. Ushbu yangi bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarning lug‘at boyliklari qay darajada ekanini o‘zingiz uchun baholang va qaysi jihatlarga e’tibor qaratish lozimligini aniqlab oling.



IXTIRO QILISH MUMKINMI?

1. O‘qing. Tinglang.

Kompyuter o‘yinlari barcha bolalar**ga yoqadi**. Davron ham har kuni kompyuterda o‘yin o‘ynaydi. Lekin bunda me’yorni bilmayapti. Hozir Davronning baholari pasayib ketgan. Ko‘zlari esa tezda og‘rib qolyapti. Kasal bo‘lish Davron**ga yoqmaydi.**

Davron ixtirochi tengdoshlariga murojaat qildi: “Menga yordam kerak. Kompyuter o‘yinlarini me’yorida o‘ynamoqchiman. Bolalarni nazorat qiladigan biror qurilma yoki robot ixtiro qilish mumkinmi?”

me’yor
tengdosh
qurilma
nazorat qilmoq

2. Savollarga javob bering.

1. Siz Davronga qanday maslahat berardingiz?
2. Kompyuter o‘yinlari o‘ynaganda o‘zingizni qanday nazorat qilasiz?

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Kompyuter o‘yinlari | Kasal bo‘lish | Ko‘p uxlash | Past baho olish | Ixtirolar qilish | Telefondan ko‘p foydalanish

1. *Past baho olish* o‘quvchilarga yoqmaydi.
2. … bolalarga yoqadi.
3. … Davronga yoqmaydi.
4. … ixtirochi bolalarga yoqadi.
5. … buvimga yoqmaydi.
6. … uyquchi bolalarga yoqadi.

96

Refleksiya jarayoni

O‘tgan darsdagi mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriq asosidagi audiomatnni dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga mustaqil tarzda, ketma-ketlik asosida o‘qiting. Matn yuzasidan bir nechta savollar bering. Masalan, “*Davronning baholari pasayib ketishiga nima sabab bo‘ldi? Davronning ko‘zlari og‘rishiga nima sabab bo‘lmoqda? Bolalarni nazorat qiladigan biror qurilma yoki robot ixtiro qilish mumkinmi?*” kabi savollar bilan murojaat qiling, fikr-mulohazalarini tinglang. Javoblarni birgalikda tahlil qiling.

2. 2-topshiriqdagi savollarga o‘quvchilar matnga tayangan holda javob berishlari lozim. Dastlab og‘zaki javob beriladi, so‘ng mashq daftariga yoziladi.


3. 3-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi matn asosida berilgan gaplarni kalit birikmalar bilan to‘ldirib chiqishlari lozim. Masalan, *kompyuter o‘yinlari, ixtirolar qilish, past baho olish, ko‘p uxlash, telefondan ko‘p foydalanish, kasal bo‘lish* kabi birikmalar bilan gaplar to‘g‘ri to‘ldirilishi lozim. Topshiriq mashq daftarida yozma bajariladi.

4. 3-topshiriqning 2-qismi asosida o‘quvchilarga *yoqadi* (tasdiq shakli) va **-ma** bo‘lishsizlik-inkor shakl yasovchi qo‘shimchasi bilan *yoqmaydi*

(inkor shakli) konstruksiyasini hosil qilish va nutqda qo‘llash bo‘yicha ma’lumot bering. Misollar orqali ushbu grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

5. Ushbu bilimlar asosida 4-topshiriqni ham bajartiring. Bunda o‘quvchilar jadvalda keltirilgan vaziyatlarni chehralarga moslashlari, ya’ni *yoqadi* yoki *yoqmaydi* konstruksiyasiga mos kelishini topishlari, javobni og‘zaki berishlari, so‘ng mashq daftariga yozishlari lozim.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.



4. O‘ylang va toping. Gapiring.

yoqadi / yoqmaydi

	Davron	Aziza	Maks	Asel	Denis
Muzqaymoq	😊		😟	😊	
Kitob o‘qish		😊			😊
Yakshanba	😟		😊		
Sayohatga chiqish				😊	😟
Muzeylarga borish		😊	😟		
Suzish			😊		😊
Kompyuter o‘yinlari	😊	😟		😟	

Namuna. *Davronga muzqaymoq, kompyuter o‘yinlari yoqadi. Unga yakshanba yoqmaydi.*

Mustaqil topshiriq. ***Tengdoshlar, ixtiro, qurilma, bolalar*** so‘zlaridan foydalanib 3–4 ta gap tuzing.

O‘Z QO‘LINGDA

1. Tinglang. O‘qing.

Do‘stim Davron, assalomu alaykum! Men ham avvallari kompyuter o‘yinlarini ko‘p o‘ynar edim. Onam menga “bukrider” (elektron kitob o‘qish qurilmasi) sovg‘a qildilar. Hozir unda kitoblar o‘qiyapman. Senga ham ko‘proq kitob o‘qishni maslahat beraman.

97

Sana: _____

IXTIRO QILISH MUMKINMI?

1. Savollarga javob bering. Yozing. (96/3)

Kompyuter o‘yinlari | Past baho olish | Ixtirolar qilish | Ko‘p uxlash | Kasal bo‘lish

1. ***Past baho olish*** o‘quvchilarga yoqmaydi.
2. _____ bolalarga yoqadi.
3. _____Davronga yoqmaydi.
4. _____ ixtirochi bolalarga yoqadi.
5. _____ uyquchi bolalarga yoqadi.

2. O‘ylang va toping. Yozing. (97/4)

yoqadi / yoqmaydi

	Davron	Aziza	Maks	Asel	Denis
Muzqaymoq	😊		😟	😊	
Kitob o‘qish		😊			😊
Yakshanba	😟		😊		
Sayohatga chiqish				😊	😟
Muzeylarga borish		😊	😟		
Suzish			😊		😊
Kompyuter o‘yinlari	😊	😟		😟	

Namuna. Davronga muzqaymoq va kompyuter o‘yinlari yoqadi. Unga yakshanba yoqmaydi.

_____
_____
_____
_____
_____

58

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Chehralar” metodini qo‘llab, mavzuni mustahkamlang. O‘quvchilarga *yoqadi / yoqmaydi* konstruksiyasini eslatuvchi quvnoq va xomush chehralar (aks etgan kartochkalar) tarqatiladi. Quvnoq chehrali kartochka olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘ziga yoqqan holat yoki vaziyatni, xomush chehrali kartochka egasi esa, aksin-

cha, bugungi darsda unga yoqmagan holat yoki vaziyatni kartochkaning orqa tomoniga yozishi, so‘ng o‘qib berishi kerak.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va berilgan so‘zlar *(tengdoshlar, ixtiro, qurilma, bolalar)* ishtirokida gaplar tuzib kelishlari lozim.

42-DARS. O‘Z QO‘LINGDA

Maqsad


Egalik qo‘shimchasi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash, ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Zamonaviy texnologiya vositalarini o‘zbek tilida ifodalash va ularni bevosita nutq jarayonida qo‘llash bo‘yicha malaka hosil qilish. Shuningdek, kompyuter qurilmalaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga o‘rgatish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqda Davronga turli mamlakatlardagi tengdoshlaridan kelgan maktublar berilgan. Ushbu maktublarning audio shaklini dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng mustaqil tarzda o‘qiting.



Salom, Davron! Sen kuchlisan! Senga ishonaman. Kompyuter o‘yinlari seni boshqara olmaydi. Sog‘liqni saqlash o‘z qo‘lingda. Himoya ko‘zoynagini taqishni ham unutma! U foydali.

Davron, sen robototexnika haqida eshitganmisan? U qiziq mashg‘ulot. Robototexnika to‘garaklariga qatnash. U senga judayam yoqadi. Balki, kerakli qurilma yoki robotni o‘zing ixtiro qilishni o‘rganib olarsan?

2. Savollarga javob bering.

Namuna. 1. *Davronga kim himoya ko‘zoynagi taqishni aytdi?*
Davronga himoya ko‘zoynagi taqishni Kevin aytdi.

2. Ja’farga onasi nima sovg‘a qilgan?
3. Mariya Davronga qanday maslahat berdi?
4. Kim Davronga ishonadi?
5. Ja’far Davronga qanday maslahat berdi?

maslahat
kuchli
ishonmoq

Diqqat qiling!


Mening	... -im /-m	Bizning	... -imiz /-miz
Sening	... -ing / -ng	Sizning	... -ingiz / -ngiz
Uning	... -i/-si	Ularning	... -lari/-i

98

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar maktublar bo‘yicha berilgan savollarga namunadagi kabi javob berishlari lozim. Javoblar dastlab og‘zaki beriladi, so‘ng mashq daftariga yoziladi.

3. Egalik qo‘shimchalarini olgan kishilik olmoshlari uchala shaxsda, birlikda va ko‘plikda qanday turlanishini tushuntiring. Grammatik mavzuni misollar orqali mustahkamlab oling.

4. Yuqoridagi grammatik bilimlar asosida 3-topshiriqni bajartiring. O‘quvchilar jadvalning birinchi qatoridagi so‘zlarni egalik qo‘shimchalarini to‘g‘ri qo‘llagan holda turlashlari lozim. Masalan: *kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz, kitobingiz, kitoblari* kabi.



_____
_____

Mustaqil topshiriq. *Tengdoshlar, ixtiro, qurilma* so‘zlaridan foydalanib 3-4 ta gap tuzing.

_____
_____
_____
_____

Sana: _____

O‘Z QO‘LINGDA

1. Savollarga javob yozing. (98/2)

Namuna. 1. Davronga kim himoya ko‘zoynagi taqishni aytdi? Davronga Kevin himoya ko‘zoynagi taqishni aytdi.

2. Ja’farga onasi nima sovg‘a qilgan?_____
_____

3. Mariya Davronga qaysi to‘garakni maslahat berdi?_____
_____

4. Kim Davronning kuchliligiga ishonishini aytdi?_____
_____

5. Ja’far Davronga qanday maslahat berdi?_____
_____

2. O‘ylang va toping. Yozing. (99/3)

	kitob	ona	ko‘z	fleshka	telefon
Mening					
Sening					telefoning
Uning		onasi			
Bizning				fleshkamiz	
Sizning	kitobingiz				
Ularning			ko‘zlari		

Mustaqil topshiriq. “O‘z qo‘lingda” birikmasidan foydalanib 2 ta gap tuzing.

59

5. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Kalit so‘z” metodini qo‘llang. O‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan yangi so‘zlardan 3 tasini daftarlariga yozishlari, so‘ng o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va “o‘z qo‘lingda” iborasidan foydalanib 2 ta gap tuzib kelishlari lozim.

43-DARS. SINMAYDIGAN KO‘ZOYNAK

Maqsad

Qila olmoq konstruksiyasi bilan tanishtirish. Uni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash bo‘yicha malaka hosil qilish. Fe’l hamda ish-harakatning bajarilishiga imkoniyat ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi – ***-a/y*** + *olmoq* ishtirokida gap tuzish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Refleksiya jarayoni


Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. 1-topshiriqda keltirilgan dialogning audio shaklini o‘quvchilarga 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng ketma-ketlik asosida yoki rollarga bo‘lib o‘qiting.

2. Dialog bo‘yicha kichik suhbat o‘tkazing. *Sinmaydigan ko‘zoynak bizga nima uchun kerak? Uning oddiy ko‘zoynaklardan afzalligi nimada? Sinmaydigan ko‘zoynak yaratish mumkinmi?* kabi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiling va ularning fikr-mulohazalarini tinglang.

3. O‘quvchilarni *qila olmoq* konstruksiyasi bilan tanishtiring. Ish-harakatning bajarilishiga imkoniyat ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi – ***-y/a*** + *olmoq* konstruksiyasini o‘quvchilar-



3. O‘ylang va toping. Gapiring.

	kitob	ona	kompyuter	ko‘z	fleshka	telefon
Mening			kompyuterim			
Sening						telefoning
Uning		onasi				
Bizning					fleshkamiz	
Sizning	kitobingiz					
Ularning				ko‘zlari		

Mustaqil topshiriq. ***“O‘z qo‘lingda”*** *iborasidan foydalanib 2 ta gap tuzing.*

SINMAYDIGAN KO‘ZOYNAK

1. Tinglang va o‘qing.

Erlan: Aziza, sen bir soatda necha bet kitob **o‘qiysan**?
Aziza: Bilmadim.
Erlan: Men buni sinab ko‘rdim.
Aziza: Xo‘sh, necha bet **o‘qiding**?
Erlan: Sakkiz betni arang **o‘qidim**.
Aziza: Nega? Qiyin ekanmi?
Erlan: Yo‘q, ko‘zoynagim sinib qolgan edi.
Aziza: To‘g‘ri, ko‘zoynaging bo‘lganda qiynalmasding.

bet
qiynalmaslik
o‘t o‘chirmoq
tuzatmoq
aniqlamoq

Diqqat qiling!

O‘qimoq – **y** + o‘q**iy** olmoq
Chizmoq – **a** + chiz**a** olmoq

- y
- a
+ olmoq

99

ning o‘z ona tilidagi muqobil tarjimasi bilan izohlagan holda tushuntiring, ushbu konstruksiyaga sof fe’llarni qo‘shgan holda jumlalar tuzing va misollar orqali grammatik mavzuni mustahkamlang.


4. 2-topshiriqda o‘quvchilarning mazkur grammatik mavzu bo‘yicha egallagan bilimlari sinovdan o‘tkaziladi. Rasmlarning o‘zaro assotsiatsiyasi asosida o‘quvchilar fe’llarni qatnashtirib namunadagi kabi gaplar tuzishlari lozim. Masalan, tort va oshpaz rasmi bir-biriga mutanosib. Demak, gap quyidagicha tuziladi: *Oshpaz tort pishira oladi.* Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

5. 3-topshiriqdagi optik ko‘zoynaklar tarixi haqidagi matnning audio shaklini dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga o‘qiting. Ular rasm bo‘yicha savollarga dastlab og‘zaki, so‘ng yozma javob berishlari lozim.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning. Shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Qaynoq mikrofon” metodini qo‘llang va dars mavzusini mustahkamlang. Bunda o‘quvchilar navbatma-navbat bir-birlariga mikrofon (*mikrofon qog‘oz maketi, qalam, ruchka va h.k.*) uzatadilar. Mikrofonni olgan o‘quvchi bugungi darsda o‘rganilgan, yodida qolgan so‘zlardan birini aytishi va mikrofonni sherigiga tezda uzatishi lozim. Bunda aytilgan so‘zlarning qayta takrorlanmasligiga e’tibor qaratishingiz lozim.


Sana: _____

SINMAYDIGAN KO‘ZOYNAK

1. O‘ylang va toping. Yozing. (100/2)

60

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va 1 soatda necha bet kitob o‘qishlarini aniqlab kelishlari lozim.

44-DARS. LUI BRAYL KIM?

Maqsad

Ish-harakatning bajarilish tarzi, holatini bildiruvchi ravishlar bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash. Ularni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Brayl alifbosi to‘g‘risida ma’lumot berish va zamonaviy texnologiya vositalari haqidagi tushunchalarni yanada kengaytirish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Berilgan audiomatnni dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga o‘qiting. Matn asosida berilgan rasmlarga o‘quvchilar diqqatini qarating.

2. O‘quvchilar 2-topshiriqda berilgan gaplarni yuqorida tinglab va o‘qib tushungan matnlari asosida davom ettirishlari lozim. Topshiriqni og‘zaki bajartiring.



3. Tinglang. O‘qing. Savollarga javob bering.

Optik ko‘zoynaklar Italiyada 13-asrda ixtiro qilingan. Uning ixtirochisi Salvino Armati hisoblanadi. Bugungi kunda optik ko‘zoynaklar va himoya ko‘zoynaklari bor. Himoya ko‘zoynaklari qattiq shamol, quyosh nuri yoki yorug‘likdan himoya qiladi.

Bu kim? Bu nima? Bular qanday ko‘zoynaklar? Buni qayerda ko‘rgansiz?

Mustaqil topshiriq. 1 soatda necha bet kitob o‘qiy olishingizni aniqlab keling.

Lui Brayl kim?

ixtirochi
yorug‘lik

1. Tinglang. O‘qing.

Lui 3 yoshida og‘ir ko‘z infeksiyasi bilan kasallandi. Infeksiya uni ko‘r qilib qo‘ydi. U o‘qishni juda xohlardi. Lekin harflarni ko‘rmas edi. Bir kuni Lui bo‘rtib chiqqan harflar haqida o‘ylab qoldi. Natijada 12 yoshidayoq bo‘rtma harflarni ixtiro qildi. O‘z ishini ilk bor 1924-yilda taqdim etdi. Lui Braylning ixtirosi uning nomi bilan “Brayl alifbosi” deb nomlandi.

101

3. Rasmlardagi vaziyatlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu vaziyatlar asosida ish-harakatning bajarilish holati, tarzini bildiruvchi *sekin, asta, tez, zo‘rg‘a* kabi ravishlar haqida ma’lumot bering, o‘quvchilarga ushbu ravishlarning ma’nosini o‘z ona tilida anglating. Ravishlarning nutqda ifodalanishini bir nechta misollar orqali ko‘rsating va tahlil qiling.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar jadvalda keltirilgan so‘zlarni namuna asosida bir-biriga moslab, gaplarni to‘g‘ri shakllantirishlari lozim. Masalan: *Aziza kapalakni asta tutib oldi. Davron stadionda tez yuguradi.* Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

5. 4-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar diqqatini qarating. Kundalik turmushda eng ko‘p qo‘llanuvchi qurilma va jihozlarda brayl alifbosi belgilari bo‘lishining sababi nimadaligi, ular nima uchun kerakligi haqidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiling, ularning fikr-mulohazalarini tinglang va ushbu mavzuda kichik davra suhbati o‘tkazing.

6. Yangi so‘zlar bilan tanishtiring, o‘quvchilar ularni o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, esda saqlab qolishlari uchun vizual, audial, kinestetik idrok etish usullaridan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘z” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlarni yodga oladilar va 1, 2, 3, 4 bo‘g‘inli so‘zlarga bittadan misol yozib, so‘ng o‘qib beradilar.



Namuna. Oshpaz tort pishira oladi.

_____
_____
_____
_____
_____

2. Tinglang. Yozing. (101/3)

Optik ko‘zoynaklar Italiyada 13-asrda _____ qilingan. Uning ixtirochisi _____ hisoblanadi. Bugungi kunda optik ko‘zoynaklar va himoya _____ bor. Himoya ko‘zoynaklari qattiq shamol, quyosh nuri yoki yorug‘likdan _____ qiladi.

3. Savollarga javob yozing.

Bu kim? **Bu nima?** **Bular qanday ko‘zoynaklar?** **Buni qayerda ko‘rgansiz?**

_____
_____
_____
_____
_____

Mustaqil topshiriq. 1 soatda necha bet kitob o‘qiy olishingizni aniqlab keling.

61

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va rasmlarda ko‘rsatilgan vaziyatlar asosida tez, sekin, zo‘rg‘a so‘zlariga gaplar tuzib kelishlari lozim.

45-DARS. OGOH BO‘LING

Maqsad

So‘roq olmoshlari bilan tanishtirish, ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish. Texnika xavfsizligi qoidalari bo‘yicha ma’lumot berish hamda ushbu qoidalarga amal qilishga o‘rgatish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. So‘roq olmoshlari bilan tanishtiring, ularning ifodalanishi va qo‘llanishi bo‘yicha ma’lumot bering hamda 1-topshiriqni bajartiring. O‘quvchilar tushirib qoldirilgan so‘roq olmoshlarini to‘g‘ri qo‘ygan holda gaplarni to‘ldirishlari lozim. Ushbu topshiriqni juftlikda, o‘zaro savol-javob tarzida o‘tkazish maqsadga muvofiq.

2. 2-topshiriqda *kim? nima?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi


Mustaqil topshiriq. *Tez, sekin, zo‘rg‘a* so‘zlarini qatnashtirib gaplar tuzing.

… tushyapti. … haydayapti. … ko‘tarilyapti.

OGOH BO‘LING

1. O‘ylang va toping.

Kim? Nima? Nechta? Qanday? Qayerda? Qachon?


Bu …? Bu – o‘qituvchi.

Bu …? Bu – kitob.

Tuxumlar …? Tuxumlar 6 ta.

103

bir nechta so‘zlar keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu so‘zlarni dastlab *kim?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarga, so‘ng *nima?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarga ajratib, o‘qib berishlari, keyin mashq daftariga yozishlari lozim.


Sana: _____

OGOH BO'LING

1. O'ylang va toping. Yozing. (103/1)

Kim? Nima? Nechta? Qanday? Qayerda? Qachon?

Bu _____? Bu – o'qituvchi.

Bu _____? _____.

Tuxumlar _____? _____.

Bu _____ ko'ylak? _____.

Koptok _____? _____.

Avtobus _____ keladi? Avtobus 8:00 da keladi.

2. O'ylang va toping. Yozing. (104/2)

Kim? _____

Nima? _____

63

3. 3-topshiriqda berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. O‘quvchilar rasmlarda ifodalangan predmetlarning nomi, soni (nechtaligi), rangi, mazasi, shakli (qandayligi) hamda joylashgan o‘rni (qayerdaligi)ni aniqlashlari va jadvalga namunadagidek yozib chiqishlari lozim. Topshiriq mashq daftarida yozma bajariladi.

4. 4-topshiriqdagi tasvirga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Matnni dastlab ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga o‘qiting. Berilgan savollarga o‘quvchilar dastlab og‘zaki javob beradi, so‘ng mashq daftariga yozadi.

5. Mavzudagi yangi so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Sevimli ertagimdan” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan ertakdagi *kim? nima? qanday? qayerda?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarga bittadan misol topib, daftarga yozadilar hamda o‘qib beradilar. Masalan, “Sholg‘om” ertagi misolida oladigan bo‘lsak:

Kim?	Nima?	Qanday?	Qayerda?
chol	sichqon	katta (sholg‘om)	polizda

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va *ustida, ichida, tagida, yonida, o‘rtasida* so‘zlarini qatnashtirgan holda o‘z xonalarini tasvirlab, undagi buyumlar sonini aniqlab kelishlari lozim.

46-DARS. KO‘ZOYNAK

Maqsad

Qurilmalardan foydalanish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Texnikaga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha malakalarni shakllantirish.


Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.

Vazifalar

1. Dastlab o‘quvchilar bilan ko‘zoynak haqida qisqa savol-javob o‘tkazib oling. Uning turlari, ahamiyati haqida ma’lumot bering.

2. 1-topshiriqda keltirilgan rasmli jadvalga o‘quvchilar diqqatini qarating. Ushbu jadvalda texnika xavfsizligi qoidalariga oid bir nechta vaziyatlar *mumkin / mumkin emas* ustuniga ajatilgan holda berilgan. O‘quvchilar ushbu


KO‘ZOYNAK

1. O‘ylang va gapiring.

Mumkin emas	Mumkin
Mikroto‘lqinli pechda zarli idish ishlatish	
Sovitkichga issiq ovqat qo‘yish	
Sovitkich ustiga qaychi, pichoq soat, og‘ir narsalar qo‘yish	
Rakovinaga ovqat qoldiqlarini tashlash	
Eshikni ochgach, kalitni eshikda qoldirish	

zarli idish
ishlatish
og‘ir
ovqat qoldiqlari
qoldirmoq
yaqin
taqmoq
tizza

107

vaziyatlarni o‘z so‘zlari bilan sharhlab, izohlab berishlari lozim. Ushbu topshiriq og‘zaki ravishda bajarilishi hamda o‘quvchilarning o‘zbek tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

3. 2-topshiriqda o‘quvchilar 2 ustunda keltirilgan jumlalarni bir-biriga to‘g‘ri moslash texnika xavfsizligiga oid qoidalardan bir nechtasini namunadagi kabi shakllantirishlari lozim. Ushbu topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

4. O‘quvchilarga *qachon?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlar va payt ravishlari haqida ma’lumot bering. Ushbu so‘zlarning ma’nolarini o‘quvchilarning o‘z ona tilida tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing, so‘ng o‘quvchilarga gaplar tuzdiring. Misollar orqali grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

5. 3-topshiriqdagi dialogni dastlab bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng rollarga bo‘lgan holda o‘qiting. Dialog yonidagi rasmga o‘quvchilar e’tiborini qaratring.

6. 4-topshiriqda o‘quvchilar savollarga yuqoridagi rasm va dialogdan olgan ma’lumotlari,

3. O‘ylang va toping. Yozing. (105/3)

NIMA?	QANDAY?	QAYERDA?	NECHTA?
olma	*shirin*	*likopda*	*5 ta*

Mustaqil topshiriq. Xonangizni tasvirlang, *ustida, ichida, tagida, yonida, o‘rtasida* so‘zlarini ishlating.

_____
_____
_____
_____

Sana: _____

KO‘ZOYNAK

1. O‘ylang va toping. Yozing. (107/1)

1. Mikroto‘lqinli pechga _____ idish _____ _____mumkin.
2. _____telefon o‘ynash_____emas.
3. Sovitkich ustiga qaychi, pichoq soat qo‘yish_____.
4. Rakovinada idish yuvish _____.
5. Eshikda kalitni qoldirish _____.
6. Televizorni uzoqdan ko‘rish _____.
7. _____ _____.
8. _____ _____.
9. _____ _____.


64

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna. Mikroto‘lqinli pech uchun maxsus idishlar bor.

Mikroto‘lqinli pech uchun	kalitni eshikda qoldirish mumkin emas.
Eshikni ochgach,	qo‘yish mumkin emas.
Kattalarning ko‘zoynagini	taqish mumkin emas.
Sovitkichga issiq ovqat	soat, qaychi, pichoq qo‘yish mumkin emas.
Sovitkich ustiga	yaqindan ko‘rish mumkin emas.
Televizorni	maxsus idishlar bor.

Diqqat qiling!



109

xulosalari asosida namunada ko‘rsatilgani kabi javob berishlari lozim. Javoblar og‘zaki beriladi.

7. Mavzudagi yangi so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning.



3. O‘qing. O‘ylang va toping.

– Karim, ko‘zoynagim qayerda?
– Bobojon… iltimos, meni kechiring.
– Nima bo‘ldi?
– Men kecha ko‘zoynagingizni bilmasdan sindirib qo‘ydim.
– Eh, bolam. Yaxshi ish qilmabsan. Unda dorining qog‘ozini o‘qib ber.
– Xo‘p bo‘ladi, bobojon.
– Ho‘sh, qachon ichish kerak ekan?
– Ertalab va kechqurun. Hozir ichasizmi?
– Ha, hozir ichaman.
– Unda men suv olib kelaman.
– Rahmat, bolam!
– Bobojon, mana suv.
– Bolam, qachon chiqarilgan ekan? Sanasiga qara-chi.

Ishlab chiqarilgan sana: 22.02.2022
Yaroqlilik muddati: 22.02.2024

Bolalar, siz ham bobo-buvingizga yordam bering.

4. Savollarga javob bering.

QACHON?

Karim ko‘zoynakni sindirdi?
dorini ichish kerak?
bobosi ko‘zoynakni so‘radi?
dorining saqlash muddati tugaydi?
Karim suv olib keldi?

Namuna. Qachon Karim ko‘zoynakni sindirdi?
Karim ko‘zoynakni kecha sindirdi.

Mustaqil topshiriq. Savollarga javob yozib keling.

110

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga kalit so‘z sifatida doskaga gorizontal holatda KO‘ZOYNAK so‘zi yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘rgangan yoki o‘zlari yod olgan K, O‘, Z, O, Y, N, A, K harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari hamda o‘qib berishlari kerak.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va 4-topshiriqdagi savollarga javob yozib kelishlari lozim.

47-DARS. QARANG, UCHDI!

Maqsad

Ko‘rsatish olmoshlari haqida ma’lumot berish, ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish. Shuningdek, so‘roq olmoshlari bo‘yicha mavjud bilimlarni yanada mustahkamlash. Varrak uchirish, uning tarixi bo‘yicha tushuncha va tasavvurlarni yanada kengaytirish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar

1. Dastlab mavzuga kirish qismini o‘tkazing. O‘quvchilarga “*Siz ham varrak uchirganmisiz? Varrak qayerda paydo bo‘lgan? Varrak yasashni bilasizmi?*” kabi savollar bilan murojaat qiling, ularning bu boradagi bilimlarini sinovdan o‘tkazing.

2. 2-topshiriqda keltirilgan matnning audio shaklini 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlik asosida o‘qiting.

3. Matn asosida berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qaratting. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling.

4. 3-topshiriq savollariga o‘quvchilar yuqoridagi rasm va matndagi ma’lumotlar asosida javob berishlari lo-






zim. Dastlab savollarni o‘qib bering. So‘ng javoblar og‘zaki berilishi kerak.

5. O‘quvchilarga *bu, shu, u, o‘sha, ana, mana, mana bu, mana shu, ana o‘sha* kabi ko‘rsatish olmoshlari haqida ma’lumot bering. Ularning ma’nosini o‘quvchilarning o‘z ona tilida tushuntirib, izohlang. Olmoshlarning qo‘llanishi va narsa-predmetning joylashuviga qarab ifodalanishini darslikda keltirilgan rasm va o‘quv-didaktik materiallari asosida ko‘rgazmali tarzda tushuntiring.

6. 4-topshiriqda o‘quvchilarning yuqoridagi grammatik mavzu bo‘yicha egallagan bilimlarini baholab oling. Bunda ular 2-topshiriqdagi rasm asosida *bu, shu, u* ko‘rsatish olmoshlarini qo‘llagan holda namunadagi kabi gaplar tuzishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

7. Mavzudagi yangi so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Ularning imlosi va talaffuzi ustida ishlang, esda saqlab qolishlari uchun vizual, audial, kinestetik idrok etish usullaridan foydalaning va shu tarzda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi leksikasini yangi so‘zlar bilan boyitib boring.




Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Mevali daraxt” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilarga mevalar ko‘rinishidagi stikerlar tarqatiladi. Doskada esa daraxt rasmi chiziladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘tilgan, yodlarida qolgan so‘zlarni mevali stikerga yozadilar va navbatma-navbat ushbu so‘zlarni o‘qib beradilar, so‘ng daraxtni mevalar bilan “bezatadilar”.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va varrak haqida kamida 15–20 ta so‘zdan iborat matn tuzib kelishlari lozim.



3. Savollarga javob yozing. (112/3)

1. Varrakni kim o'ylab topgan?_____

2. Osmonda qanday so'zlar hosil bo'ldi? _____

3. Bolalar qachon varrak uchiradilar?_____

4. Osmonda nechta varrak bor? _____

4. O‘ylang va toping. Yozing. (112/4)

Bu, shu, u

Namuna. Bu varrak Davronniki. _____varrakda “Tinchlik” so‘zi yozilgan. _____ varrak esa Aselniki. Unda “Do‘stlik” so‘zi yozilgan.

Mustaqil topshiriq. “Varrak” mavzusida matn yozing.

67


48-DARS. BILIB QO‘YGAN YAXSHI

Maqsad

Hozirgi-kelasi zamon fe’llari haqida ma’lumot berish, ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish. Shuningdek, kundalik turmushda asqatuvchi foydali ma’lumotlar bilan tanishish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



BILIB QO‘YGAN YAXSHI

1. Tinglang va o‘qing.

1. Qo‘l bilan yuving.	1. Namlikdan himoya qilish kerak.
2. Dazmollash mumkin emas.	2. Oyoq bilan bosmang.
3. Yuvish mumkin emas.	3. Sinishga moyil.
4. 30 darajagacha iliq suvda yuvish mumkin.	4. Issiqdan himoya qilish kerak.
5. 100 darajagacha issiqlikda dazmollash mumkin.	5. Yong‘indan uzoqroq saqlang.

2. O‘ylang va toping.

namlik
dazmollamoq
bosmang
sayr qilmoq
aylanmoq
o‘rindiq
chanqamoq

1. Qo‘l bilan yuving.
2. Dazmollash mumkin emas.
3. 30 darajagacha iliq suvda yuvish mumkin.

1. Oyoq bilan bosmang.
2. Sinishga moyil.
3. Namlikdan himoya qilish kerak.

Vazifalar

1. 1-topshiriqdagi xavfsizlik qoidalarini dastlab audioda 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering. So‘ng ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘quvchilarga o‘qiting. Har bir ogohlantiruvchi belgi va u qanday ma’no ifodalashini ko‘rgazmali didaktik materiallar asosida tushuntirib bering.

2. 2-topshiriqda berilgan ogohlantiruvchi belgilarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu topshiriqda o‘quvchilar shartli belgilarni ularning izohi bilan moslab chiqishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

3. 3-topshiriqda berilgan matnni dastlab o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘qiting. Matn asosida berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazib oling.

4. 4-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi rasm va matnda keltirilgan ma’lumotlar asosidagi savollarga javob berishlari lozim. Savollarni o‘qib bering. O‘quvchilar javoblarni dastlab og‘zaki aytadilar, so‘ng mashq daftariga yozadilar.

5. O‘quvchilarga zamon fe’llari va ularni shaxs-sonda tuslash

3. O‘qing.




Ahmad onasi va ukasi bilan xiyobonga sayrga **chiqdi**. Ular xiyobonni uzoq **aylanishdi**. So‘ng o‘rindiqqa o‘tirib, biroz **dam olishdi**. Ahmadning ukasi chanqagani uchun onasi unga suv **berdi**. Ahmad o‘zi bilan olib chiqqan bananini **yedi**. Onasi Ahmadga bo‘sh baklajkani qizil qutiga, banan po‘chog‘ini esa yashil qutiga tashlashni **buyurdi**.

4. Savollarga javob bering.

1. Siz bunday qutilarni qayerlarda ko‘rgansiz?
2. Ahmad nega po‘choq va baklajkani bitta qutiga tashlamadi?
3. Siz ham chiqindini qutilarga saralab tashlaysizmi?

bo‘yicha ma’lumot bering. Ularning ma’nosini o‘quvchilarga o‘z ona tilida tushuntiring. Zamon fe’llarini shaxs-sonda tuslab ko‘rsating va og‘zaki tushuntiring. O‘quvchilardan ham biror-bir fe’lni zamonlarga og‘zaki tuslab berishlarini so‘rang.


BILIB QO'YGAN YAXSHI

1. O'ylang va toping. Yozing. (113/1)

2. Savolarga javob yozing. (114/4)

1. Siz bunday qutilarni qayerlarda ko'rgansiz?

2. Ahmad nega po'choq va baklajkani bitta qutiga tashlamadi.

3. Siz ham chiqindilarni qutilarga saralab tashlaysizmi?

3. Belgilang. Yozing. (115/5)

68

6. 5-topshiriqda o‘quvchilar chiqindilarni maxsus qutilarga to‘g‘ri ajratish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bunda qizil, sariq, yashil qutilarga rasmda keltirilgan chiqindilarni to‘g‘ri taqsimlab “solish”lari va namunadagi kabi gaplar tuzishlari kerak bo‘ladi. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

7. Mavzudagi yangi so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning.

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Globoalifbo” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan so‘zlarni alifbo tartibida aytishlari kerak. Masalan: 1-o‘quvchi A harfi bilan boshlanuvchi *Ahmad*; 2-o‘quvchi B harfi bilan boshlanuvchi *banan* so‘zini aytadi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va uylaridagi texnika vositalari, turli qurilmalar va kiyim yorliqlaridagi ogohlantiruvchi belgilarni chizib, ularning ma’nosini yozib kelishlari lozim.

49-DARS. ENG, ENG, ENG

Maqsad

Sifatlarning orttirma daraja shaklini hosil qiluvchi *eng, juda* birliklari bilan tanishtirish. Ularni og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikma hosil qilish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar

1. 1-topshiriqda keltirilgan matnni audioda dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘qiting. Berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazing.

2. 2-topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagi rasm va matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida berilgan “Bu kim?” savoliga *juda, eng* so‘zlarini qatnashtirib namunadagi kabi javob berishlari lozim. O‘quvchilar javoblarni dastlab og‘zaki ravishda aytadilar, so‘ng mashq daftariga yozadilar.

3. O‘quvchilarga orttirma sifat shaklini hosil qiluvchi *eng, juda* so‘zlari haqida ma’lumot bering. Ularning ma’nosini o‘quvchilarning o‘z ona tilida tushuntiring hamda sifatlar bilan qo‘llanishi bo‘yicha misollar keltirib, grammatik mavzuni mustahkamlab oling.

4. 3-topshiriqda o‘quvchilar jadvaldagi sifatlarni berilgan so‘zlar bilan moslagan holda so‘z birikmasi tuzishlari hamda ushbu sifatlar oldidan *eng, juda* so‘zlarini qo‘shib orttirma sifat darajasini



ENG, ENG, ENG

1. Tinglang va o‘qing.

marra
eng
qiziq
arqon
uloqtirmoq

Maktabda katta festival bo‘ldi. Unda juda ko‘p musobaqa va tanlovlar o‘tkazildi. O‘quvchilar faol ishtirok etdilar.

Yugurish bo‘yicha musobaqada Sergey marraga birinchi yetib keldi. Zarina esa arqonda **eng** ko‘p sakradi. Jasur bo‘lsa **eng** uzoqqa koptok uloqtirdi. Pazandalar tanlovida Aziza eng shirin tortni tayyorladi. Davron eng katta robotni yasadi. Asel bilan Kevin eng chiroyli rasmni chizishdi. Festival juda zo‘r o‘tdi. O‘quvchilar festivalni “**Eng, eng, eng**” deb atashdi.

116

hosil qilishlari lozim. Masalan, *eng baland bino; juda shirin tort.*

5. 4-topshiriqda o‘quvchilar rebusni yechishlari, yashirilgan so‘zni topishlari va daftarga yozishlari zarur. Masalan: 1-rebus javobi – tort; 2-rebus javobi – daraxt. Bunda birinchi rebusni o‘zingiz doskada batafsil tushuntirgan holda yechib ko‘rsatishingiz maqsadga muvofiq.

6. Mavzudagi yangi so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning.


Sana: _____

ENG, ENG, ENG

1. Tinglang va yozing. (116/1)

Maktabda _____ festival bo‘ldi. Unda juda ko‘p musobaqa va tanlovlar o‘tkazildi. O‘quvchilar _____ ishtirok etdilar.

Yugurish bo‘yicha musobaqada Sergey marraga _____ yetib keldi. Zarina esa arqonda _____ ko‘p sakradi. Jasur bo‘lsa eng uzoqqa koptok uloqtirdi. Pazandalar tanlovida Aziza eng shirin _____ni tayyorlab keldi. Davron eng _____ robotni yasadi. Asel bilan Kevin eng chiroyli rasmni chizishdi. Festival juda _____ o‘tdi. O‘quvchilar festivalni “Eng, eng, eng” deb atashdi.

2. Savolga javob yozing. (117/2)

Namuna. Bu – Sergey. U juda tez yuguradi.

_____

_____

_____

_____

_____

_____

_____

_____

_____

_____

70

Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Bosh harflar” metodini qo‘llang. Bunda *robot* kalit so‘zi doskaga gorizontal holatda yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bugungi darsda o‘rganilgan yoki o‘zlari bilgan R, O, B, O, T harflari bilan boshlanuvchi so‘zlarga bittadan misol topib yozishlari va o‘qib berishlari lozim.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va *eng, juda* so‘zlaridan foydalanib do‘stlariga ta’rif yozib kelishlari lozim.

50-DARS. BATUT

Maqsad

O‘rin-joy ravishlari bilan tanishtirish. O‘rin-joy ravishlarini og‘zaki va yozma nutqda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llash bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.



BATUT

1. Tinglang. O‘qing.

Dam olish kuni dadam bizni batut markaziga olib bordilar. U yerda har xil batutlar bor ekan. To‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat va doira shaklidagi batutlarni ko‘rdik. Men va singlim doira shaklidagi batutda sakradik. U batut eng katta batut edi. Men uning **o‘rtasida** sakradim. Batutda jami 5 ta bola sakradik. Bolalarning ota-onalari batut **atrofida** kuzatib turdilar. Xullas, maza qildik.

2. Savollarga javob bering.

1. Davron batut markaziga qachon bordi?
2. U yerda qanday shakldagi batutlar bor ekan?

119

Vazifalar

1. 1-topshiriqda keltirilgan matnni audioda dastlab 2 marta tinglating yoki o‘zingiz bir marta ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilarga ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘qiting. Matn asosida berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Unda nimalar tasvirlangani haqida kichik suhbat o‘tkazing.


2. 2-topshiriqda o‘quvchilar savollarga yuqoridagi rasm va matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida javob berishlari lozim. Savollarni o‘qib bering. O‘quvchilar dastlab og‘zaki javob beradilar, so‘ng mashq daftariga yozadilar.

3. 3-topshiriqda o‘quvchilar kalit so‘zlar – o‘rin-joy ravishlarini o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri to‘ldirishlari lozim. Topshiriq dastlab og‘zaki, so‘ng mashq daftarida yozma bajariladi.

4. 4-topshiriqdagi berilgan rasmga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Ushbu rasm yuzasidan o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazing. Bunda ular

o‘rin-joy ravishlaridan foydalangan holda rasmdagi turli holat va vaziyatlar haqida gapirib berishlari lozim.

5. Mavzudagi yangi so‘zlar bilan tanishtiring, ularni o‘quvchilarning o‘z ona tilidagi tarjimasi bilan izohlab, ma’nosini to‘laqonli tushunishlariga erishing. Mavzu asosidagi materiallarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning vizual, audial va kinestetik idrok etish darajalariga ta’sir qiluvchi usullardan foydalaning.



Refleksiya jarayoni

Dars so‘ngida “Bugungi darsdan nima oldim?” metodini qo‘llang. Bunda o‘quvchilardan bugungi darsdan nima olganliklari haqida bitta gapdan iborat fikr so‘rang va uni daftarga yozishlarini ayting. Dars mavzusini umumlashtiring.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va o‘zlariga yoqqan mavzuda rasm chizib, *ichida, ustida, tagida, o‘rtasida, atrofida* o‘rin-joy ravishlarini mos o‘ringa yozib kelishlari lozim.

51-DARS. QANI, KETDIK! (MUSTAHKAMLASH)

Maqsad

Mazkur o‘quv yilida o‘tilgan barcha mavzular va egallangan bilimlarni sarhisob qilish. O‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholash, tahlil qilish. Yangi so‘zlar ustida ishlash. Yozgi ta’tilni to‘g‘ri va samarali tashkillashtirish hamda o‘zbek tili fani bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator tavsiya va topshiriqlar berish.



Refleksiya jarayoni

Oldingi darsda berilgan mustaqil topshiriq natijasini baholang, tahlil qiling. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida qisqa savol-javob o‘tkazing va bu orqali ularning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab oling.


Vazifalar

1. Ushbu dars umumiy takrorlash, bilimlarni sarhisob qilishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan har bir topshiriqni o‘tilgan mavzular, grammatik bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar asosida bajaradilar.

2. Yangi so‘zlar ustida ishlang. O‘quvchilarning butun o‘quv yili davomida o‘rgangan yangi so‘zlarini “Qaynoq mikrofon” metodi orqali tekshirib, baholang. Ular mikrofonni olganlari zahoti butun o‘quv yili davomida o‘rgangan so‘zlaridan birortasini tezlikda aytadilar va mikrofonni sheriklariga uzatadilar. Jarayon shu tarzda eng kuchli uchta ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bunda aytilgan so‘zni takrorlagan yoki belgilangan muddatda so‘z ayta olmagan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. Oxirida qolgan eng kuchli uchta ishtirokchi taqdirlanadi.

Mustaqil topshiriq

O‘quvchilar dars davomida yakuniga yetmay qolgan topshiriqlarni bajarishlari va yozgi ta’til davomida o‘zlari tanlagan o‘zbek tilidagi 5 ta ertakni o‘qib, ular asosida lug‘at tuzishlari, shunga o‘xshash ertak yoki hikoyalar yozib kelishlari lozim.



INTERAKTIV METODLAR

“GLOBOALIFBO” metodi

SUDOKU

“QIYIN SAVOL” metodi

“T-CHIZMA” metodi

KROSSVORD

“QARSAKLAR” metodi

“SO‘ZDA NECHTA BO‘G‘IN BOR?” metodi

“TIMSOH” metodi

“BUTERBROD” metodi

“INTERVYU” metodi

“4 TARAF” metodi

BO‘LIMGA KIRISH

Metodlar bo‘yicha ma’lumotlar ushbu QR kodda →

ILOVALAR

1-ilova

Sarguzasht

– Arseniy, bilasanmi, bugun judayam qiziqarli voqea bo‘ldi.
– Nima bo‘ldi?
– Maktabga kelayotganimda yo‘l yuzida katta yoshli bir ayol og‘ir yuk ko‘tarib turganini ko‘rib qoldim. Unga yordam berdim. Yukini ko‘tarib, yo‘ldan o‘tkazib qo‘ydim. Shunda u menga: “Bolam, iltimos, dorixonaga kirib, dori olib chiqay”, – dedi va dorixonaga kirib ketdi. Men u kishini uzoq kutdim. Haligi ayol kelavermagach, unga biror nima bo‘lmaganmikan deb xavotirlanib, dorixonaga kirdim, lekin ayol u yerda yo‘q edi. Men uni sehrgar deb o‘yladim, chunki dorixonaga kirib ketdi va yo‘q bo‘lib qoldi. Hayron bo‘lib, yana og‘ir yuk yoniga kelib turdim. Bir mahal u ayol dorixona yonidagi bankdan chiqib keldi. Dorixona esa o‘ngda edi. Ajablanib u ayoldan so‘radim: “Qanday qilib siz dorixonaga kirib, bankdan chiqib kelyapsiz?” Ayol kuldi-da: “Ichkaridagi xonada qo‘limni yuvayotganimda dorixonaga kirgan bo‘lsang kerak. Men dorixonadan chiqib bankdan nafaqa pulimni olib chiqdim. Bu yerda hech qanday sehrgarlik bo‘lgani yo‘q”, – dedi. Biz kula-kula ayolning uyiga keldik. Maktabimiz yonidagi 9-uyda turar ekan. Ayol bilan xayrlashib, maktabga keldim.
– O, Fotima, bugungi kuning sarguzasht bilan o‘tibdi-da?!
– Ha, bugun sarguzashtlarga boy kun bo‘ldi.

2-ilova

Xonatlas tarixi

Qadim zamonlarda Marg‘ilonda bir usta hunarmand bo‘zchi bo‘lgan ekan. Uning go‘zal, suluv bir qizi bor ekan. U qizning ta’rifi Marg‘ilon xoni qulog‘igacha yetib boribdi. Xon o‘sha qizga uylanishni ixtiyor etibdi va sovchilarini jo‘natibdi. Bo‘zchi xon sovchilariga rad javobini beribdi. Bundan g‘azablangan xon bo‘zchiga muddat berib, shu muhlat ichida biror hayratlanarli narsa yaratishini talab qilibdi. Agar belgilangan muddat ichida shart bajarilmasa, bo‘zchi va qizini jazolashini aytibdi. G‘amga botgan bo‘zchi ariq bo‘yida o‘ylanib o‘tirsa, to‘satdan yomg‘ir boshlanibdi. Birozdan so‘ng quyosh chiqibdi va osmonda kamalak paydo bo‘libdi. Ariq suvida rango-rang akslanayotgan kamalak jilosini ko‘rib, bo‘zchi nihoyatda hayratlanibdi. Darrov ustaxonasiga borib, kamalakdan andoza olib, bir mato yaratibdi. Bu matoda kamalakning barcha ranglari aks etgan ekan. Bo‘zchi ushbu matoni xon huzuriga olib boribdi. Xon bu matoning go‘zalligidan lol bo‘lib, bo‘zchining mahoratiga tan beribdi. Ushbu matoga “Xonatlas” deb nom berilibdi. Bo‘zchi va qizi jazodan ozod etilibdi va barchalari o‘z murod-maqsadlariga yetishibdi.

3-ilova













4-ilova








































5-ilova





скачано с сайта www.idum.uz





скачано с сайта www.idum.uz

O‘quv nashri

O‘ZBEK TILI

3

O‘QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

Ta’lim rus, qoraqalpoq va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Dizayner *Dilmurod Mulla-Axunov*
Sahifalovchi *Ixvoldin Salohitdinov*
Musahhih *Xurshid Ibrohimov*

Bosishga 27.05.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 13. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 14,88. Nashriyot-hisob tabog‘i 11,38.
Adadi ___ nusxa. Buyurtma № ___.

“O‘zbekiston” MChJ nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100011. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz